boshlagan. Albatta, biz bilamizki har qanday individ ijtimoiy munosabatlarga kirishishning boshlang'ich murakkablashgan makonida ya'ni ta'lim muassasasida shakllanishni boshlaydi. Ta'lim muassasasida individ ma'lum bir sotsial aloqani o'rnatadi, jamiyatga xos bo'lgan madaniy meyorlarni o'rganadi. O'rnatilgan aloqa va o'rganilgan meyorlar, individni jamiyatga integratsiya qilishida ma'lum bir qulayliklar yaratadi. Bunday holat esa individda jamiyatga nisbatan ishonchini hosil qiladi.

Yana bir boshqa ta'lim tadqiqotchisi L.Xanifan sotsial kapital darajasini qanday qilib ko'tarish mumkin? degan savolga javob berar ekan, u AQShdagi ayrim mahalliy hamjamiyatlar haqida misol keltirib, ulardagi dasturlarda boshlang'ich va o'rta ta'limni hammabopligini kuchaytirish tashabbusi keltirib o'tilganligi haqida tushuntirgan. Muallif fikricha, maktab islohot natijasida mazkur hamjamiyat ijtimoiy hayotining markaziga aylanganligi e'tirof etilgan. Mazkur xududda yashovchilarning muntazam ravishda uchrashuv o'tkazishlari sotsial kapitalga bo'lgan bir talay keskin yondashuvlar shakllanishiga, nafaqat ta'lim bilan bog'liq, balki sotsial infratuzilmani sifatini yaxshilashga qaratilgan (yo'llar, tibbiy xizmat) va boshqa jamiyat ravnaqidagi umumiy muammolarni yechishga imkon bergan. L.Xanifan fikricha sotsial kapitalga qilingan har qanday investitsiya sezilarli darajada moddiy jihatdan foyda keltirishi mumkinligini tushuntirgan.[16]

Aslida ham "sotsial kapital" terminini birinchilardan bo'lib L.Xanifan 1920 yillarda qishloq maktablaridagi jamoatchilik markazlarini, insonlarning kundalik hayotidagi muhim "substansiya"ni aniqlash uchun, o'zining munozaralarida ishlatgan. Ushbu "substansiya" ijtimoiy guruh tuzuvchilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqa va birdamlik ekanligini L.Xanifan ta'kidlab o'tgan.[17]

Albatta, sotsial kapital nafaqat ta'lim sohasiga balki, barcha sohalariga bir xil shaklda ta'sir ko'rsatadi. Makur holatda sotsial kapitalning asosiy funksiyasi insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning o'rnatilishi, aloqalarni mustahkamlanishi va insonlar o'rtasida o'zaro ishonch ko'rsatkichining shakllanish tamoyiliga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan substansional

asos, bu munosabatlar tizimidagi mohiyat - aloqa ekanligini tushuntirishga harakat qilingan. Chunki, inson kundalik hayot faoliyatida ko'pgina aloqalarga kirishadi. Shu aloqalar tufayli u shakllanadi va ijtimoiylashadi.

Keyinchalik sotsial kapital kategoriyasi juda chuqur konseptuallashuvni hosil qildi va bugungi kunga kelib ko'pchilik tadqiqotchilar ushbu xodisani tushunishda ikki xil yondashuv yoki ikki xil darajadagi tahlilga ajratadilar. Xususan S.P.Borgatti, K.Djons, M.G.Everet va N.Linlar shunday deb xisoblaganlar. Ushbu darajalarni shartli ravishda makro va mikro darajalar deb nomlash mumkin. Birinchi yondashuv sotsial kapitalni individual sotsial aktor sifatida sifatini tavsiflaydi, vaholanki, ikkinchi esa uni gurux sifatida sifatini tavsiflaydi (odatda umumiy jamiyat bo'lib tavsiflanadi). Sotsial kapitalning yetakchi tadqiqotchilaridan biri N.Lin, iqtisodiy o'xshashliklarga tayanib, undagi majoziy kapitalga urg'u beradi va undagi aniq chegarani belgilab, ushbu yondashuvlar kim foyda olishi kerak – individ yoki gurux savolining javobini berishga imkon beradi.[17]

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Yuqorida berilgan yondashuvlar sotsial kapitalning jamiyat faoliyatidagi o'z strukturasi shakllanishini ifodalaydi. Mazkur struktura makro va mikro darajalarda shakllanadi, ammo ushbu tavsif sotsial kapitalni faqat foyda olish nuqtai nazaridan ifodalaydi. Albatta, ushbu vaziyatda kapital tushunchasini majoziy jihatlariga ko'p e'tibor berilganligi ko'zga tashlanadi. Shu bois ma'lum bir dilemma hosil bo'ladi. Aholini turmush sifatini oshirishda sotsial kapitalning qaysi bir tavsifi: individual yoki guruxiy tavsifi ko'proq qo'llaniladi. Ushbu dilemmaning yechimi mazkur tushunchani ijtimoiy yoki iqtisodiy omil ekanligiga tavsif beradi.

Mikro darajadagi sotsial kapital tushunchasining taxmini shundaki, individ o'z shaxsiy sotsial kapitaliga investitsiya kiritishi mumkin. Ushbu sotsial kapital tadqiqotining mazmunini nobel mukofoti laureati G.S.Bekker tomonidan taklif etilgan, an'anaviy asosda davom ettirilgan. 1964 yil G.S.Bekker "inson kapitali" tushunchasini ilmiy muomilaga kiritib, unda u ishchilarning ko'nikma, bilim va mahoratlarni majmuyini belgilagan, ketkaziladigan sarf harajat vaqti kelib ishchining o'ziga va uning ish beruvchisiga sezilarli darajada foyda keltirishini ta'kidlagan.[17]

Har qanday tushunchani strukturalash orqali ma'lum darajada uni tadqiq etish metodikasi shakllanadi. Sotsial kapital tushunchasi va uning strukturasi makro va mikro hamda mezo darajalarda o'rganish ilmiy tadqiqot ishining maqsadlaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tishimiz zarur.

Sotsial kapital tushunchasining mikro darajadagi konseptualizatsiyasiga eng ahamiyatli xissani fransiyalik sotsiolog Pyer Burdye qo'shgan. Pyer Burdye sotsial kapitalni real va salohiyatli resurslar majmuasi sifatida, eng mustahkam aloqalar bilan, birmuncha institutlashtirilgan munosabatlarining o'zaro xabardor va e'tirof etilganini bog'liq deb ta'riflaydi. Mazkur ta'rifdan kelib chiqadiki, sotsial kapital – bu ijtimoiy tarmoqlarni o'z ichiga oluvchi resurslardir. Burdye "Kapital shakllari" asarida ushbu xodisani tarkibini: tarmoqlar, ijtimoiy meyorlar va ishonchni ajratib ko'rsatadi. Shu tarzda, sotsial kapital ko'lami muallif tomonidan, aktor funksiyasining ijtimoiy tarmoqdagi o'lchami va kapitalning hajmi (iqtisodiy, madaniy va simvolik) hamda ushbu aktorning shaxsiy tarmog'idagi a'zolikka egalik qilishi sifatida belgilab qo'yilgan.[17]

Sotsial kapitalning mikro darajadagi nazariy konseptiyasini yaratgan olim P.Burdye o'z fikr va qarashlarida murakkab falsafiy va chuqur mantiqiy asosni ko'rsata olgan. "P.Burdye birinchilardan bo'lib sotsial kapitalning tizimli tahlilini amalga oshirgan, uning qarashlari foyda olishga qaratilgan bo'lib, insonlar turli xil tashkilotlarga a'zo bo'lganlarida uni ko'paytirib oladilar"[18] degan fikrga kelgan. Albatta, mazkur fikrga qo'shilmaslikning ilojisi yo'q. Chunki, har qanday inson eng avvalo munosabatlar tizimidagi

tarkibiy asos – aloqaga kirishadi. Ushbu aloqa tizimi resurs sifatida P.Burdye tomonidan belgilangan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Burdyening qarashlari instrumental (ishlab chiqaruvchan) bo'lib, shu asosda sotsial kapital individual tomonidan yig'ib boriladigan resurs sifatida gavdalanadi. "Aloqalar tarmog'i moddiy va simvolik foydani saqlashga ruxsat berishi uchun uzoq muddatga mo'ljallangan foydali munosabatlarni tuzishiga va qayta tiklashiga imkon berishi zarur, deb yozadi Burdye. Boshqacha qilib aytganda, garchi Burdye hulq-atvor modellarining haqiqiy holati xilma xil ekanligini e'tirof etsada, ular har doim ham iqtisodiy kalkulyatsiyalar bilan aniqlanavermaydi ammo, uning sotsial kapital konsepti foyda olish bilan chambarchas bog'liq ekanligini tushuntiradi."[19]

Mazkur taxlildan ko'rinib turibiki, sotsial kapital mezoni sifatida aloqa tarmoqlari P.Burdye tomonidan belgilab qo'yilgan. Aloqa o'rnatish orqali har qanday inson o'zida foyda olish resursini shakllantira oladi. Albatta, shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, foyda olish har doim ham iqtisodiy jihatdan tavsiflanavermaydi. Uning foyda olishga bo'lgan munosabati o'rnatilgan aloqalar asosida belgilanadi. Burdye ta'birida uni resurs deb ta'kidlash o'rinni xisoblanadi. Chunki, hatto nomoddiy resurslar ham moddiyleri singari to'planish va ishlatilish xususiyatiga ega bo'ladi. Ularni xisoblash juda murakkab xisoblanib, faqat jamiyatda belgilangan ma'naviy omillarga uni baholash qudratiga egadir.

Burdye "tarmoqlarning munosabatlari o'zaro e'tirof va tanilish" haqida ekanligini gapirgan. Ushbu tarmoqlarning asoslari "majburlashda va tanlanadigan xususiyatga ega bo'lishda hamda uzoqqa mo'ljallangan majburiyatlarni ko'zlashda, subyektiv darajada (misol uchun, minnatdorlik hissi, hurmat, do'stlik va hakazolar) yoki institutsional kafolatlanishda (huquq) seziladi". Bu fikrning diqqatga sazovorligi shundaki, Burdye birinchi o'ringa aynan emotsional voqealarni – "minnatdorlik xissi, hurmat, do'stlik"ni qo'yadi. Sotsial kapital nazariyasida mavjud iqtisodiy asos farovonlikning konseptual konstantasi sifatida emotsiyani namoyon etadi.[19]

R.Patnem tizimi doirasida kapitalni guruxiy, jamoaviy resurs sifatida individlar uchun muhim emas, ammo butun bir jamiyat yoki insonlar hamjamiyati uchun muhim deb baholaydi. Patnem tizimi sotsial kapitalni: umumiy maqsadlar yutuqlarini yengillashtiruvchi sotsial tarmoqlar (yoki bir vaqtning o'zida ularning ustidan o'tuvchi ham sotsial tarmoqlar va ham resurslar) sifatida, hamjamiyat tarkibi sifatida guruxiy darajada konseptualashtiradi. Sotsial kapital individlar uchun yordam beruvchi manba bo'lib xizmat qiladi, ijtimoiy muxit tomonidan zarur holatlarda ularga psixologik va moddiy yordam berishni ta'minlaydi hamda stresslarning negativ oqibatlarini yumshatish uchun qalqon vazifasini o'taydi.[20]

Burdye nisbatan Patnem sotsial kapitalni ijtimoiy tarmoq sifatida jamiyatga yordam beruvchi resurs deb baholaydi. Mazkur resurs jamiyat a'zolarining ma'lum bir stresslar oqibatidan ozod qilish xususiyatiga egaligini tushuntiradi. Robert Devid Patnemning "Demokratiya ishlab ketishi uchun: zamonaviy Italiyadagi fuqarolik urf-odatlari" kitobida sotsial kapital tushunchasining bir nechta boshqacha mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvining tadqiqotlariga asoslangan talqini berilgan. Unda jamoaviy harakatlar va kooperatsiya dilemmasi sifatida, mantiq tarixidan mashxur va salbiy samaraga ega bo'lgan sotsial tizimlar mohiyati ifoda etilgan samarasizlik sababi o'rganilgan (kelajakda sen menga yordam bermasliginni bilib, men senga yordam bermayman). Samarali davlat nafaqat vertikal xokimiyatga (politsiyaga), balki jamoatchilikning gorizontaal kooperatsiyasiga tayanmog'i zarur deb, hisoblaydi Patnem.[21]

R.Patnem fikridagi sotsial kapitalning siyosiy tizimga bog'liq jihatlari yaqqol namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlarimizda sotsial

kapital jamiyat va davlat boshqaruviga o'z ishtiroki bilan ta'sir etish kuchiga ega ekanligini ta'kidlab o'tganmiz. R.Patnem fikrida insonlar o'rtasidagi hamkorlik (kooperatsiya) jamoaviy harakatga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu hamkorlik strukturasi norasmiy munosabatlar ham o'z o'rnini topgan. Vertikal hokimiyat tizimidan ko'ra insonlar norasmiy jamoatchilik hamkorligiga (kooperatsiya) ya'ni, gorizontal tizimga tayanishi haqida fikr yuritadi.

Aynan R.Patnemning yondashuvi, iqtisodiyot sohasidagi o'girilgan jarayonlarni tushuntirish uchun sotsial kapital nazariyasini ro'yobga chiqardi, chunki, ratsional hulq-atvor qolipi doirasiga joylashtira olmadi va norasmiy tavsiflarga ega bo'ldi, u nafaqat shu holicha sotsial munosabatlarni uchun ta'rifladi, balki, iqtisodiyotdagi norasmiy munosabatlarda ishlatishni boshladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur kontekstda qandaydir ideal munosabatlar turi sifatida norasmiy munosabatlar mavzusi ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi, qonunchilik asosida tartibga solish ehtiyoji bo'lmasdan, guruhda qabul qilingan faqat an'anaviy asosdagi meyorlar bilan tartibga solindi.[20]

Yuqorida keltirilgan fikrga ko'ra, R.Patnemning yondashuvi asosan rasmiy va norasmiy munosabatlarni iqtisodiyot sohasidagi konvertatsiyasini tavsiflaydi. R.Patnem fikricha insonlar hayoti davomida qonunchilikka asoslangan rasmiy munosabatlardan ko'ra, aynan sotsial guruhlar tomonidan tan olingan an'anaviy norasmiy munosabatlarga ko'proq kirishar ekan. Albatta, mazkur yondashuv siyosiy tavsifga ega. Ushbu taklif etilayotgan jarayonni birdaniga qo'llab bo'lmaydi, chunki har doim ham norasmiy munosabatlar yoki an'anaviy munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy adolat tamoyilini shakllantirmaydi. Faqatgina ma'lum bir pozitsiya nuqta nazardan baho berganimizdagina mazkur munosabatlarni ijobiy jihatlarni qayd etishimiz mumkin. Agar salbiy jihatlarga baho beradigan bo'lsak, unda guruhiy bosimni, sabrsizlikni, munosabatlardagi keskinliklarni va korrupsiya kabi illatlarni qayd etishimiz zarur.

Djeym Samuel Koulman sotsial kapital tushunchasini ratsional tanlov nazariyasi asosida rivojlantiradi. U 1977 yilda amerikalik iqtisodchi Glen Kartmen Louri tomonidan sotsial kapital tushunchasini, ushbu terminning keng mazmunidan kelib chiqib, tashkilotlar va oilalarga tegishli munosabatlar, resurslar yig'indisi sifatida kiritgan. Koulman ushbu resurs tushunchasini uning funksiyasi asosida belgilaydi. Sotsial kapital elementlariga ikkita xususiyat tegishli: 1) mahsuldorlik, madomiki u imkoniyati yo'q yoki erishishi qiyin bo'lgan vaziyatlarda, ishtirokchilar munosabatlarining o'z maqsadlarini amalga oshirishlarida yordam beradi; 2) u qanday munosabatlarga asoslanishi bilan, o'sha harakatlarini qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga ega. Bu Koulman nazariyasidan kelib chiqadi, unga ko'ra manfaatdor shaxs almashinuvga (tranzaksiyaga) kirishadi, chunki yolg'iz resurslarni boshqarishi va xodisalarni nazorat qilishi qiyin. Buning natijasida hamkorlikning turli xil shakllari paydo bo'ladi, masalan, ishonchli munosabatlar. Asos soladigan harakatlarning biror maqsadga qaratilganligini aniqlash uchun Koulman iqtisodiyot ilmidan ratsionallik tushunchasini jalb etadi: ratsional hulq-atvor individual foydalilik tamoyiliga asoslanadi. Inson kapitaliga nisbatan sotsial kapital individumlar faolligi xisobidan o'sadi va rivojlanadi.[21]

D.Koulman aynan iqtisodiyot ilmidagi "Ratsional tanlov nazariyasi"ga tayanadi. Unga ko'ra, tanlov maqsadli yoki ratsional ko'rinishga ega bo'ladi. Insonlar atayin harakatlarni maqsadli amalga oshiradi, chunki ular foydaliligiga qarab harakatni tanlashadi. Mazkur harakat maqsadli shaklda bo'lganligi uchun kutilayotgan natija iqtisodiy tamoyillarga asoslanadi. YA'ni, insonlar foydani maksimalashtirilgan shaklda olishga intilishadi. Ratsional shakldagi harakat ko'proq ijtimoiy asosga ega bo'lib, olingan natija ishonchlilik tavsifiga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Shu asosda D.Koulman sotsial kapitalni darajalarga bo'lib

o'rganishni taklif etadi. Uning fikricha sotsial kapital ishonch darajasi, informatsion daraja va meyoriy darajalarga bo'linadi.

Ishonch darajasi deganda u ishonch qandaydir oldindan berilgan avans sifatida javobga nisbatan, qarama-qarshi xizmatni amalga oshishini kutilayotganidek paydo bo'ladi deb tushuntiradi. Ratsional majburiyatlarni, ayniqsa agar ularning javob tariqasidagi beriladigan mukofotning qadri bilan solishtirgandagi tannarxi katta bo'lmagan holda o'z zimmasiga olishi mumkin. Xizmat ko'rsatish, agar unga ehtiyoj bo'lsa yordam ko'rinishida qoplanadi. Koulman mazkur sug'urta polisiga ega majburiyatni jamg'arilishini solishtiradi. Qancha ijroga ega jamg'arilgan majburiyatlar («kreditlar») ko'p bo'lsa, shunchalik sotsial kapital ko'payadi. Jamg'arilgan «kreditlar» resurslar va voqealar ustidan nazoratni kengaytiradi va o'z o'rnini xukumat strukturasi topshiradi. Koulman ta'kidlaydiki, sotsial kapital nafaqat alohida insonlarga, balki guruxning barcha a'zolariga ham foyda keltiradi, chunki kiritilgan resurslar bilan birga umumiy foyda ham oshadi.

Informatsion darajada ijtimoiy munosabatlar informatsion potensialga ega. Yurist yoki vrach bilan tanish bo'lish yaxshi, chunki ular doim norasmiy ba'mani maslaxat berishlari mumkin. Hattoki agar ma'lumot sotsial kapitalga murojaat qilish natijasida paydo bo'lgan bo'lsada, Koulman uni kapital deb xisobga oladi.

Meyoriy darajada Koulman "amaldagi meyorlar"ning muximligini belgilab o'tadi, ayniqsa "jamoa manfaatlar uchun o'z manfaatlaridan voz kechish" kerakligini talab etadi. Bu yerda u umumiy manfaat mavzusini gapirib o'tgan. Sotsial kapital va u bilan bog'liq meyorlar jamiyat darajasidagi ongli beg'arazlikka va birdamlikka olib boradi. Ammo o'z foydasiga ratsional intilayotgan inson o'z manfaatlaridan voz kechishiga nima sabab bo'ladi degan savol paydo bo'ladi? Koulman fikricha, meyorlarning mavjudligi: jamiyat foydasi uchun inson o'z manfaatlarini ko'zlashdan tiyishi, baribir xususiy foydani xisoblab chiqishda inobatga olinadi. Ushbu meyorlarning umumiy ahamiyati ish beradi, chunki unga barcha amal qilishiga ishonadi.[21]

Ushbu darajaga bo'lingan komponentlar sotsial kapitalning strukturasi tashkil etishi Dj.Koulman tomonidan berilgan fikrlaridan ko'rinishi turibdi. U ishonchni faqat iqtisodiy ta'rifini, ma'lumot almashish va aloqa o'rnatishni foyda olish, ya'ni kapital manbai ekanligini hamda meyorlarga bo'ysunish faqat xususiy foydani ko'zlashni nazarda tutishini ko'rsata olgan.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Hozirgi kunga kelib mazkur sotsial kapitalning ko'pgina ta'riflari mavjud. Ulardan ba'zilarini sanab o'tamiz:

- insonlarning bir-biriga bo'lgan ishonchi asosidagi insoniy munosabatlarning qo'shimcha resurslari mobillashuviga imkon beruvchi "kley" (yelim) (M.Peldem);

- agentlar maxsus sotsial strukturadan oladigan va o'z manfaatlaridan kelib chiqib foydalanadigan resurslar (U.Beyker);

- aktual va salohiyatli resurslar majmuasi sifatida, eng mustahkam aloqalar bilan, birmuncha institutlashirilgan munosabatlarning o'zaro xabardor va e'tirof etilgani (P.Burdey);

- xizmatdagi kasbdoshlar orasidagi do'stona aloqalar va undanam kengroq aloqalar tufayli o'zining moliyaviy va insoniy kapitalidan foydalanishi mumkin (R.Bart);

- individlarning cheklangan resurslarni o'z a'zolari asosidagi ma'lum bir ijtimoiy tarmoqda yoki ancha keng ijtimoiy strukturada boshqarish qobiliyati (A.Portes);

Yuqorida keltirilgan ta'riflar kabi biz ham sotsial kapital haqidagi o'z konsepsiyamizni kiritishga harakat qildik.

**Sotsial kapital** – bu jamiyat tarixida insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan ijtimoiy boyluk, sotsial strukturadan olinadigan noiqisodiy foyda, insoniy munosabatlar mohiyati, sahovatli manfaat fazilatlarini, to'plangan yaxshi xislatlar, ezu

va ratsional resurslar majmuyidir. Albatta, mazkur belgilar ijtimoiy aloqalar o'rnatish, jamiyatda belgilangan ijtimoiy-madaniy meyorlarni o'zlashtirish va eng asosiysi jamiyatda ishonch ko'rsatkichini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Demak, o'rnatilgan ijtimoiy aloqalar, belgilangan ijtimoiy-madaniy meyorlar va qozonilgan ishonch sotsial kapitalning o'lchash mezonlaridan eng asosiylari bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Hanifan L.J. The rural school community center // annals of the American Academy of Political and Social Science. Vol. 67. – P. 130-138;
2. Jacobs J. The Death and Life of Great American Cities. – N.Y., 1961;
3. Becker G.S. Human Capital. – N.Y., 1964;
4. Loury G. The economic of discrimination: Getting to the core of the problem // Harvard Journal for American public Policy, 1992. Vol. 1;
5. Bourdieu P. The forms of capital // Handbook of theory and research for the sociology of education. – N.Y., 1985;
6. Coleman J. (1988) Social capital in the creation of human capital // American Journal of Sociology. Vol. 94. – P. 95-120;
7. Portes A. Social capital: its origins and applications in modern sociology // Annual Review of sociology, 1998. Vol. 24. – P. 1-24;
8. Putnam R. Bowling Alone: The collapse and revival of American community. – N.Y., 2000;
9. Штомпка П. Доверие – основа общества / Петр Штомпка: пер. с пол. Н.В.Морозовой. – М.: Логос, 2012. – 440 с.;
10. Granovetter M. The Strength of Weak Ties // American Journal of Sociology, 1973. V. 78. – № 6. – P. 1360-1380;
11. Knack S., Keefer P. (1997) Does social capital have an economic payoff? A cross-country investigation // Quarterly Journal of Economics. Vol. 112. – № 4. – P. 1251-1288;
12. Monika Mularska-Kucharek, Kamil Brzezinski. Horizontal and Vertical Dimensions of Social Trust – The Case of Lodz and the Districts of Lodz Voivodeship // European Spatial Research and Policy, 2012. Volume 19. – Number 1. 10.2478/v10105-012-0011-x. – Page 144;
13. Narayan D. and Pritchett, 1997. Cents and Sociability House hold Income and Social Capital in Rural Tanzania // Amer. Sociol. Review, 1997. – № 9;
14. Fukuyama F. Social Capital and Civil Society. The Institute of Public Policy, George Mason Univ. 1999. <http://www.imf.org/external/pubs/ft/seminar/1999/reforms/fukuyama/html>;
15. Burt R. (1997) "The Contingent Value of Social Capital". Administrative Science Quarterly 42: 339-650.
16. Натхов Т.В. Социальный капитал и образование. Вопросы образования. Раздел: Теоретические и прикладные исследования. Журнал. М.: 2012. Стр 63.
17. Демкив О. Социальный капитал: теоретические основания исследования и операциональные параметры. Социология: теория, методы, маркетинг. – 2004. - №4. – С. 100.
18. Алиева Э.И. Сущность социального капитала и его значение в развитии экономики. Економічна наука. Інвестиції: практика та досвід. -2013.- №14. Стр 77.
19. Давыдов Д.А. Теория социального капитала и её нормативные противоречия. Журнал «Полития». Раздел «Политические теории». № 3 (74) 2014. Стр-46
20. Зазулина М.Р. Социальный капитал: дилеммы теоретической концептуализации. // Вести. Новосибир. ун-та. Серия: Философия. 2015. Т. 13, вып. 2. Стр-63
21. Блок. М, Головин Н.А. Социальный капитал: к обобщению понятия. Вестник. Санкт-Петербургский университет. 2015. Серия 12. Выпуск 4. Стр-102.

**Bekdavat ALIYEV,**  
TDIU “Ijtimoiy gumanitar fanlar”  
kafedrası professor, falsafa fanlari doktori

## O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Korrupsiya va unga qarshi kurashish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada ko‘pchilik mamlakatlar tizimli ravishda faoliyat yuritib, davlatdagi ijtimoiy-siyosiy holatni inobatga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qancha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

**Kalit so‘zlar:** davlat, siyosat, korrupsiya, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, normativ-huquqiy hujjat.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so‘nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

Ta‘kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalari, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta‘kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

2003 yil 31 oktabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;

2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;

1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyasi;

1999 yil 4 noyabrda “Korrupsiya uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyalari va boshqalar.

O‘zbekiston yuqorida ta‘kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, mazkur farmon asosida korrupsiyaning oldini

olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralari samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Farmon bilan, agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta‘minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalari bajarilishi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Shuningdek, mazkur farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

2020-2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”)ni bosqichma-bosqich joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta‘minotni joriy etish.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta‘minlovchi muhim vositalardan biri o‘z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, qonun

buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020 yil 4 fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan bugungi kunda:

– Ombudsmanning “10-96” ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;

– fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo'yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to'g'risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

– Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo'l-yo'riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, ta'qiqlar, cheklolvar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi.

– Vakilga korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan murojaatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020 yilning 6 oy davomida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Ombudsman tomonidan Bosh prokuraturaga 17 ta murojaat yuborilgan (2019 yil – 21 ta). Ushbu murojaatlardan 2 tasi o'z tasdig'ini topgan.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” da O'zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o'rin, 2018 yilda esa 158-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi.

Bundan tashqari Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatorida O'zbekiston 2019 yilda 0,38 ball bilan 95-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020 yil bo'yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o'rinni egallab, 6 pog'onaga ko'tarilganligimamlakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2019 yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning pora olishi bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, 2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiya bilan bog'liq 590 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi, korrupsiyaga qo'l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxonalar va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta'lim, davlat xizmati ko'rsatish, xususan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog'liq sohalardahali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda, xususan Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmati to'g'risida” gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat meyorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

E'tiborli jihati shundaki, mazkur normalalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo'lgan sovg'a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo'yilgan. Masalan, AQSHda ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan. Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko'rinishidagi sovg'alar qabul qilishi qat'iyon ta'qiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar kabi to'lovlarni olishi ta'qiqlangan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg'alar olishi ta'qiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg'alar, vazirlikka o'tkaziladigan tartib joriy qilindi.

Bundan tashqari bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo'llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi xarajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda 150 dan ortiq mamlakatda qo'llanilmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo'lga qo'yilgan. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e'lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e'tirof etilgan.

Bu borada Daniya tajribasiga ko'ra, 2002 yilda qabul qilingan “Korrupsiya to'g'risida”gi Daniya Qonuni korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta'sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o'z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo'lishni ta'qiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korrupsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari Finlyandiya Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovg'alarni berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlyandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korrupsiyani oldini olish maqsadida yilda ikki marotaba markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar va saylov kompaniyasini moliyalashtirishni nazorat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdagi jinoyatlarni oldini olish borasida



mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatmoqda:

birinchidan, “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama qilinayotgan bo‘lsa-da, hali hamon mazkur qonun qabul qilinganicha yo‘q. Shu sababdan “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini, shuningdek davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilish, mazkur normalarda davlat xizmatchilarining o‘z faoliyatini olib borish jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan hamda korrupsiyani vujudga kelishiga imkon yaratib beruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldini

olishga qaratilgan meyorlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir;

ikkinchidan, xalqaro va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rgangan holda davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi xarajatlarini deklaratsiya qilishni tartibga soluvchi normalarni milliy qonunchilik tizimiga implemenetatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida mansabdor shaxslarning mol-mulkiidagi o‘zgarishlarni muntazam ravishda kuzatish imkonini beradi, deklaratsiyalarning ommaviyligi, ya‘ni jamoatchilik uchun ochiqligi esa ularning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yanada oshirishi shubhasizdir.

#### ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 21 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://www.press.uz/>. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati rasmiy veb-sayti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 06/20/6013/1002-son.
3. <https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan>
4. <https://worldjusticeproject.org/sites/default/files/documents/Uzbekistan>
5. Bosh prokuratura korrupsiya yetkazgan zarar miqdorini ma‘lum qildi. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/07/31/corruption/>
6. B.Ismoilov., F.Yo‘ldashov. Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston mavqeini yuksaltirishning muhim jihatlari. <https://uza.uz/oz/posts/>.
7. B.Ismoilov., U.Abdurahmonov. Ta‘sirchan jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashishda qay darajada muhim? <https://uza.uz/oz/posts/>.
8. <http://www.ombudsman.uz/uz/docs/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-takomillashtirtish-masalalari>.

**Rustamjon ALLABERDIYEV,**  
*O'zbekiston milliy universiteti dotsenti*  
**Matluba ELMURODOVA,**  
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti*

### TUPROQDAGI OG'IR METALLAR, PESTITSID QOLDIQLARI MIQDORIGA ORGANIK VA BIOLOGIK OG'ITLARNI UYG'UNLASHGAN HOLDA QO'LLASHNING TA'SIRI

Annotatsiya

Biologik preparatlar organik o'g'itlar (siderat va go'ng) fonida qo'llaganda tuproqdagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdorini N250R175K125 – fon (nazorat) agrotsenoziq nisbatan kamayishini ta'minlaydi. Organik o'g'itlar tuproq ekologik holatini yaxshilaydi va gumus miqdorini oshiradi, natijada tuproqqa tushgan og'ir metallar organik moddalarga adsorbsiyalanadi, shu bilan birgalikda GXSG va DDT kabi pestitsidlar qoldiqlari kamayadi, tuproqning ekologik barqarorligi saqlanishi ta'minlanadi.

**Kalit so'zlar:** Agrotsenoziq, gumus, GXSG, DDT, REM, adsorbsiya, Rizokom-1, organik o'g'itlar, biopreparat, og'ir metallar, gidrooksidlar, karbonatlar, fosfatlar, ekologik barqarorlik.

Tajribada mineral va organik o'g'itlar hamda biologik preparatlar qo'llanilishining tuproq tarkibidagi harakatchan og'ir metallar miqdoriga ta'siri o'rganib borildi. Tuproqdagi og'ir metallar harakatchanligi tuproq muhiti, mexanik tarkibi, tuproq tarkibidagi gumus miqdori kabi ekologik omillarga bog'liq [3,1]. Tuproq muhitining ishqoriy tomonga o'zgarishi tuproqdagi og'ir metallar harakatchanligini kamaytiradi. Og'ir metallarning zarari mexanik tarkibi yengil, kam gumusli tuproqlarda ko'proq kuzatiladi [2]. Tuproqning organik moddalar bilan boyishi va singdirish sig'imining ortishi natijasida og'ir metallar organik moddalarga adsorblanadi (singdiriladi) va tuproqdagi turli ionlar bilan suvda erimaydigan tuzlar hosil qiladi.

S.YE.Vitkovskaya [4] ma'lumotiga ko'ra, organik o'g'itlar tarkibidagi og'ir metallar tuproqda 5 yildan ko'proq davr mobaynida organik moddalar tarkibida saqlanishi mumkin va ular bu davr davomida o'simliklar tomonidan o'zlashtirilmaydi. Organik moddalarning minerallanishi natijasida og'ir metallar tuproq muhiti ishqoriy bo'lganda tuproqdagi anionlar (gidrooksidlar, karbonatlar, fosfatlar) bilan birikib suvda qiyin eriydigan tuzlar hosil qiladi.

Tajriba o'tkazilgan maydon tuprog'ida tadqiqot boshlanishida harakatchan shakldagi Pb, Cd, Cu, Zn, Co ning miqdori mos ravishda 1,2; 0,5; 0,9; 2,6; 1,5 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, 3 yil davomida organik o'g'itlar va biologik preparatlarni qo'llash natijasida tuproq tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdorining kuchli o'zgarishi kuzatilmadi. Fon+siderat – 10 t/ga, Fon+go'ng - 10 t/ga qo'llanilgan agrotsenozlarda N250R175K125 – fon (nazorat) agrotsenoziq nisbatan Pb va Co miqdorining pasayishi, Cu va Zn miqdorining biroz yuqori bo'lishi kuzatildi. Cd miqdorning esa o'zgarishi kuzatilmadi. Bunga sabab, go'ng va siderat tarkibida Pb va So kam miqdorda, Cu va Zn biroz yuqori miqdorda bo'lishidir. Lekin, ushbu miqdorlar REM (PDK) chegarasida bo'ldi (3.5-rasm).

Organik o'g'itlar va biologik preparatlar qo'llanilgan agrotsenoziqda o'rganilgan barcha og'ir metallar miqdori pasayishi kuzatildi. Organik o'g'itlar va biologik preparatlar kam meyorda qo'llanilganligi bois, ular tarkibida og'ir metallar kam miqdorda saqlanadi (1-jadval).


1-jadval

**Organik o'g'itlar va Rizokom-1 preparatining tuproq tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdoriga ta'siri (2019-2021 yy.), mg/kg**

№	Agrotsenoziq	Pb	Cd	Cu	Zn	Co
1	N250R175K125 – fon (nazorat)	1,3	0,5	1,5	5,4	1,6
2	Fon+Rizokom-1	1,1	0,5	1,3	4,8	1,4
3	Fon+siderat – 10 t/ga	1,2	0,4	1,0	3,0	1,3
4	Fon+siderat+Rizokom-1	1,3	0,3	0,8	2,7	1,0
5	Fon+go'ng - 10 t/ga	1,2	0,5	0,9	2,3	1,5
6	Fon+go'ng+Rizokom-1	1,2	0,3	0,7	2,4	1,0
	REEYUM (PDK)	10,0	1,0	3,0	23,0	5,0

Tuproqdagi mikroelementlar (og'ir metallar) ma'lum miqdorda o'simliklar tomonidan ham o'zlashtiriladi. Fon+Rizokom-1 biologik preparati qo'llanilgan agrotsenoziqda og'ir metallarning harakatchan miqdori boshqa agrotsenoziqlardagiga nisbatan kam bo'ldi.

Biologik preparatlar organik o'g'itlar (siderat va go'ng) fonida qo'llaganda ham harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdorining N250R175K125 – fon (nazorat) agrotsenoziq nisbatan kamayishi kuzatildi. Umuman olganda, organik o'g'itlar tuproq xossalari yaxshilaydi va gumus miqdorini oshiradi.



1-rasm. Organik o'g'itlar va Rizokom-1 preparatining tuproq tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdoriga ta'siri (2019-2021 yy.), mg/kg

Tuproqning turli xil ionlar bilan boyishi natijasida tuproqqa tushgan og'ir metallar organik moddalarga adsorbsiya qilinadi yoki anionlar bilan birikib suvda erimaydigan tuzlar hosil qiladi.

Shunday qilib, organik o'g'itlar (siderat va go'ng) Rizokom-1 biologik preparati bilan birgalikda qo'llanilgan agrotsenozlarda tuproq tarkibidagi harakatchan og'ir metallar miqdori oshishi kuzatilmaydi, aksincha tuproqning turli xil ionlar bilan boyishi natijasida tuproqdagi og'ir metallar organik moddalarga adsorbsiyalanadi, shuningdek, anionlar bilan birikib, suvda erimaydigan turli tuzlar hosil qiladi.

Pestitsidlar (lot. pestis – maraz, caedo – o'ldiraman), zaharli kimyoviy moddalar - o'simlik zararkunandalari va kasalliklari, begona o'tlar, shuningdek, yog'och, paxta tolasi mahsulotlari, jun, teri zararkunandalari, uy hayvonlarining xavfli kasalliklari qo'zg'atuvchilariga qarshi kurashishda foydalaniladigan kimyoviy moddalar. Shuningdek, auksinlar, gibberellinlar, defoliantlar, desikantlar, retradantlar ham pestitsidga kiritiladi. Pestitsid tirik organizmlar hujayralariga kirib ularning fizik va kimyoviy xususiyatlarini o'zgartiradi. Hujayraning oqsil va boshqa moddalari bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, ularni cho'kmaga tushiradi, fermentlar faolligini zaiflashtiradi, modda almashinuvi jarayonini buzadi va hujayrani halokatga olib keladi.

Eng muhim pestitsid xlororganik va fosfororganik birikmalar, karbamin kislota hosilalari, o'simliklardan olinadigan (piretroidlar), triazinlar kiradi. Anorganik pestitsididan mis, oltingugurt va boshqa elementlarning birikmalarini ko'rsatish mumkin. Xlororganik pestitsid universalligi bilan afzaldir. Ular juda ko'p tur zararkunandalarni yo'q qiladi, ta'sir kuchi uzoq muddat saqlanadi va issiqqonli hayvonlar uchun xavfi kam. Xlororganik pestitsidning kamchiligi ularning tashqi muhit, tuproq, o'simlik va suvda kimyoviy jihatdan barqarorligi, ya'ni uzoq vaqtgacha parchalanmay saqlanib turishidir. Bu esa preparat qoldiklarining o'simlik mahsulotlari va hayvon organizmi tarkibida yig'ilib qolishga olib kelishi mumkin. DDT kabi juda barqaror preparatlardan foydalanish man qilingan. Fosfor organik pestitsid yuqori biologik aktivlikka ega. Bu birikmalar o'simlik ichiga singib kirish va zahar kuchini ancha vaqt saqlab turish xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi.

Tajribada olingan ma'lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, tajriba qo'yishdan oldin GXSG qoldiqlari barcha o'rganilgan agrotsenozlarda 0,02-0,05 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, DDT qoldig'i 0,05-0,06 mg/kg atrofida bo'lganligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

**Organik o'g'itlar va Rizokom-1 preparatining tuproq tarkibidagi pestitsidlar qoldiqlariga ta'siri, 0-30 sm (2019-2021 yy.), mg/kg**

№	Agrotsenozlar	Tajriba qo'yishdan oldin		3- yil mavsum oxirida	
		GXSG	DDT	GXSG	DDT
1	N250R175K125 – fon (nazorat)	0,03	0,06	0,02	0,04
2	Fon+Rizokom-1	0,05	0,05	0,04	0,03
3	Fon+siderat – 10 t/ga	0,05	0,06	-	-
4	Fon+siderat+Rizokom-1	0,04	0,05	-	-
5	Fon+go'ng - 10 t/ga	0,02	0,05	-	-
6	Fon+go'ng+Rizokom-1	0,03	0,06	-	-
	REM (PDK)	0,1	0,5	0,1	0,5

Tajribaning uchinchi yili mavsum oxirida o'tkazilgan tahlillarda, N250R175K125 – fon (nazorat) va Fon+Rizokom-1 agrotsenozlarida GXSG va DDT qoldiqlari mavjudligi va o'z navbatida qisman kamayganligi aniqlangan bo'lsa, organik o'g'itlar (siderat va go'ng) bilan birgalikda biologik preparat qo'llanilgan agrotsenozlarda mazkur pestitsidlar qoldiqlar uchramaganligi qayd etildi (2 -jadval). Ushbu holat pestitsid qoldiqlarining organik massaga birikishi bilan izoqlanadi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida tuproq unumdorligini oshirishda turli siderat ekinlaridan foydalanish,

go'ng qo'llash, shu bilan birgalikda biologik preparatlarni qo'llash natijasida tuproqlar tarkibida og'ir metallar va shu bilan birgalikda GXSG va DDT kabi pestitsidlar qoldiqlari kamayishiga, tuproqning ekologik barqarorligi saqlanishiga erishish ta'minlanadi. Shu jihaktdan pestitsidning odam, hayvon, o'simlik, suv va umuman atrof-muhitga salbiy ta'sirining oldini olish uchun ularni qo'llashda faqatgina zararkunandaga emas, balki biotsenozga ham ta'sirini, ya'ni oqibatini oldindan hisobga olish kerak. Pestitsid zararkunandalarni yo'q qilib yuborish vositasidan, ular sonini tartibga solib turadigan vositalarga aylanishi lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Bowen H.J.M. Environmental chemistry of the elements. – N.Y. – L. : Acad. Pr., 1979. -P. 238-239.
2. Chester R., Kudoja W.M., Thomas A., Towner J. Pollution reconnaissance in stream sediments using non-residual trace metals // Environmental pollution (series B). 1985. -№ 10. –P. 213-238.
3. Виноградов А.П. Геохимия редких и рассеянных химических элементов в почвах – М : Изд-во АН СССР, 1957. – 238 б.
4. Витковская С.Е. Агроэкологические основы использования биотермически переработанных твердых бытовых отходов для повышения плодородия кислых почв: Автореф. дис... докт. биол. наук. СПб: ГНУАФИРАСХНЛ, 2006. -47 с.

**Kamola ALLANAZAROVA,**  
O'zMU Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) 2-bosqich magistranti  
E-mail: allanazarovakamola021@gmail.com

O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi direktor o'rinbosari f.f.n, dotsent O.Jo'raboyev taqrizi asosida

## MUHAMMAD AVFIY ADABIY MEROSI, TAZKIRANAVISLIK RIVOJIDA “LUBOBU-L-ALBOB” TAZKIRASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIII asr adabiy muhitiga ulkan hissa qo'shgan Muhammad Avfiy hayoti va ijodi hamda “Lubobu-l-albob” tazkirasining fors va turkiy tazkiralarga ta'siri haqida ma'lumot berilgan. Muhammad Avfiyning “Lubobu-l-albob” tazkirasining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Avfi, Alisher Navoiy, hikoyat, tazkira, “Lubobu-l-albob”, fors adabiyoti, adabiy muhit.

**Kirish.** Avfiy Buxoriy shoir, tazkiranavis va tarjimon bo'lgan. Muhammad Avfiy haqida so'z yuritilgan manbalarda olimning ismi Sa'diddin (yoki Nuriddin) Muhammad binni Muhammad binni Yahyo binni Tohir binni Usmonal-Avfiy al-Hanafiy ekanligi zikr qilinadi. Avfiy va uning asarlari haqidagi ilmiy tadqiqotlari bilan mashhur bo'lgan hind olimi Muhammad Nizomuddin ta'kidlashicha, ayrim asarlarda Avfiyning Nuruddin taxallusini olganligi haqidagi yanglish ma'lumotlar mavjud. Muallifning asarlari “Lubobu-l-albob” hamda “Javome'u-l-hikoyat va lavome'u-l-rivoyat” asarlarida Nuruddin emas, Sadiduddin taxallusini qo'llaganligiga guvoh bo'lamiz [7]. Vaholanki, Avfiy o'ziga Sadiduddin taxallusini olganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgani holda, bu taxallusning qay yo'sinda Nuruddinga aylangani ma'lum emas. Ammo Avfiy vafotidan yuz yil o'tib qanday paydo bo'lganligi noma'lum Nuruddin taxallusi Muhammad Qazviniy va boshqa olimlar tomonidan ko'p qo'llanilgan. Olimning Avfiy nomini olishiga sabab Abdurahmon binni Avf ismli sahoba nasliga mansubligi sabablidir. Avfiy “Javome'u-l-hikoyat” asarida muallif o'zining nasl-nasabiga oid quyidagi tafsilot diqqatlidir:

“Hazrati Umar vafot etgach, sahobalar xalifani saylash uchun yig'ilishdi va ular orasida bu kitobni yozgan muallifning ajdodi Abdurahmon binni Avf ham bor edi”. Muallif keltirgan izohlardan ma'lum bo'lishicha, sahobalar oilasidan bo'lgan Avfiyahli olim bo'lgan oilada dunyoga kelgan. Chunki uning Marv qozisi bo'lgan bobosi Imom Sharafuddin Abu Tohir Yahyo b. Tohir b. Usmon al-Avfiy Mavaraunnahrning mashhur muhaddislaridan bo'lib, ayniqsa, hadis va arab ilmida mohir edi. Otasi Muhammad b. Yahyo ham bobosi singari Marvda qozilik qilgan. Sayyidul-hukamo va malikul-at-tibo unvonini olgan tog'asi Qoraxoniylarning mashhur davlat arbobi Tamg'achxon Ibrohim ibn Husaynning xos tabibi edi. Avfiyning bolaligi va boshlang'ich ta'limi haqida, o'z asarlari “Lubobu-l-albob” va “Javome'u-l-hikoyat” asarlaridagi ma'lumotlardan boshqa juda oz narsa ma'lum. Boshlang'ich ma'lumotni bobosi va otasidan olgan Avfiy bolaligida Buxoroning ko'zga ko'ringan allomalaridan Ruknuddin Mas'ud Imomzodadan saboq olgan [5]. Buxorodagi “Dori Farxoq” madrasasida ta'lim oladi. Samarqanddan keyin Avfiy Xorazm, Marv, Nishopur, Hirot va G'azna shaharlariga sayohat qildi. Xorazmda Najmiddin Kubro va uning shogirdi Majiddin Bag'dodiy Fariduddin Attorning ustozini bilan suhbat quradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Avfiy 1223-yilda arab adibi Abu Ali Muhassin Tanuhiyning “Al-Faraj bada-sh-shabboda” (“Qiyinchiliklardan keying shodlik”) asarini fors tiliga tarjima qiladi va uni “Javome'u-l-hikoyat va lavome'u-l-rivoyat” deb nomlaydi. Avfiy ushbu asarni sulton

Eltutmishning vaziri Nizomulmuluk Junaydiyga taqdim etadi. Asarda avliyo va anbiyolar hayoti, ularning karomat va mo'jizalari, xalifalar, ajam shohlarining adolatli va adolatsiz ishlari haqida hikoya qilinadi. “Jome' ul-hikoyat va lavomi ul-rivoyat” asarida asosan mingdan ortiq turli tarixiy shaxslar, shuningdek o'zi eshitgan, ko'rgan insonlar bilan bog'liq hikoyatlar yozilgan. XV asr muallifi Shukrulloh “Baxsu-t-tavfiq”da O'rta Osiyodagi bir qancha turkiy qabilalarning muhojaratlari Osiyodagi bir qancha turkiy qabilalarning muhojaratlari (ko'chishlari) tarixini yozishda Muhammad Avfiy asaridan foydalanadi. Olmon tarixchisi Markvartning Kushonlar haqidagi asari, Pelliot, Bartold va boshqa ba'zi olimlarning asarlarida Avfiydan asarlaridan olingan muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin. “Javome'u-l-hikoyat” oddiy hikoyalar majmuasi bo'lmay, juda e'tiboli voqealar hamda muhim ma'lumotlar manbai hamdir. Chunki Avfiy yoshligidan chuqur bilimlarni egallagan va umri davomida Movarounnahr, Xurson, Xorazm, Seyiston, G'aznin va Sind shaharlarida sayohatlari vaqtida ko'rgan-kechirganlari, davrining buyuk shoirlari, olimlari, so'fiylari va davlat arboblari, hukmdorlari bilan tanishgan va ulardan olgan bilim va ma'lumotlari o'z asarlarini yozishda muhim manba vazifasini o'tagan. Avfiyning Samarqand qoraxoniylari tarixiga oid, shuningdek, turkiy qabilalarning ko'chishlariga oid bergan ma'lumotlaridan akademik V.B.Bartold (1869–1930) o'zining Turkiston tarixiga oid “Turkiston mo'g'ul istilochilari davrida” asarida unumli foydalangan. Tadqiqot-chilarning fikriga qaraganda Muhammad Avfiy mazkur asarni yaratishda o'zigacha yashagan arabiy-navis va forsiyog'oy olimlarning 90 dan ziyod tarixiy, ilmiy, badiiy asarlaridan foydalanadi. “Osor-ul-boqiyah”, “Dasturu-l-vuzaro”, “Tarixi Tabariy”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Tarixi Yaminiy”, “Tarixi Turkiston” kabi asarlar shular jumlasidandir. Avfiy asarlari hindistonlik mashhur sharqshunos professor Muhammad Nizomuddin, rus olimlaridan Yu.Krchakovskiy, V.Bartoldlar e'tiborini tortgan. Bundan anglashiladiki Avfiy nafaqat adabiyotshunos olim balki tarixnavis hamdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Muhammad Avfiy ijodi o'zbek va jahon adabiyotshunosligida, asosan, tarixiy-qiyosiy metod asosida o'rganilgani uchun ushbu maqolada mana shu metodning tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, Avfiyning tazkisasi – “Lubobu-l-albob” tarkibiga kirgan ijodkorlarni tahlil qilishda analitik va struktural metodlardan foydalanildi. Avfiy tazkirasining boshqa tazkiralardan farqli jihatlari, tarkibi va tuzilishiga munasabat bildirilganda qiyosiy adabiyotshunoslik talablaridan kelib chiqqan holda ish ko'rildi.

**Tahlil va natijalar.** Jahon adabiyotshunosligida tazkira asarlarning manba sifatidagi o'rni beqiyos. Tazkiralari

jahon adabiyotining uzoq tarixini o'rganish, uning shakllanishi va taraqqiyoti omillarini chuqur hamda atroflicha tasavvur qilish imkonini berishi bilan birga o'tmishda yuz bergan muhim tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda adabiy jarayonlarni yoritishi bilan ham qimmatlidir.

Fors-tojik adabiyotida bizgacha yetib kelgan, chinakam mukammal fors tilidagi to'ng'ich tazkira asar Muhammad Avfiyning "Lubobu-l-albob" ("Ilmlar mag'zi") tazkirasidir. "Lubobu-l-albob" tazkirasida 1222-23-yilda Buxoro va Xorazmda boshlanib, Hindistonda yakunlangan. Tazkira sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan janr hisoblanib, "Lubobu-l-albob" tazkirasida shoirlarning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar berish bilan birga, she'riyat va uning nazariy masalalari bilan bog'liq fikr-mulohazalar, safforiylar, somoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar sulolalari davrining adabiy muhiti haqidagi ma'lumotlar ham o'rin olgan. Movarunnahr, Xuroson, Hindiston va Iroqda yashab ijod etgan 300 ijodkor xususida ma'lumot berilgan Lubobu-l-albob" tazkirasida juda katta davr qariyb 400 yillik mumtoz adabiyot tarixi aks etganligi bois ham chuqur tadqiq etishni taqazo etadi.

Avfiy tazkirasining tuzilishi va mazmunida Sharq tazkirachilik an'analarini asos bo'lgan. Ularda adiblar hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar talqini ustuvorlik qiladi. "Lubobu-l-albobning dunyo qo'lyozma fondlarida hozircha bizga ma'lum 3 ta qo'lyozma nusxasi mavjud. Bular Berlin, London hamda Manchester nusxalaridir [4].

O'n ikki jild, o'n ikki bobdan iborat bo'lgan mazkur tazkirada olim she'riyat nazariyasiga oid fikr mulohazalarini bayon etadi. Arab hamda forsiy tilda she'r yozgan shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi.

Qizig'i shundaki, "Lubobu-l-albob" "Javome'u-l-hikoyat" dan oldinroq yozilganiga qaramay, uch asr davomida bu kitob haqida hech kim o'z asarida qayd etmagan. Avfiydan keyingi tazkiranavislardan, Davlatshoh Samarqandiy "Tazkiratu-sh-shuaro", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" va Navoiyning "Majolisu-n-nafois" tazkiralari ham Muhammad Avfiy va uning asari haqida hech qanday ma'lumot keltirmagan. Faqatgina Ahmad Amin Roziyning 1594-yilda yozilgan "Haft iqlim" asaridagina ma'lumot beriladi. 1592-yilda yozilgan Sayyid Ali binni Muhammad Husayniy "Bazmi oroyi" nomli tazkirasida "Lubobu-l-albob"ning ayni o'zidir. Sayyid binni Muhammad "Lubobu-l-albob"ning muqaddima qismini hech qanday o'zgartirishsiz ko'chiradi, Avfiy ismini va "Lubobu-l-albob" nomini aslo tilga olmaydi. Hatto asarning birinchi jildi 74-75-raqamlari ostida ma'lumot berilgan Avfiyning bobosi va tog'asi haqidagi ma'lumotlarni o'z asariga kiritmaydi.

"Lubobu-l-albob" tom ma'nosi bilan tazkira, ya'ni adabiy-tarixiy turdagi asar bo'lish bilan bir qatorda, hech shubhasiz yuksak badiiy mohiyatga ham egadir. Bu asardagi xotiraviy parchalarning puxtaligi, tilning sun'iy va yasama sajlardan xoli, sodda va ravon bo'lishligi, odamlarga berilgan sifat va tavsifnomalarning jozibali surat darajasiga ko'tarilishi, shoirlar ijodiga baholarning haqqoniy berilishi tazkiringa oliy badiiyat baxsh etadi.

Ta'kidlash joizki, Avfiy "Lubobu-l-albob"da badiiy asarlarni tahlil qilish vazifasini o'z oldiga qo'ymaydi. Zotan, tazkirachilik an'anasi buni talab ham qilmas edi. Lekin shunga qaramay "Lubobu-l-albob"dagi muhim adabiy-tanqidiy mulohazalar IX-XIII asr adabiyotini, uning bir qator namoyondalari ijodini yoritishga yordam qiladi. Avfiy fors adabiyotida tazkira janrining to'la shakllanishi va turli ko'rinishlarda rivojlanishi uchun salmoqli va muhim ijodiy izlanishlarni amalga oshirdi hamda tazkirachilikka quyidagi yangiliklarni kiritdi:

-birinchidan, tazkira tuzishda aniq bir maqsadni ko'zda tutdi va buni tazkiraning muqaddima qismida alohida ta'kidlab o'tdi;

-ikkinchidan, tazkirani tuzilishida ijtimoiy tartiblar asos qilib olindi;

-uchinchidan, tazkirada shoirlarni geografik hududlar bo'yicha alohida ajratib ko'rsatdi;

-to'rtinchidan, Avfiygacha bo'lgan an'anaga ko'ra, faqat avvalgi o'tgan shoirlar bo'yicha to'plamlar tuzilgan edi, u fors adabiyotida ilk bor turli hududlarda yashab ijod qiluvchi avvalgi o'tgan shoirlar hamda zamondosh ijodkorlarga bag'ishlangan tazkira muallifiga aylandi.

Tazkiraning dastlabki to'rt bobi nazariy ma'lumotlarga bag'ishlangan bo'lib, ushbu boblarda she'r va shoirlilik fazilatlarini, she'rning lug'aviy ma'nosi, birinchi she'r yozgan kishi hamda fors tilida birinchi she'r yozgan ijodkor haqida so'z boradi.

Tazkiraning asosiy qismi V bobdan boshlanadi. Asarda tazkira yozilayotgan davrda olamdan o'tgan yoki yozilayotgan davrda hali ijod bilan mashg'ul bo'lgan Movarunnahr, Eron, Iroq va hindistonlik shoirlar haqidagi qimmatli ma'lumotlar joy olgan. Albatta, bu shoirlarning hammasi ham she'riyat sohasini kasb etgan kishilar emas. Avfiy baribir adabiy muhitda ozmi-ko'pmi o'z ijodiyoti bilan qatnashayotgan umuman, "nozik ta'b egasi" bo'lib, so'z san'ati durdonalari yaratishga iqtidori yetgan turli soha, ijtimoiy qatlam, vakillari nomlarini abadiylashtirishga kirishadi. Shuning uchun ham ular orasida imomlar, ilm-rifat, madaniyat ahli, turli xil kasb egalari va xalq ichidan chiqqan shoir kishilar nomlarini uchratish mumkin. Muallif bob va fasllar tuzilishida tazkiringa kiritilgan adabiyot namoyondalarini sulolaviy, ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni, jamiyatda egallagan mavqei, jug'rofiy asoslarni sarlavhaga olib chiqqan holda, davriy asosni esa qismlar ichiga singdirgan tarzda belgilaydi. Binobarin, har faslda ijtimoiy va jug'rofiy asosga rioya qilgach, davriy asosni pog'onama-pog'ona beriladi. Ammo bu tartib har bir bob uchun amal qilmaydi. Ayrim boblarda muallif davriy asosga e'tibor qaratmaydi.

O'z qurilishi e'tibori bilan ham "Lubobu-l-albob" tazkirasining tuzilishi o'ziga xos xislatga ega. Muallif asarni o'n ikki bobga bo'lgan. Biroq kompozitsion qurilish jihatidan u boshqa tazkiralardan farq qiladi. Avfiy tazkira xillarining hammasiga xos bo'lgan belgilarni olib, murakkab bir tazkira tipi yaratadi. Chunonchi, birinchi, dastlabki to'rt bob adabiyotshunoslik masalalariga bag'ishlangan nazariyalardan iborat bo'lsa, V, VI va VII boblar tuzilish jihatidan ijtimoiy kelib chiqish prinsipi asosida tuzilgan bo'lsada bob ichida xronologik asosga ham rioya qilinadi. V bobida muallif turli sulolalar adabiy davrini vaqt tartibiga rioya qilib, ilgari o'tgan va yohud o'ziga zamondosh bo'lgan hukmdor sulola vakillarni hukmronlik davriga qarab tartibga solib bergan [1]. "Lubobu-l-albob" IX-XIII asr O'rta Osiyo, Eron hamda Hindiston adabiy muhitida yashab ijod etgan 300 ijodkor haqidagi biografik hamda avtobiografik ma'lumotlarni aks ettirishi bilan ham qimmatlidir. Ushbu ma'lumotlar va ular bilan bog'liq holda keltirilgan namuna she'rlar muayyan tartibda joylashtiriladi. Tabiiyki, dastavval hukmdor sulola vakillari va ularning shajarasiga mansub shoirlarning tarjimai holi va ijodiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Avfiyning shoirlar haqidagi ma'lumotlarini, shartli ravishda, ijtimoiy mansublik jihatidan quyidagicha guruhlash mumkin:

Podshoh va shahzoda shoirlar haqidagi ma'lumotlar;

Saroy a'yonlari haqidagi ma'lumotlar;

Jamiyatning turli qatlamiga mansub bo'lgan ijodkorlar haqidagi ma'lumotlar.

Tazkirada Muntasir (vafoti 1005), Mahmud G'aznaviy (969-1030), Tohir Chag'oni (vafoti 992), Qobus ibn Vushmgir (976-1013), Kaykovus (tavalludi 1021), Otsiz Xorazmshoh (1098-1156), Sulton Husayn G'uriy (1149-1161) kabi davlatni boshqarish bilan birgalikda she'riyatdan xabardor bo'lgan shohlar, Rudakiy Samarqandiy, Asir Axsikatiy, Rashidiy Samarqandiy, Tohir Chog'oni, Munjiq

Termiziy, Umar Termiziy, Am'aq Buxoriy, Mansur Samarqandiy, Sobir Termiziy, Xattot Termiziy, So'zanniy, Shahob Buxoriy, Mo'yad Samarqandiy, Aruziy Nizomiy Samarqandiy, Karimiy Samarqandiy, Kofiy Buxoriy, Abu Bakr Nasafiy singari o'z davrining buyuk allomalari, Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-talimiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi "Qobusnoma" asari bilan shuhrat topgan Unsuru-l-ma'aliy Kakovus, "Siyosatnoma" asarining muallifi Nizomulmulk, she'riyat nazariyasiga oid "Hadoyiq as-sehr fi daqoiq ash-she'r" ("She'riy nozikliklardan sehr bog'lari") tajnis, saj', zulfiyatayn, savol-javob kabi she'riy san'atlar haqida so'z yuritilgan, keyingi davr shoir va adabiyot olimlariga qo'llanma sifatida xizmat qilgan asar yaratgan Roshiddin Votvot kabi ko'plab ijodkorlar ham o'rin olganki, ular ijodi mumtoz adabiyot va O'rta asr Sharq ilm-fani taraqqiyoti tarixida muhim o'rin tutadi.

Ta'kidlash joizki, Muhaammad Avfiy "Lubobu-l-albob"da hukmdorlarning, davlat amaldorlarining shoirlarning, shayxlarning shaxsiyati, ijtimoiy mavqeyi, qaysi janrda qalam tebratishi va shoirning alohida qobiliyatlari kabi muhim ma'lumotlar ustida to'xtaladi va ularga adabiyot nuqtayi nazaridan javob beradi. Bundan tashqari, ularning asarlarini tilga oladi, bu asarlar haqida o'z fikrlarini bildirib o'tadi. "Lubobu-l-albob" Avfiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini aks ettiruvchi manba hamdir. Tazkirada keltirilgan ma'lumotlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, asarning muqaddima qismida Avfiy so'z va uning qudrati, she'riyat haqidagi o'z fikrlarini bayon etsa, tazkiraning asosiy boblarida shoirlarning tarjimai hollari, ijodiy faoliyati xususida, ayrim o'rinlarda o'z ijodi to'g'ri ssida so'zlaydi. Tazkiranavis o'z adabiy tanqidiy qarashlarini bayon etishda boy faktik materiallarga asoslangan. O'ziga xos ifoda uslubida ish ko'rgan. Tazkiranavis asosiy e'tiborini so'z san'atining ijtimoiy vazifasi, til, badiiy mahorat, janrlar, ijodkorlarning badiiy salohiyati kabi masalalarga qaratadi. Avfiy bildirgan baho munosabatlarni quyidagicha qismlarga ajratish mumkin.

Avfiyning so'z va so'z san'atiga munosabati;

Avfiyning she'riyat va janrlarga munosabati;

Avfiyning shoirlarga bergan bahosi: maqtoqlar va tanqidiy qarashlar.

Avfiy tazkiraning muqaddima qismida Oллоhga hamdu sano bitish bilan birga so'z xususida ham bayon etadi. So'zni Yaratganning insoniyatga baxsh etgan ilohiy

ne'matlaridan biri sifatida talqin etadi. Odamzotni haqiqiy inson sifatida kashf etadigan, uni ommaga tanituvchi, iste'dod va iqtidorini, ma'naviy olamini, aqliy qudratini namoyon qiluvchi-bu so'z ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Bu e'tirof muallifning so'zning bashariyat tarixidagi ahamiyatini teran idrok etganligini yuqori ifodasidir.

Avfiy she'riyatni yuksak qadrlaydi. Buni tazkiraning dastlabki to'rt bobini nazariy ma'lumotlarga bag'ishlab, ushbu boblarda she'r va shoirlar fazilatlarini, she'rning lug'aviy ma'nosi, birinchi she'r yozgan kishi hamda fors tilida birinchi she'r yozgan ijodkor haqida keltirgan ma'lumotlarida ko'rish mumkin.

So'z san'atkorlari haqida bayon etar ekan, avvalambor, ularning ijodiy salohiyatlariga e'tiborini qaratadi. She'r va shoirga nisbatan so'z san'ati va shoirlar iste'dodi asosiy masala deb bilgan adabiyotshunos olim sifatida qalam ahliga shu nuqtai nazardan baho beradi. Ijodiy kamolotga erishgan, so'z san'atini puxta egallagan, kuchli badiiy mahorat sohibi bo'lgan shoirlarni chuqur xurmat bilan tilga oladi. Ular qalamiga mansub she'rlarni go'zal ijod namunasi sifatida e'tirof etadi. Toyyib Boharziy, Maymandiy, Atobek Xaviy, Muhammad binni Ali Samarqandiy, Sadridin Nishoburiy, Tojiddin Obiy, Ma'sud Ahmad kabi mohir so'z san'atkorlari Avfiy olqishiga sazovor bo'ldilar [1].

**Xulosa va takliflar.** Muhammad Avfiyning adabiy merosi: "Lubobu-l-albob" va "Javome'u-l hikoyat" asarlari nafaqat o'z davri hamda bugungi kun adabiyotshunoslik ilmda ham muhim adabiy manba hisoblanadi. Fors-tojik adabiyotida bizgacha yetib kelgan, chinakam mukammal fors tilidagi to'ng'ich tazkira asar Muhammad Avfiy ning „Lubobu-l-albob“ tazkirasidir. Avfiy tazkirasini IX-XIII asr adabiy muhitidagi qizg'in ijodiy jarayon va ko'tarinkilikning o'ziga xos ko'zgusi bo'lib, muhim tarixiy-adabiy ahamiyat kasb etadi. Tazkira shoirlar hayoti, ijodi, umuman, adabiy muhitning yetakchi asosiy qirralarini asosan, xolis, aks ettirganligi, boy faktik materiallar asosida vujudga kelganligi bilan ishonchli manba hamdir. "Lubobu-l-albob" fors adabiyotida tazkirachilik an'alarini boshlab berdi va Avfiy tazkiranini o'zgacha uslubda, ijodiy yondashuv asosida tuzdi va tazkirachilikni yangi namuna bilan boyitdi. Tazkira bir qancha sulolalarning hokimiyat tepasiga kelishidan tanazzuligacha bo'lgan davr haqida ancha tugal ma'lumot berganligi bilan ham muhim ahamiyatga molik.

#### ADABIYOTLAR

1. Avfiy Buxoriy. Lubobu-l-albob. Tarjima nashri. –T.: Mumtoz so'z, 2014. –B. 345.
2. Авфий М. Нодир хикоятлар. Т., 1977; Хикоялар ва ривоятлар. Т., 1983; 2010.
3. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Мажлиси нафис. –Тошкент: /Фан, 1997. –Б.4
4. Восифий Зайниддин Махмуд. Бадоеъ-л-вакоъ / Нодир воқеалар. Форсийдан Наим Норкулов тарж. – Тошкент: 104 Адабиёт ва санъат, нашриёти, 1979. –Б. 190–192
5. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 214–231
6. Кайковус. Қобуснома. Форсчадан Муҳаммад Ризо Огаҳий тарж. Иккинчи тўлдирилган нашри. – Тошкент: Истиклол, 1994. –Б.4
7. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир хикоятлар (Мажмау-н-наводир). Форсийдан М.Хасаний тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. –Б.56
8. Шомухамедов Ш. Гуманистик ғоялар куйчиси / Ибратли ривоятлар. Тошкент: Ўзбекистон, 2009.–Б.123.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11 жилд. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 330.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилд. Тузатилган 2-нашр. – Тошкент: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Давлат илмий нашриёти, 2020.

*Ulbo'sin AMETOVA,*  
*O'zMU Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*E-mail: ametovau20@gmail.com*

### KUBRAVIYLIK TA'LIMOTI VA ALISHER NAVOIY IJODI

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi falsafiy fikrlar va axloqiy qarashlar Najmiddin Kubro ijodi va kubraviylik g'oyalari bilan chambarchas bog'liqligi tahlil etilgan. Kubraviylik tariqatidagi nazar masalasi Alisher Navoiy asarlari misolida izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, kubraviylik, nazar, adabiy an'ana, izdoshlik.

Alisher Navoiy temuriylar saltanatining murakkab, ziddiyatli bir davrida yashab ijod etdi. Uning hayot yo'li, serqirra ijodiyoti, shuningdek, ham siyosat, ham adabiyot sohasidagi birday sermahsul faoliyatini belgilashda bularni, albatta, e'tiborga olish lozim. Alisher Navoiy dunyoviy ishlar bilan qanchalar mashg'ul bo'lmasin, ruhoniylar hayotdan bir lahza bo'lsin chekinmagan. Navoiy tabiatidagi dunyo hoyu havaslaridan etak silkigan uzlatninishlik, Yaratganga bo'lgan muroqabayu, doimiy bo'lish kabilar ham taqdiri azalda bitilgan xalq osudaligi, saltanat tinchligi kabi davlat ishlaridan forig' eta olmadi. Bu nafaqat do'sti Husayn Boyqaroning taxtga kelishi, balki zamonasining qutbul aqtohi Xoja Ahror Valiy hamda piri komili Abdurahmon Jomiyning iltimoslari, ma'naviy ta'sirlari natijasi edi. "Natijada ulug'lik osmonining ushbu quyoshi "Allohga itoat etingiz, Payg'ambarga va o'zlaringizdan bo'lmish boshliqlarga itoat etingiz!" oyatiga muvofiq ish tutib hamda "Bir soat qilingan adolat oltmish yillik ibodatdan afzaldir" hadisini mulohaza qilib, amirlik lavozimi va vazirlik mansabini o'zining qutlug' qadami bilan ziynatlatdi" [1]. Husayn Boyqaro saltanatidagi har qanday ezgulikda Navoiyning hissasi borligi aniqdir. Saltanatdagi adolat, insof, tinchlikni shoir Navoiy shaxsiyatidagi tasavvur etish mushkul. Uning siyosat olamidagi hayot madrasasidan olgan ta'limi bilan ma'naviy yo'lchilikda ruhoniylar yo'lbo'shchidan olgan tarbiyasi mushtaraklik hosil qilib, ruhoniyatida komillik hosil etdi. Tasavvufiy hayot, tariqat ta'lim-tarbiyasi Navoiy yoshligidanoq ongu shuuriga singdirildi.

Navoiy madrasa ta'limini ko'rgan, zohir ilmi – shariat bilan bir qatorda botin ilmi – tariqatdan ham bolaligidan xabardor bo'lgan. Bu esa biror bir piri komilning etagini tutish maslagini Navoiyda qat'iy lashtirgan. Ruhoniyatidagi bu ehtiyoj o'laroq, 1476 yilda naqshbandiylik tariqatining piri komillaridan hisoblanmish Abdurahmon Jomiyga murid bo'ldi. Navoiyshunos Y. Ishaqov: "Navoiy garchi Jomiy bilan tanishib, unga keyinroq qo'l bergan bo'lsa-da, biroq u yoshlikdanoq o'z davrining buyuk siyosati bo'lmish Jomiy asarlari bilan, shuningdek, naqshbandiylikning asosiy xususiyatlari bilan tanish bo'lgan va tanisha borgan. Jomiyga qo'l berishi esa yosh Alisher e'tiqodidagi uzoq evolyutsiyaning rasmiy natijasidir", – degan edi [2]. Alisher Navoiy naqshbandiylik tariqatining muridi bo'lsa-da, O'rta Osiyodagi mashhur tariqatlar yassaviylik va kubraviylik tariqatlarining ta'lim usullarini puxta o'rgangan. Chunki bu davrda uchta tariqat peshvolari o'z faoliyatini teng olib borganlar. Alisher Navoiy ham har uchala tariqat namoyandalarining badiiy adabiyotini sevib o'qigan va ularning ibratli hayot yo'li, tariqatidagi o'ziga xosliklar asarlarida aks etgan.

Shayxi Valitarosh Najmiddin Kubro va u hazrat asos solgan mashhur kubraviylik tariqatidagi Allohga qurbat hosil etuvchi usullar, solik hol va maqomlarini ifodalovchi ramz va

timsollar Navoiy ijodiga sezilarli ta'sir o'tkazgan. Najmiddin Kubroning valiylik shaxsiyati, "at-tariqatuz-zahabiya", ya'ni "Oltin tariqat" nomi bilan mashhur bo'lgan kubraviylik tariqatining ta'siri Navoiyning do'sti, hammaslagi darvesh shoh Husayn Boyqaroning quyidagi istagidan ham namoyon bo'ladi: "... Hazrat sulton hazrati oliylariga shunday arz qildilar: Bir safar sizning Xudo ko'nglingizga solgan narsalarni so'zlovchi tilingizdan: "Qachonki jahondorlik kabi o'ta mas'uliyatli bu ishdan zeriksam, avliyolarning sarasi bo'lgan shayx Najmiddin Kubroning o'zidan nurlar taratuvchi maqbarasida istiqomat qiluvchi yoki ulug' Tangrining yaqini bo'lgan Xoja Abdulloh Ansoriyning (Alloh bularning qabrlarini tabarruk qilsin) tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchi bo'laman", degan gap chiqqan edi. Biroq endi sizning bu orzungiz ushalmaydigan bo'ldi, menga esa to'la xohish va rag'bat bilan Hijoz safariga borishimga ruxsat bermaydilar. Shunga ko'ra sizning qutlug' shaxsingiz vakolati bilan qolgan umrimni Ansoriyaning tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchilik bilan o'tkazishimga va saroy mulozimligi ishidan butunlay bo'shshimga ruxsat bersangiz..." [1] Nafaqat Navoiy, balki butun ma'rifat va mamlakat saltanatida Husayn Boyqaro o'z ta'sirini o'tkaza olgan shaxsiyatlardan edi. Uning "avliyolar sarasi Najmiddin Kubro"ga bo'lgan cheksiz hurmati, uning maqbarasida jorubkash bo'lish istagi, albatta, atrofidagilarni befarq qoldirmagan. Shuningdek, yana bir temuriy podshoh Ulug'bek Mirzo o'zining "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi", 1425) nomli tarixiy asarida Shayx Najmiddin Kubroni "Jami musulmonlarning a'losi" deya ta'riflaydiki, bu ma'lumotlar ham shayxning temuriylar hukmronligi davridagi obro'-e'tibori, valiylik shon-shuhratidan ham darak beradi. Va Navoiyning ham ahli dil sifatida Najmiddin Kubro va Abdulloh Ansoriydek buyuk zotlar ostonasida darveshona hayot tarzini yashash orzusi bo'lganligiga shubha yo'q.

Buyuk bir shaxsiyat sifatida ham Najmiddin Kubroga Navoiyning e'timodi baland bo'lgan. Ayniqsa, shayxu avliyolar haqidagi "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ham keng o'rin ajratilgan sanoqli shayxlardan biri Najmiddin Kubrodir. Ma'lumot Kuniyatlar Abuljannob, otlari Ahmad b. Umar Xeva'iy hamda mashhur laqablari haqidagi xabar bilan boshlanib, bu ko'z o'ngimizda shayxni zohir va botin ilmida zamonasining tengsiz bir allomasi sifatida gavdalandiradi: "Va debdurlarki, Kubro andin laqab bo'ldiki, yigitlik avonidakim, zohir ulumi tahsilig'a mashg'ul ermishlar, har kim bilakim, munozara va muhohasa qilsalar ermish – ul kishiga g'olib bo'lurlar emish. Shuning uchun unga "Tommat ul-kubro" laqabini berdilar. ... Keyinroq "Kubro" deb atay boshladilar" [3]. Najmiddin Kubroning yana bir laqablari borki, u ahli tasavvuf orasida ko'p tilga olinadi. Bu shayxi Valitarosh, ya'ni valiy larni voyaga yetkazuvchidir. U kishining suhbatidan, hatto nazaridan ham odamlar fayzu barokat olar edilar. Zamira Ishaqova shayxning o'tkir nazari hamda nazarkardalikka



erishgan inson, shuningdek, jonzotlar haqidagi fikrlarini "Nasoyim"da keltirilgan manbalar orqali dalillab yozadi: "Shayxning qalbida ilohiy ilhom (vajd) qo'zg'alganda uning nazari kimga tushsa, shu kishi valiylik xislatiga ega bo'lgan. Xonaqohga tomosha uchun kirib kelgan bir savdogar shayxni vajd holida ko'radi. Najmiddin Kubroning muborak nazari savdogarga tushgach, savdogarning holati o'zgarib, qalbida valiylik nurlari paydo bo'ladi va kasbidan voz kechib, sulukka kiradi. Shayxning bashorati bilan tariqatdan nasiba topib, o'z yurtiga borib tariqatdan so'z ochadi..." [4] Zero, tasavvuf ahli ham ulug' shayxlarning atrofida qaynagan xayolidan kechgan o'y-fikrlarni, ko'nglidagi kechinmalarni farosat va karomat nuri ila anglashi haqiqatini, nazarning o'tkirligi valiylikning bir darajasi ekanligini Najmiddin Kubro va uning nazari tushib holi o'zgargan it voqeasi bilan isbot etadilar. Navoiy ham ko'ngil yo'lchiligi, sayru sulukka oid barcha asarlarida bundan foydalangan. "Lison ut-tayr", "Nasoyim ul-muhabbat", "Sittai zaruriya" kabi asarlarida batafsil to'xtalsa, lirikasining turli janrlarida ushbu voqeaga talmeh va tamsil san'ati orqali ishorat qiladi. "Nasoyim" tazkirasida bu voqeani shunday qisqa bayon qiladi: "Bir kun ul Hazrat majlisida As'hobi kahf ahvolining taqriri va tahqiqi o'tar erdi. Shayx Sa'diddin Humaviy q. s.ki, Hazrat Shayxning as'hobidindur, xotirig'a o'ttikim, oyo bu ummatda andoq kishi bo'lg'aymukim, suhbatlari itga asar qilg'ay? Hazrat Shayx karomat nuri bila ma'lum qildilar va qo'pub xonaqoh eshigiga borib turdilar. Nogoh bir it yetishdi va quyruq'ini tebratadur erdi. Alarning mubarak nazarlari ul it sori tushdi. Filhol baxshish topib, mutahayyir va bexud bo'lub, shahrdin yuz evurdi va go'ristong'a mutavajjih bo'ldi va boshin yerga surtar erdi" [3]. Bu valiy uchun ulug' bir rutba bo'lsa, murshidlar uchun zarur bo'lgan maqomdir. Piri komillar muridining qalbidan kechadigan har qanday fikrdan ogoh bo'lmog'i kerak. Shundagina tariqatda ildam odim tashlash mumkin. Shayx bu ma'noda tengsiz bir rahnamo, beqiyos bir peshvo edi. Navoiy ham ma'rifat nazari ila buni e'tiborsiz qoldirmagan. Qalb tasfiyasidagi soliklar uchun dalil ibrat ma'nosida buni teran tahlil etgan: "Va alarni Shayx Valitarosh ham debdurlar. Oning uchunki, vajdu hol g'alabotida muborak nazarlari har kimga tushsa, valoyat martabasig'a yetar ermish" [3]. Valiylarning quvvai nazari bilan odamlarda hollar o'zgargan. Yomonlik ezgulikka, hasad havasga, manmanlik tavoze'ga aylangan. Shu bois ularning ruhiy himmatidan, suhbatlaridagi fayzi barokotlardan odamlar har doim umidvor bo'lishgan. Chunki valiylarning irfon majlislarida bo'lish orqali ruh tazkiya topgan va solik o'zlikdan qutulib, o'zlikka yetgan, ma'nan qayta dunyoga kelgan. Bu ta'sir nafaqat insonlarda, hattoki hayvonlarda ko'rinishi yana-da ta'sirliroq bo'lgan:

Sukr vaqti soldi chun bir kun nazar,  
Ul nazardin bo'ldi bir it bahravar.  
Oshnolig'din yetishti choshni,  
Tortib itlik siyaratidin boshni.  
Yuz qo'yub shayx ollida qildi niyoz,  
Barcha itlar uzra bo'ldi sarfaroz.  
Har qayon shahr ichra qilsa erdi mayl,  
Itlar erdi girdida andoqki xayl. [3]  
Shayxning muborak nazari bilan it barcha itlar orasida sarfaroz bo'ldi. Bunday ta'sir kuchiga ega sohibi karomatlar, albatta, barcha zamonlarda ham kam uchragan. "Lison ut-

tayr"da kitobxonni jalb etadigan ma'lumotlardan biri Sulaymon nazari bois Hudhud ruhoniyyatidagi holga urg'u berish uchun Alisher Navoiy itga nazari tushgan Najmiddin Kubro to'g'risidagi rivoyatni keltirganidir. "Lison ut-tayr" dostoni qushlardan biri mavqelar, maqomlar masalasida "yashirin sirlardan" voqif bo'lgan Hudhudan so'raydi:

"... Tengdurur chun borimizg'a bolu par,  
Sen nedinsen boxabar, biz – bexabar?  
Bu tafovutni sarosar sharh qil,  
Kim nedindur, bizga ravshan aylag'il..."

Shunda Hudhud javobining avvalidayoq qushning savoliga:

O'truda bu bo'ldi Hudhudning so'zi:  
"Kim manga tushmish Sulaymonning ko'zi..."

Kimga-kim aylar nazar ahli safo,  
Ul nazar tufrog'ni aylar kimyo" [3],–  
deya javob bergani va bu orqali Navoiy tasavvufdagi nazari masalasiga o'z asarlarida ko'p o'rinlarda urg'u berganiga guvoh bo'lamiz.

"Lison ut-tayr"dagi "Shayx Najmiddin Kubroning so'zi va itga tushgan ko'zi haqida"gi maxsus bobda ana shu voqea bayon qilinadi:

...Yetkurur itga natija ul nazar,  
Zotig'a solur kishilikdin asar,  
Itgakim yetgay validin tarbiyat,  
Qushqa ham tong yo'q nabidan tarbiyat... [5]

Bir valiy zot nazari tufayli itda va qushda "maqom" hosil bo'lgan ekan, Sulaymon payg'ambar nazari tushgan Hudhudning boshqa qushlarga peshvo bo'lishi shubhasizdir. Navoiy asarning ushbu bobida Najmiddin Kubroning nazari bilan bog'liq ikkita voqeaga: Shayxning nazari tushgach holi o'zgargan qush va it bilan bog'liq voqealarga aynan ishora qiladi.

Kubroning iti bilan bog'liq hikoya Navoiyning mumtoz adabiyotda an'anaviy voqealar tizimiga olib kirgan yangiligidir.

Najmiddin Kubroning nazarkardaligi tazkira va manoiqlarda, dostonlarda tasavvufdagi bosh masalalardan biri ekanligi bois voqelik tarzda ifoda etilsa, lirikada badiiy san'atning go'zal namunasi bo'lgan talmeh orqali ishoratlar qilinadi. Navoiyning olti qasidasini jamlagan "Sittai zaruriya"dagi "Ayn ul-hayot" ("Hayot bulog'i") qasidasida ham shoir Kubro va nazarkarda it voqeasiga ishorat qilib, o'quvchi diqqatini jalb etadi:

Hast mashhur in, ki Nachmiddinvashoni ummatat,  
Chazba baxshand az yaqin bar sag nazar to afganand.

Ma'nosi: shu ma'lumki, ummatingning Najmiddin (Kubro) sifat avliyolari agar itga nazar qilsalar, shubhasiz, unga jazba bag'ishlaydilar. [6] Mutafakkir Navoiy shayxning nazarkardaligini yodga olib, yana bir bor nafs tarbiyasida yuksak martabaga erishgan valiy zotlarga ishorat qilmoqda.

Mutasavvif Alisher Navoiyning Najmiddin Kubro shaxsiyati va kubraviylik tariqati odob-arkonlariga muhabbati cheksiz bo'lgan. Bu holat uning nafaqat asarlarida Najmiddin Kubro nomi qayta-qayta tilga olinishi yoxud ustoz va xalifalariga oid ma'lumotlarning keltirilishida, balki asarlarida irfoniy g'oya va obrazlar uyg'unligida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Гиёсиддин Хондамир. (2015). Мақорим ул-ахлоқ. Фафур Фулом.
2. Исҳоқов, Ё. (1965). Алишер Навоийнинг илк лирикаси. Фан.
3. Навоий, А. (2001). МАТ. 17-том. Фан, 2001.
4. Исҳоқова,З. (2011). Нажмиддин Кубро. АБУ МАТБУОТ-КОНСАЛТ.
5. Навоий, А. (1991). Лисон ут-тайр. Фафур Фулом.
6. Навоий, А. (2008). Ситтаи зарурия. Фан.

**Q.O. ARZIBAYEV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti Taekvondo va sport faoliyati fakulteti Sport menejmenti kafedrasini mudiri dotsenti*

**A.N. KHOLOVA,**

*Taekvondo va sport faoliyati ta'lim yo'lishi talabasi*

*E-mail: sportsmen4959@mail.ru*

*NamDU Sport faoliyati kafedrasini professori v.b. pedagogika fanlari nomzodi N.U. Ismoilov taqrizi asosida*

## FORMATION OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE FUTURE COACH IN THE EDUCATIONAL SPACE OF A SPORT UNIVERSITY

Abstract

The paper considers the relevance of the formation of the psychological and pedagogical competence of coaches (sports teachers), associated with the characteristics and risks of coaching. Job of a coach in modern conditions is determined by a new status: the demand for sports teachers acquires a social scale within the framework of programs for the improvement of the population, within the framework of organizing healthy leisure for young people, within the framework of the formation of new values and life priorities of the younger generation. This need is fixed in all state educational standards. In the form of general cultural and professional competencies.

**Key words:** Continuity, analysis of a work of art, systematic approach, method, dialogue of cultures.

**Introduction.** Study demonstrates positive dynamics of development in most indicators. There is a qualitative growth in terms of: projective and predictive skills; students emphasize the need development of projective skills as a primary indicator of the professional maturity of young teachers; reflective and organizational skills; these skills are indicators of intrapersonal development, including the development of communication skills; informational and developing skills; the development of these skills is facilitated by the saturation of electronic information resources; analytical skills and efficiency of knowledge; these skills are associated with scientific and theoretical activities, and the greatest development is obtained when studying in the magistracy.

**Methods.** Analysis of the results of the survey of 1st and 4th year students of the direction "Physical culture" of sports and tourism, as well as analysis of the expert assessments of teachers of the academy and employers (teachers of general education and coaches of sports schools for which students were assigned in practice).

**Results and discussion.** The work of a coach (and a sports teacher in general) in modern conditions is determined by a new status: the demand for sports teachers acquires a social scale within the framework of population improvement programs, within the framework of organizing healthy leisure for young people, within the framework of the formation of new values and life priorities of the younger generation. A modern coach must have creative potential, the ability for self-development and self-improvement, the creation and transmission of healthy lifestyle values. This need is fixed in all state educational standards in the form of general cultural and professional competencies.

No matter how the form and content of the Federal State Educational Standards change, the need for the formation of psychologically competent and creatively gifted trainers-teachers is present and will be present in all standards as a response to the designated social request. This social demand is focused on creative individuality, which implies not only the presence of psychological and pedagogical knowledge, but also the ability to use and develop this knowledge in daily pedagogical practice, the formation of a "perpetual motion machine" of professional competence based on the well-known triad "knowledge → practice → new knowledge".

Therefore, the actualization of the problem of the formation of the psychological and pedagogical competence of future coaches (sports teachers) is an important marker of modern professional education.

The psychological and pedagogical competence of a coach (sports teacher) plays a special role against the backdrop of the rapid development of distant forms and means of education in general: it is impossible to educate and train an athlete in absentia, only with the help of electronic resources, the training process was, is and will be held as regular direct communication teacher with pupils. The coach spends more time with his students, knows them better and has more opportunities to influence than the average teacher. The communication of a coach with athletes is often "non-standardized", that is, almost constant, for example, at training camps and during sports competitions, therefore, in the early stages of work with young athletes, the coach actually plays the role of a guardian; becomes a mentor in later stages; and at the stage of the sport of the highest achievements, the function of a manager appears in relation to his wards. These features of coaching work place high demands on both professional and personal characteristics of a sports teacher. And this is also an additional factor in the actualization of the psychological and pedagogical competence of future sports teachers-trainers.

Equally important is the ability of sports teachers to maintain internal psychological balance, since the work of a sports teacher is burdened by various risks and a high level of stress: a coach spends a lot of time away from the usual comforts of home (training camps, competitions), by the nature of their activities, coaches have to communicate with a large number of people (parents of pupils, colleagues, judges, journalists, etc.), a high risk of physical and psychological injuries during training and competition, as well as a high degree of competition in the sports services market. Thus, future sports teachers should be prepared not only for external, but also for internal psychological risks of their profession.

The formation of psychological and pedagogical competence is the foundation of general professional competence, which includes:

- special competence (knowledge and skills in the field of sports activities);
- social competence (ability to work with a team and in a team, possession of interpersonal communication

techniques, awareness of social responsibility for the results of one's activities);

- personal competence (skills and abilities of personal self-regulation, self-expression, self-development, the ability to recognize and correct professional personality deformations);

- individual competence (skills and abilities to realize creative potential, desire and readiness for professional growth).

We also note the internal complexity and structuredness of the psychological and pedagogical competence of university graduates:

- general psychological competence as a set of theoretical knowledge in psychology;

- socio-pedagogical competence as knowledge of the foundations of social psychology;

- autopsychological competence as knowledge about oneself and one's psychological characteristics;

- communicative competence as skills and abilities of effective communication;

- conflict logic competence as skills and abilities of constructive work in conflict situations.

Important for the formation of the psychological and pedagogical competence of future sports teachers are also aspects of general cultural development: personal coloring of knowledge (passion for one's profession, the ability to interest pupils, responsibility in decision-making), communication skills (disposition to people, goodwill, sociability); perceptivity (professional observation, pedagogical intuition, high level of sensory indicators, assertiveness); personality dynamism (emotional stability, ability to self-regulate, lability), the culture of pedagogical communication (pedagogical tact, the presence of one's own style of communication).

The period of study at a university is a period not only of searching for one's professional identity, but also of laying the foundations for future professionalism. During this period, the unconscious internal need for self-actualization is translated into specific forms of professional activity, which makes it possible to realize this internal need already at a conscious level. During this process, young people, through awareness of their professional identity, form their professional self-concept, due to which they achieve personal

self-actualization. The professional activity of sports teachers provides sufficient opportunities for this, because it involves the actualization of the biological, psychological, and personal potential of the individual.

The formation of professional psychological and pedagogical competence of future trainers is provided by the psychological and pedagogical components of the educational process, presented in Table 1.

All types of educational and extracurricular activities are important for the formation of professional competence of the future coach. Of particular importance in the development of professional psychological and pedagogical competence of a future coach in the process of educational work belongs to practice and integrated courses, such as "Introduction to Teaching Excellence", aimed at forming ideas about the essence of pedagogical activity, at developing the structural components of the professional competence of a future coach, primarily turn, on professionally significant personal qualities of future specialists.

The course solves the following tasks:

- formation of ideas about the essence of pedagogical activity;

- the assimilation of knowledge about the essence and structure of pedagogical skills;

- characterization of the features of pedagogical skills in the structure of pedagogical culture;

- the formation of skills and abilities for the implementation of professional pedagogical activities;

- development of professional pedagogical reflection;

- development of communicative and analytical abilities of students;

- contributing to the development of pedagogical culture, professional creative abilities, qualities of a teacher;

- solution of pedagogical problems within the framework of general educational and professional educational organizations, focused on the analysis of scientific and scientific-practical literature, generalization of practice in the field of physical culture and education;

- the implementation of training and education of students in the process of classes.

It is important that in the process of passing an integrated course, theoretical knowledge acquires personal significance, is assimilated and becomes relevant.

Table 1

Psychological and pedagogical aspects of the educational process of VRSAPHCSandT on the formation of professional competence of a future coach

Stage	Goal	Educational work	Extracurricular activities
Stage 1(junior courses)	The goal is to develop psychological readiness for mastering the future profession of a coach	The system of educational subjects in accordance with the State Standard ("Pedagogy", "Psychology", "Pedagogy of physical culture", "Psychology of physical culture")	Work as counselors in summer health camps. Volunteering. Educational work among schoolchildren
Stage 2(middle courses)	The goal is to develop the main structural components of the professional competence of a future specialist in the field of education	Integrated course "Introduction to Teaching Excellence". Other integrated courses ("Prevention of drug addiction by means of physical culture and sports", "Social adaptation in the conditions of educational and professional activity", etc.). Practice in obtaining primary professional skills and abilities (3rd year). Coursework	Practice-oriented seminars: pedagogical technique, mimic and pantomimic expressiveness of the teacher, culture of speech and culture of appearance of the teacher, mastery of pedagogical communication, art of oral and public speaking, elements of acting and directing skills in pedagogical activity; psychological trainings: self-confidence development training, conflict management training, self-regulation basics training, burnout prevention trainings in the professional activities of a teacher

Stage 3(senior courses)	The goal is the development of professional competence of the individual	Practice for obtaining professional skills and experience of professional activity, pedagogical, performing and creative (4 course). Graduation thesis	Coaching. Scientific research
-------------------------	--	---	----------------------------------

Professional competence is formed and implemented in the course of all types of practices through the actualization of the following psychological and pedagogical skills and abilities:

analytical skills are manifested in the ability to analyze and generalize the accumulated pedagogical experience, diagnose the physical development of pupils and conduct pedagogical research;

prognostic skills and abilities are manifested in the ability to predict the development of a sports team, sports achievements of pupils, the educational and training process as a whole;

projective skills and abilities are necessary in the design of various forms of pedagogical activity: educational and methodological, research and extracurricular;

reflexive skills and abilities are carried out when evaluating one's activity in the form of self-observation and self-knowledge;

organizational skills ensure the inclusion of students in various types of team activities in accordance with their capabilities, knowledge and needs;

information skills and abilities are manifested in the ability to receive, process and present educational information in accordance with the goals and objectives of the educational process;

developing skills are aimed at the development of cognitive processes, feelings and will of students with the help of all methodological and methodological tools of psychological and pedagogical sciences.

A special role in the educational space of a sports university in the formation of the professional competence of a future specialist in the process of extracurricular work is given to coaching, in which senior students under the guidance of experienced coaches conduct training sessions, acquire the

skills and abilities of real pedagogical activity, practicing analytical, prognostic, organizational, reflective and other skills.

In connection with the relevance of the topic, the author conducted a study aimed at self-assessment of the level of formation of the psychological and pedagogical competence of students of the 1st and 4th courses of the direction "Physical culture" of the Volga Academy of Physical Culture, Sports and Tourism. The object of this study was the psychological and pedagogical competence of the students of the Academy, the subject - the process of formation of the psychological and pedagogical elements of the professional competence of future sports teachers - students of the Volga Region State Academy of Physical Culture, Sports and Tourism. The methodological basis of the study was a comparative analysis of the questionnaires of 1st and 4th year students. The study was of a prolonged nature: in 2014, students in a number of areas (wrestling, swimming, athletics, gymnastics, hockey, football) filled out a questionnaire that was uniform in content, and this year, already being 4th year students, they answered a similar questionnaire already with "heights of past years of study. The study involved 80 students. As part of the questionnaire, students conducted a self-assessment in terms of indicators of psychological and pedagogical competence, as well as the formation of a personal and professional level. Students had the opportunity to assess the indicators of psychological and pedagogical competence and personal growth on four levels:

- 4 - distinctly formed;
- 3 - sufficiently formed;
- 2 - takes place;
- 1 - formed to a minimum extent.

The results of the survey are presented in table 2.

Table 2

**Formation of psychological and pedagogical competence and personal growth of a coach in students' self-esteem (in points)**

	Theoretical and practical skills	1 st cours	4 th course	Dynamics
1	2	3	4	5
1	Efficiency of knowledge: sports news, sports pedagogy, innovation in the field of physical culture and sports	24,4	26	+1,6
2	Analytical skills: the ability to generalize advanced pedagogical experience; diagnose the physical development of pupils; conduct pedagogical research and analyze its results	24	24,8	+0,8
3	Prognostic skills: predict the development of a sports team; sports achievements of pupils; training process	22	26	+4
4	Projective skills: to design educational and methodical work; research activities; extracurricular activities	20,4	25	+4,6
5	Reflective skills: objectively evaluate their activities; the ability to self-observation, self-knowledge, to maintain and maintain sports shape	24,4	28	+3,6
6	Organizational skills: to hold mass physical culture and sports and entertainment events, to promote sports and sports services and goods, to mobilize pupils to go in for sports on their own, to lead a healthy lifestyle	23	26	+3
7	Information skills: work with printed and Internet sources, the ability to extract information and didactically transform it, apply technical means	27	30,2	+2,8
8	Developing skills: definition of the "zone of proximal development" of individual students, groups; creation of problem situations and other conditions for the development of cognitive processes of students	22	24	+2

Analysis of the results of self-examination allowed us to draw the following conclusions:

In general, the level of self-assessment of psychological and pedagogical competence can be characterized as adequate (3.5–4 points on a five-point scale on average for all students).

The study demonstrates a positive trend in development for most indicators.

Particularly noteworthy is the qualitative growth in such indicators as projective and predictive skills as a result of the simultaneous accumulation of theoretical knowledge and the possibility of applying it in practice (most students earn extra money in various sports organizations - they train mainly children, in addition, all respondents underwent pedagogical practice in general education and sports schools in the city of Kazan or educational institutions at the place of residence). It should be noted that in personal conversations, students emphasized the need to develop projective skills, which are perceived by employers as a primary indicator of the professional maturity of young teachers.

An important factor in the formation of projective and predictive skills and abilities are the annual student conferences, at which the students surveyed had the opportunity to demonstrate and consolidate these skills.

Good dynamics was also shown by assessments of reflexive and organizational skills.

The ability to reflect is the most important indicator of a mature, formed personality, and the growth of this indicator, in our opinion, best demonstrates the process of formation of psychological and pedagogical competence. This is especially significant for us educators, compared with the results of the primary study four years ago, when this particular indicator gave negative results. As reflective skills are an indicator of intrapersonal development, so the development of organizational skills is a demonstration of the development of communication skills. The positive dynamics of organizational skills is the cumulative result of the educational process, educational and pedagogical practice, extracurricular work and, in general, the first independent stage in life for most students (83% of the respondents live in a hostel). Also, in personal conversations, students noted the importance of

working in the summer in various kinds of children's camps in terms of developing organizational skills and abilities. Students characterized this work as "an invaluable experience", "the most significant source of skills and abilities", "a creative school", etc.

Vermikultivatsiyaning fan sifatida paydo bo'lishini XX asrning 30-yillari deb atash mumkin. Aynan o'sha paytda AQSH (Kaliforniya) davlatida sanoat miqyosida yomg'ir chuvalchangidan foydalanishda ilmiy-amaliy tadqiqotlar boshlangan. 1939 yilda amerikalik doktor Tomas J.Barret oshxonasi yaqinida kompost uyulgan joyda chuvalchanglar soni ko'payganiga, u yerda tuproq juda g'ovak, yumshoq, mayin ekanligiga ahamiyat qaratgan. U o'simliklar ostiga bu kompostni chuvalchanglar bilan birga olib kelib sola boshlagan, natijada esa hosildorlik sezilarli darajada oshganini, o'simliklarning mevalari kattalashib, tashqi ko'rinishi va ta'mi ham yaxshilanganini kuzatgan. 1959 yilda doktor T.Barret qizil gibrid zotning, ya'ni ixtisoslashgan Kaliforniya qizil chuvalchanglarini ishlab chiqarish uchun patent olgan. Buyukbritaniyaning Rotamsted tajriba stansiyasida Klayv Edvards 1980 yillarda yomg'ir chuvalchanglarining besh turini Eisenia fetida (Savigny), Eisenia andrei (Bouche), Dendrobaena veneta (Rosa), Eudrilus eugeniae (Kinberg) va Perionyx excavatus (Perrier) vermitekhnologiyada qo'llash samarali ekanligini aniqladi [3]. G.N.Visotskiy tuproqlarni paydo bo'lishi va tuzilishida hamda daraxt ildizlarining tarqalishida chuvalchanglarning roliga katta e'tibor berdi. U tadqiqotlari natijasida Dendrobaena mariupoliensis Wyssotzky nomini olgan yirik yomg'ir chuvalchangining yangi turini kashf etdi [4]. [5, 6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yomg'ir chuvalchanglari, ularning tuproq hosil bo'lishidagi roli haqidagi ma'lumotlarni kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Biogumusda yuqumli kasalliklarning patogenlari yo'qotiladi, zararkunanda organizmlardan bartaraf etiladi, qayta ishlangan substratning fermentativ va mikrobiologik faolligi shakllanadi [7]. Biogumus o'simliklarga zarur bo'ladigan makro va mikroelementlar, fermentlar, vitaminlar va o'simliklar o'sishini ta'minlaydigan gormonlarni o'z ichiga oladi [8]. Turkiyada qora qarag'ay ko'chatlarining sifatini aniqlashda hibogga olinadigan parametrlar ildiz bo'yni diametri, balandligi, mustahkamlik ko'rsatkichi kabi ba'zi morfologik xususiyatlari, vazni, ildiz miqdori va fiziologik xususiyatlari, o'simlikning suv sig'imi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilgan [9]. Biogumusni kanopning "Purini" navini fiziologik holati va hosildorligiga ta'siri tajribadan o'tkazilgan. Tajribada biogumus ta'sirida o'simliklarning barglarida xorofill konsentratsiyasining statistik jihatdan sezilarli o'sishi

kuzatilgan [10]. [11] tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalarida vermikompostni 10 % meyorda qo'llash o'simliklarning o'sish parametrlarini sezilarli darajada oshirgan. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish, o'simliklarni kimyoviy vositalardan himoya qilish uchun dehqonchilik tizimiga vermikulturani kiritish orqali erishish mumkin [12]. Organik chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalaridan biri bu organik chiqindilardan qimmatli o'g'it - biogumus ishlab chiqaradigan chuvalchanglardan foydalangan holda vermikompost qilishdir [13]. Vermikultivatsiya texnologiyasi natijasida hosil bo'lgan organik o'g'it ekologik va iqtisodiy samaradorligi bo'yicha barcha ma'lum o'g'itlardan oshib ketadi va uni ishlab chiqarish yuqori rentabellikka ega [14]. Hindistonlik tadqiqotchilar Eisenia fetida chuvalchangi yordamida guruch somoni va qog'oz chiqindilariga sigir go'ngi aralashirib vermikompostlash ustida tadqiqot o'tkazib, vermikompost tarkibida NPK miqdori eng yuqori bo'lganligini kuzatdilar [15]. Biogumusning o'simliklarga ijobiy ta'siri masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni [16, 17, 18] kabi olimlarning tadqiqotlarida ham kuzatish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kaliforniya qizil chuvalchangining tuzilishi, biomassasi, populyatsiya dinamikasi, oziqlanish xususiyatlari, rivojlanishi, antropogen omillarning ta'siri, gidrotermik sharoit va yomg'ir chuvalchanglarining ko'pligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish yarim stasionar sharoitda amalga oshirildi. Kaliforniya qizil chuvalchangini olish uchun an'anaviy maxsus usullardan foydalanilgan [19, 20]. Tadqiqot jarayonida fenologik va biometrik kuzatuvlar olib borildi, shuningdek, mevaning vazni, miqdori va sifati bo'yicha hosildorlik hisobga olindi. Matematik-statistik tahlillar «Metodiki opitnogo dela» [21] dispersion usullarida amalga oshirildi. Jadval ma'lumotlari, diagrammalar va grafiklar «Microsoft Excel» dasturi asosida bajarildi.

**Tahlil va natijalar.** Biogumusning tarkibida ko'p miqdorda makro va mikroelementlar bo'lib, ular o'simliklar tomonidan oson o'zlashtiriladi. Bundan tashqari o'simliklarni tez o'stiruvchi moddalar: vitaminlar, antibiotiklar, 20 ga yaqin mikroelementlar va foydali mikrofloralar mavjud bo'lib, kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar bo'lmaydi. Biogumusda aktiv fermentatsiya jarayoni bo'lishi natijasida ko'p miqdorda biologik faol moddalar, ya'ni auksinlar va geteroauksinlar hosil bo'ladi. Bu moddalar yosh nihollarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib o'tkazganda kasallantirmaydi, ularni yangi joyda hatosiz tutib qolishini ta'minlaydi, urug'larni unib chiqishini tezlashtiradi, o'simliklarni kasalliklarga chidamligini oshiradi, tez o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi [22].

O'simlik urug'larini unib chiqishi va ularning mahsuldorligini aniqlash maqsadida bir qator tadqiqotlar o'tkazdik. Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani xususiy tadbirkor Nurali Ahmedovning issiqxonasida pomidorning "Sonato" navi ko'chati o'tqazilgan maydonlarni 0,5 gektariga agrotexnik qoidalarga amal qilgan holda biogumus o'g'iti solinib parvarish qilindi. Tajribadagi pomidor maydonlariga 0,5 gektar maydonga 2,5 tonna biogumus solindi. Biogumus bilan o'g'itlangan maydonlar bir xil rejimda, ya'ni harorat kechasi 18-23°C, kunduzi 27-33°C harorat ushlab turildi, suv bilan ikkala maydon kerak vaqtda sug'orib borildi. Vegetatsiya davrida biogumus solingan pomidorlar juda tez va sog'lom o'sdi, kasalliklarga deyarli uchramadi, yerdagi namlik nazoratdagiga nisbatan 3-4 kun uzoqroq saqlandi. Hosil yig'ishtirish davrida biogumusni ta'siri yana ham samarasini berdi. Nazoratda 1 m<sup>2</sup> maydondan 9,2 kg pomidor yig'ishtirib olindi, tajribadagi maydondan esa 13,4 kg hosil yig'ishtirib olindi yoki nazoratga nisbatan 42 % ko'p hosil olindi (1-2 jadval).

1-jadval

"Sonato" pomidor navining biometrik ko'rsatkichlari

Tadqiqot variantlari	Olingan o'rtacha ko'rsatkichlar			
	Poyaning balandligi, sm	Poyadagi bo'g'im oraliqlari soni, dona	Yon kurtaklar soni, dona	Poyadagi shoxlar soni, dona
Nazorat	55,1	4,9	6,5	4,3
2,5 t biogumus	57,4	5,3	7,6	5,2

Izoh: tajribalar 0,5 gektarli issiqxonada olib borilgan.

2-jadval

"Sonato" pomidor navining hosildorlik ko'rsatkichlari

Tajriba variantlari	Harorat, °S		Hosildorlik tonna			1 m <sup>2</sup> maydondan olingan hosildorlik, kg
	kunduzi	kechasi	Tovar	Tovar emas	Jami	
Nazorat	27-33	18-23	18,5	0,5	19	9,2
2,5 t biogumus	27-33	18-23	21,1	0,4	21,5	13,4


Izoh: tajribalar 0,5 gektarli issiqxonada olib borilgan.

Rediskaning issiqxona sharoitida yetishtiriladigan mahalliy "Lola" navini urug'ini unib chiqishini 0,5 gektar maydonga 2,5 tonna biogumus solgan holda olib borilgan tadqiqotlarda rediska urug'i sepilgandan so'ng harorat 220S da ushlab turildi. Biogumus qo'llanilgandagi urug'lar biogumus qo'llanilmagan variantdagiga nisbatan bir kun oldin unib chiqdi. Ertasi kuni biogumus solingandagi urug'larni unib chiqishi 66,7 % ni tashkil qildi, biogumus solinmagandagi urug'larni unib chiqishi faqat 6,2 % ni tashkil qildi. Urug'larni umumiy unib chiqishi biogumus solingan variantlarda biogumus qo'llanilmagan variantga nisbatan 72,7 % ni tashkil

qildi. Biogumusni miqdorini orttirilishi (8 %) ko'zlangan natijani bermadi, ya'ni nazoratdagiga nisbatan faqat 13 % gina ortdi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, biogumus urug'larni unib chiqishiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularni meyorini unib chiqqan nihollarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xuddi shu issiqxonada pomidor, bolg'ar qalampiri, kartoshka, sabzi o'simliklariga go'ng+mineral o'g'itlar va biogumus solib parvarish qilindi. Ularning mevalaridagi vitamin S ning miqdori niqlanganda tajriba natijalari kutilgandan ham yuqori bo'ldi (1-2 rasmlar).

1-rasm. Biogumus qo'llanilganda meva tarkibidagi vitamin S miqdori, 100 gr/mg hisobida.



2-rasm. Go'ngi+mineral o'g'it qo'llanilganda meva tarkibidagi vitamin S miqdori, 100 gr/mg hisobida.

Yuqoridagi 1-2 rasmlar ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biogumus o'simlik mevalarining tarkibidagi vitamin S ni miqdorini ko'paytiradi, ya'ni biogumus solingan pomidor mevasida vitamin S ning miqdori go'ng+mineral o'g'it solingan mevalarga nisbatan 6 marta, kartoshkada 3 marta, bolg'ar qalampirida 2 martadan ko'proq, sabzida 5,5 marta ko'pligi aniqlandi.

**Xulosa.** Pomidorning isiqxonada yetishtiriladigan "Sonato" navi ekilgan 0,5 gektar maydonga 2,5 tonna biogumus solindi. Biogumus bilan o'g'itlangan maydonlarda

harorat kechasi 18-23°S, kunduzi 27-33°S da ushlab turildi. Nazoratda 1 m2 maydondan 9,2 kg pomidor yig'ishtirib olindi, biogumus qo'llanilgan maydondan esa 13,4 kg hosil yig'ishtirib olindi yoki nazoratga nisbatan 42 % ko'p hosil yetishtirildi. Biogumus o'simlik mevalarining tarkibidagi vitamin S ni miqdorini ko'paytirdi, ya'ni biogumus solingan pomidor mevasida vitamin S ning miqdori go'ng+mineral o'g'it solingan mevalarga nisbatan 6 marta, kartoshkada 3 marta, bolg'ar qalampirida 2 martadan ko'proq, sabzida 5,5 marta ko'pligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

- Sharma Kavita , Garg V.K. Vermicomposting of Waste: A Zero-Waste Approach for Waste Management. Sustainable Resource Recovery and Zero Waste Approaches. 2019, Pages 133-164.
- Дарвин Ч. Образование растительного слоя деятельностью дождевых червей и наблюдения над их образом жизни. – СПб., 1882.
- Edwards C. 29 March 2004. The Importance of Earthworms as Key Representatives of the Soil Fauna. DOI:10.1201/9781420039719-8 Corpus ID: 221254844
- Высоцкий Г.Н. Дождевой червь (1900). Избранные сочинения. Т. – М.: АН СССР, 1962. с. 19-28.
- Гиляров М.С. Особенности почвы как среды обитания и её значение в эволюции насекомых. – М.-Л.: АН СССР, 1949.
- Гиляров М.С., Кривошук Д.А. Жизнь в почве. – М.: Мол. Гвардия, 1985.
- Гайнуллин Р.М. Влияние возрастающих доз биогумуса на продуктивность озимой пшеницы и гречихи на серых лесных почвах Предкамья. Дис. на соискание учёной степени кандидата с/х наук. Казань, 2002. 172 с.
- Романенко Е.С. Экологические аспекты получения и комплексного применения биологически активных препаратов-стимулятора роста растений и биогумуса. Диссертации на соискание учёной степени кандидата сельскохозяйственных наук. Ставрополь 1999. 158 с.
- Atik A (2014) Effect of different concentrations of vermicompost (Biohumus) on the root collar diameter and height growth in the seedlings of Anatolian Black Pine. J For 1(2):29–36
- Veneranda S., Agnese Қ., Gederts I., Ieva K., Māra V. Effect of Vermicompost Doses on Cannabis Sativa Photosynthesis-Related Parameters, Growth and Yield. Environment. Technology. Resources. Rezekne, Latvia Proceedings of the 13th International Scientific and Practical Conference. 2021. Volume 1, 237-243
- Ivanka T. Effect of the Genotype, Vermicompost Type and Dosage on Tomato Growth and Nutrient Uptake at Nursery Stage. International Journal of Agriculture Innovations and Research. 2014. Volume 3, Issue 3. pp.761-769
- Sinha R.K., Heart S., Valani Chauhan D.K., "Vermiculture & sustainable agriculture". American-Eurasian Journal of Agricultural & Environmental Sciences, vol. 5, issue S, 2009, pp. 1-55.
- Стрежкова М.А. Эколого-экономические аспекты утилизации промышленных отходов города на основе технологии вермикюльтивирования. Диссертации на соискание учёной степени кандидат экономических наук. Ростов-на-Дону 1999. 165 с.
- Охотников С.И. Адаптационные способности червей Eisenia foetida Sav к субстратам из птичьего помета при его утилизации. Автореферат диссертации кандидата биологических наук. Йошкар-Ола 1999. 19 с.
- Kavita Sharma, V.K. Garg. Comparative analysis of vermicompost quality produced from rice straw and paper waste employing earthworm Eisenia fetida (Sav.). Bioresource Technology. Volume 250, February 2018, Pages 708-715
- Lazcano C., Arnold J., Tato A., Zaller J.G., Domínguez J. Compost and vermicompost as nursery pot components: effects on tomato plant growth and morphology, Spanish Journal of Agricultural Research, vol. 7, issue 4, 2009, pp. 994-951.
- Theunissen J., Ndakidemi P. A., Laubscher C.P. Potential of vermicompost produced from plant waste on the growth and nutrient status in vegetable production. International Journal of the Physical Sciences, vol. 5, issue 13, 2010, pp. 1964-1973.

18. Atiyeh R., Subler S., Edwards C.A., Bachman G., Metzger J.D. Effects of vermicomposts and composts on plant growth in horticultural container media and soil. *Pedobiologia*, 44, 2000, pp. 579–590.
19. Малевич И.И. Собираение и изучение дождевых червей - почвообразователей. Москва; Ленинград:Изд-во Акад. наук, 1950. 40 с.
20. Гиляров М.С. Зоологический метод диагностики почв. – М.: Наука, 1965. 278 с.
21. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследований). Москва,Агропромиздат, 1985. 351 с.
22. Gapparov A.M., Mamadalieva F.D. Chemical composition of biohumus and the significance of its growth in the conditions of Fergana Region. *Science and innovation. Volume 1 Issue 7 September 2022.* pp. 696-702.

**Umid MENGLIQULOV,**  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti  
"Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.  
E-mail: mumid\_88@mail.ru

## ETNOMADANIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOHLARI

Annotatsiya

Dunyoda etnomadaniyatlarning tarixiy, ijtimoiy-madaniy jihatlarini, etnomadaniyat transformatsiyasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Etnomadaniyatning rivojlanishiga ijtimoiy muhit, davlat boshqaruvi, siyosiy vaziyatning ta'siri va unda aholining ijtimoiy onglik darajasini aniqlash, madaniy o'ziga xoslikni saqlash, yo'qolgan yoki asta-sekin «erib borayotgan» an'analar va xalqlar madaniyatining tarixiy zanjirlarini qayta tiklash, etnomadaniyatni asrash orqali megatsivilizatsiyada milliy identifiklikni saqlashga oid ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirishga ehtiyoj oshmoqda.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, etnomadaniyat, etnos, qadriyat, urf-odat, millat, jamiyat.

Etnik guruhlar va etnik madaniyatni, ularning ijtimoiy-madaniy dinamikasi va urf-odatlarini o'rganishning dolzarbligi zamonaviy dunyoda etnik guruh mavjudligi bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjudligidan kelib chiqadi. Yer yuzidagi har bir shaxs u yoki bu etnik guruhga mansub bo'lib, etnik madaniyatning tashuvchisi hisoblanadi. Bugungi kunda etnik kelib chiqishga asoslangan eng murakkab va keskin ziddiyatlarni kuzatish mumkin.

Etnomadaniyatlarning yo'qolib ketish xavfi va an'anaviy madaniyatni qayta tiklashning iloji yo'qligi to'g'risida ko'p fikrlar mavjud. Bu etnik madaniyat va uning tashuvchilari mavjudligida aks etadigan barcha masalalar majmuasi emas. Etnosni o'rganishdagi qiyinchiliklar ushbu hodisani turlicha talqin qilishning mavjudligidadir.

Etnik madaniyat - bu umumiy kelib chiqishi va birgalikda yashashi bilan bog'langan (ta'bir joiz bo'lsa, «qon va tuproq» bilan birlashgan) odamlar madaniyatidir. Uning asosiy xususiyati - mahalliy cheklash, ijtimoiy makonda qattiq mahalliylikdir. Unda oila yoki mahalla darajasida avlodlar-avlodga o'tib kelayotgan an'analar, bir marta va abadiy qabul qilingan urf-odatlar kuchi ustunlik qiladi. Etnos mavjudligining zaruriy sharti bo'lgan etnik madaniyat millat mavjudligiga nisbatan shunday bo'lishni nazarda tutadi. Etnos va millatni farqlash, bu bilan etnik madaniyatni milliylikka tushirmaslik kerak [1].

Etnomadaniyatni tadqiq qilishda, dastlab, «etnos», «etnik guruh» kabi tushunchalarga oydinlik kiritib o'tish joiz. Etnos (yunoncha - «xalq»; ingl. - ethnos; nem. - Ethnos) - tabiiy-tarixiy jarayonlar natijasida tarkib topgan kishilar guruhidir [2]. Etnos so'zi xalq atamasining sinonimi bo'lib, tarixiy kelib chiqishi bir bo'lgan, bir hududda yashaydigan, yagona til va madaniyatga ega bo'lgan, xo'jalik-madaniy tiplari bir bo'lgan odamlar jamoasidir. «Etnos» so'zi XIX asr oxiridayoq turli xil ma'nolarda ishlatila boshlandi. Masalan, L.G.Morgan «etnos» so'zini insoniyat rivojlanishining ma'lum bir dastlabki bosqichi sifatida qo'llaydi.

Ilm-fanda keltirilgan «etnos» tushunchasining nazariyalari, yondashuvlari va tushunchalarining tahlili ushbu ko'p qirrali hodisani to'liq tavsiflashga imkon beradi. Birinchi marta «etnos» tushunchasi 1923 yilda rus olimi S.M.Shirokogorov tomonidan ishlatilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. U etnosning jadal rivojlanishini amalga oshiruvchi barcha komponentlarning (madaniy, ijtimoiy-psixologik, biologik va boshqalar) sintezini aniqlashga harakat qildi.

L.N.Gumilev «etnos» tushunchasiga ba'zi xususiyatlarni kiritdi. U etnosning mavjud bo'lishi va rivojlanishiga imkon beradigan xususiyatlarni bayon qildi. Ular quyidagilarni o'z ichiga olgan: ma'lum bir hududning

hamjamiyati, yagona landshaft va ushbu hududda yashovchi aholi xulq-atvorining shakllangan modeli [3]. L.N.Gumilev ochiq tizimlarning umumiy nazariyasini etnosferaga tatbiq etdi. Bunda tadqiqotchi etnosning biologik asoslariga e'tibor qaratadi. Ushbu holat etnik guruhni o'zini o'zi anglashi uchun muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, etnik hamjamiyat - bu etnos ichida nikoh tuzish orqali rivojlanib, tarjima funksiyasini bajaradigan ijtimoiy organizm, ya'ni, tili, madaniyati, urf-odatlarini, xatti-harakatlarining etnik modeli va boshqalarni yangi avlodga o'tkazadi [4].

Y.Bromleyning qarashlari esa etnosning dualistik nazariyasi bilan ifodalanadi. Unga ko'ra etnos tor va keng ma'noda talqin qilinadi. Birinchi holda, etnos «etnikos» deb nomlangan boshlagan va umumiy til, madaniyat va o'z-o'zini anglash bilan birlashtirilgan jamoat sifatida tavsiflangan. Keng ma'noda hududiy va siyosiy xususiyatlarning parametrlariga qo'shimcha qilishni nazarda tutadi [5]. Keng ma'nodagi etnos yoki etnojtimoiy tuzilmaga ta'rif berar ekan, Y.V.Bromley shunday yozadi: «Etnik ko'rinishni ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan mustahkam aloqadorligini alohida ta'kidlash kerak, chunki ular o'zaro bog'liqdir. Etnos agar yagona (umumiy) bir davlat tarkibida mavjud bo'lsa, ushbu o'zaro aloqadorlik yanada muhimdir. Bu holatda tarkib topayotgan o'ziga xos tuzilma nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy umumiylikka ham ega bo'ladi». Umuman olganda, Bromleyning fikricha, etnos - aniq bir hudud, til, kelib chiqish, madaniyat umumiyligi, o'z-o'zini etnik anglash va o'z etnik nomi (etnonimi)ga hamda o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhidir» [6]. Uning ta'kidlashicha, etnos irq emas va har bir etnosning tarkibida ikki yoki undan ortiq irqalar mavjud.

S.V.Luriye ham etnosga tegishli ta'rif beradi: «Etnos - bu dunyodagi inson faoliyatining xususiyatini belgilaydigan o'ziga xos madaniy modellar bilan ajralib turadigan va har bir jamiyat uchun uzoq vaqt davomida, shu jumladan, katta ijtimoiy-madaniy davrlar davomida har bir jamiyat uchun o'ziga xos bo'lgan madaniy modellar korrelyatsiyasini saqlashga qaratilgan maxsus qonunlarga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy hamjamiyatdir». Ushbu ta'rif etnik madaniyatni birlashtirish va parchalanishdan himoya qilishga qodir tuzilma sifatida ifodalaydi.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, «etnos» termini maxsus adabiyotlarda paydo bo'lganiga garchi ancha vaqt bo'lgan bo'lsa-da, lekin alohida kishilar guruhini anglatuvchi ibora tarzida faqatgina XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran etnogenez va etnik tarix, umuman etnik jarayonlarga qiziqishning kuchayishi natijasidagina yanada keng ilmiy iste'mol doirasiga kirdi» [7]. Yuqorida aytib o'tganimizdek,

etnos tushunchasi adabiyotlarda tor va keng ma'noda ishlatiladi. Tor ma'noda hudud, til, madaniyat, urf-odat, tarixiy taqdirning birligi tushunilsa, keng ma'noda yuqoridagilar bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy umumiylik ham tushuniladi. Shuningdek, O'zbekiston xalqi, Yaponiya xalqi iboralari ham ishlatiladi.

Akademik A.Asqarovning fikricha, etnos - bu biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyotida ma'lum bir bosqichning hosilasidir. Etnos o'zining shakllanish jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo'shilib boradi [8]. Bu jarayonda etnik aloqatlarining shakllanishi uzoq davom etadi. Yuqorida keltirib o'tilganidek, L.N.Gumilev esa aksincha, etnos ijtimoiy emas, balki bio-geografik hosiladir, etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi, - deb ta'kidlaydi [9].

Milliy munosabatlar tizimini o'rgangan olim A.Achilidzevning fikricha, «milliy» sifati «millat» so'zidan kelib chiqqan. Lekin «millat» tushunchasi, nafaqat muayyan etnik birlik, balki «davlat» ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, «milliy daromad», «milliy qurolli kuchlar», «milliy valyuta», «milliy kutubxona», «milliy bog'» kabi birikmalarda u «davlat»ning ma'nodoshi sifatida kelmoqda. Demak, «milliy mafkura»ni faqat bitta millat, etnosning manfaatlari bilan bog'lash to'g'ri emas. U muayyan, masalan, O'zbekiston davlati (jamiyati)ning mafkurasi ma'nosini ham anglatadi [10].

Mahalliy etnologiya «etnos» va «xalq» atamalarini bir ma'noda ishlata boshladi. Hozirgacha, kundalik hayotda ushbu tushunchalar sinonimdir. Shu bilan birga, ushbu so'zning ko'plab hosilalari har qanday etnik jamoalar va munosabatlarni tavsiflash va belgilash uchun ishlatiladi. Bularga, masalan, «etnik» tushunchasi, etnik guruhlar yoki o'ziga xosliklarning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini anglatuvchi kategoriya sifatida kiradi. Ushbu atamani tez-tez ishlatish zamonaviy jamiyatlarining ko'p millatli xususiyatini tavsiflaydi. Agar biz ushbu konsepsiyaning mazmuniga murojaat qilsak, zamonaviy etnologiyada ham uning ta'rifida yakdillikka kelishmagan.

«Etnik» atamasining o'zi fanimizga Yevropa etnologiyasi, aniqrog'i rus fanidan kirib kelgan. Yevropa fani vakillari etniklik ma'lum bir etnik guruhning madaniy xususiyatlarining majmui deb hisoblashadi. Ushbu tarkib ingliz tilida so'zlashadigan etnologiyaga xosdir. Bu yerda etnik guruh unga zid bo'lgan kengroq ijtimoiy-madaniy muhit segmenti sifatida namoyish etiladi. Ushbu xususiyatlar etnik deb ta'riflangan o'ziga xos madaniy xususiyatlarining mavjudligi bilan ifodalanadi. Aksariyat tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, etniklik o'ziga xos etnik guruh bilan boshqalardan ajralib turadigan kishilarga xosdir.

Shunday qilib, biz «etnos - bu umumiy nom va o'z-o'zini anglash (shu jumladan, umumiy kelib chiqish tarixiy afsonasi), umumiy til va madaniyat bilan birlashtirilgan va o'zini shu kabi boshqa jamoalardan ajratib turadigan ijtimoiy birlashma (kvazigrup yoki guruh)» deb ayta olamiz [11]. Agar biz etnos haqida tizim sifatida gapiradigan bo'lsak, unda, shubhasiz, xarakterli tarkibiy elementlar va aloqalar mavjud. Har qanday tizim nafaqat tarkibiy elementlarning mavjudligi, balki ular orasidagi bog'liqlikning mavjudligi bilan ham tavsiflanadi. Shu munosabat bilan etnos dinamik tizim ekanligini ta'kidlash lozim.

Rivojlanish dinamikasi va doimiy energiya va entropiya almashinuvi avloddan avlodga meros bo'lib qolgan mavjud ma'lumot zaxiralari hisobiga amalga oshiriladi. Bunday holda, an'ana tizimning ishlashi uchun muhim bo'lgan asosiy rolni o'ynaydi. U borliqning ijtimoiy va tabiiy shakllari bilan intensiv aloqada. Etnos va madaniyatning o'zaro aloqasi shuni ko'rsatadiki, madaniy tushunchalarni etnos nazariyasiga murojaat qilishi to'g'ridan-to'g'ri

bog'liqdir. Jahon amaliyotida etnos va ularning madaniyati rivojlanishining ko'plab konseptual modellari keltirilgan. Etnik madaniyat dinamikasiga oid bir qator asosiy gipotezalar asosli hisoblanadi.

Faylasuflar, siyosatshunoslar va sotsiologlar tomonidan ilgari surilgan muammolarni hal qilish ssenariylari yechimlarning muhim doirasini - muqarrar ravishda sivilizatsiyalar to'qnashuvidan (S.Xantington) ko'p qutbli dunyo qarama-qarshiligiga qadar (K.Vals) o'z ichiga oladi. Sivilizatsiyalarni rivojlantirish variantlari global o'zgarishlarni tahlil qilishga asoslangan va dunyoning yetakchi davlatlari o'rtasida dunyo resurslari, geosiyosiy ta'sir va iqtisodiy hukmronlik uchun qarama-qarshilikning muqarrarligi to'g'risidagi tezisni o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan J.K.Galbrayt ushbu hodisani yanada puxta ta'riflash zarurligiga e'tibor qaratib, mamlakatning mahalliy sharoitga moslashmagan G'arbning iqtisodiy va boshqa modellari o'zlashtirishga shoshilishi bu hodisaning obro'sizlanishiga, global o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirishga va izolyatsiya yo'lini tutishga intilishga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

E.Taylorning fikricha, «Madaniyat yoki sivilizatsiya keng etnografik ma'noda tushuniladi, bu bilimlar, e'tiqodlar, san'at, axloq, qonunlar, urf-odatlar va shaxs tomonidan jamiyat a'zosi sifatida ega bo'lgan har qanday boshqa qobiliyat va odatlarni o'z ichiga olgan murakkab yaxlitlikdir» [12]. Ayrim g'arb olimlari madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini sinonim sifatida ishlatadilar. Ammo, bu noto'g'ri. Sivilizatsiya ma'lum bir zamon va makondagi ijtimoiy taraqqiyotni, madaniyat esa inson faoliyati natijasida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni anglatadi.

Etnomadaniyatning falsafiy, ijtimoiy, tarixiy jihatlari, transformatsiyasi ko'plab o'zbek faylasuflari, tarixchi va etnograflari tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda xalq madaniyati, omma madaniyati, uchinchi, aniq bir etnos madaniyatining mohiyati (U.H.Qoraboyev) [13], etnomadaniyatning estetik funksiyalari, shakllari, turlari, uning milliy taraqqiyotdagi ahamiyati (O.Nishonova) [14], xalq madaniyatidagi an'anaviylik, tarixiylik va zamonaviylikning madaniy taraqqiyotga xizmat qilishi (U.O'tanova) [15] asoslab berilgan.

O'zbek urf-odatlari, bayram, marosim, an'alarini o'rgangan U.H.Qoraboyev: "o'zbek xalqining bayram-marosim madaniyati shu qadar boy va rang-barangki, ularni tabiat, mehnat, diniy e'tiqod, oilaviy hayot, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, san'at va sport kabi turlarga bo'lib tadqiq etish mumkin" [16], - deydi. U.Qoraboyev bayram-marosimlarni davrga ko'ra: eng qadimgi odatlar, antik davr bayramlari, o'rta asr bayramlari, XVI-XIX asr bayramlari, XX asr bayramlariga bo'lib o'rganadi. Turiga ko'ra esa, mavsumiy xalq bayramlari, oilaviy marosimlar, diniy bayramlarga bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy bayramlarni: umumxalq bayramlari, madaniy va ma'rifiy bayramlar, sport bayramlari, mehnat va tabiat bayramlariga bo'lib tadqiq etadi [17].

U.Qoraboyev xalq og'zaki ijodi xususida ham to'xtalib, shunday deydi: "Xalq og'zaki ijodining askiya, doston, mushoira, lof, kulgi-hikoya, asotir (mif), afsona, ertak, latifa; an'anaviy musiqa ijodining alla, yalla, yor-yor, alyor, terma, ashula, marosim qo'shiqlari va musiqa folklori asosida vujudga kelgan oilaviy ansambllar, folklor-etnografik guruhlar, xalq havaskorlik jamoalari; xalq teatr-tomoshha ijodining masxarabozlik, qo'g'irchoqbozlik; xalq amaliy bezak ijodining naqqoshlik, kulolchilik, o'yimakorlik, zardo'zlik, zargarlik, to'qimachilik turlarini; tabiat bilan bog'liq bo'lgan ijodning rang-barang tur va janrlari tahlili ko'rsatishicha, ular avlodlar ongini, badiiy tafakkurni, estetik qarashlarni taraqqiy ettirib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijodkorlikni rivojlantirgan, xalqni o'z tarixi va taqdiri haqida o'ylashga, bunyodkorlikka undagan. Shuning uchun ijodiy merosni tiklash va kamol toptirish xalqning

barcha ijtimoiy-madaniy sohalaridagi faolligini oshirishda muhim omil bo'ladi"[18]. Darhaqiqat, xalq ijodi mudom odamlarni izlanishga, ijodkorlikka, yetuklikka undagan. Odatda ijodkor insonni ongi ezgu g'oyalar, bunyodkorlik o'yi bilan band bo'ladi. Shuningdek, ularda estetik did, badiiy tafakkur rivojlangan bo'ladi. Qolaversa, xalq ijodi, etnomadaniy merosda yoshlarga o'rnatilgan bo'la oladigan ideallar ham mavjud. Bu haqda O.Nishonova shunday yozadi: "Etnomadaniyat – xalqning tarixiy-madaniy paradigmasidan chuqur joy olgan, uning yadrosiga aylangan, hayotiy, badiiy-estetik, falsafiy-gnoseologik, transsendental izlanishlari jarayonida shakllangan moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi. Unda nafaqat o'tmish tajribalari, kelajak haqidagi tasavvurlar, sotsium duch kelayotgan vazifalarni hal etishga yo'naltirilganlik, balki inson qalbini, ruhini go'zal tuyg'ular, estetik g'oyalar bilan boyitish maqsadi ham mujassam"[19]. O'zbek etnomadaniyatini rivojlantirishdan maqsad, nafaqat milliylikni ta'minlash, balki etnomadaniy merosdagi ideallar vositasida yoshlarni to'g'ri tarbiyalashdan ham iboratdir.

O.Nishonova etnomadaniyatga quyidagicha ta'rif beradi: "Etnomadaniyat xalqning, millatning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, turmush tarzi, tili, urf-odatlari, tashqi dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish va o'zini, o'zligini idrok etish, anglash usullari, xullas, etnosning, millatning mavjudligini ifoda etuvchi ijtimoiy voqelikdir"[20]. Darhaqiqat, etnomadaniyat ijtimoiy voqelik bo'lib, etnosning o'ziga xos moddiy, ma'naviy, maishiy va ma'rifiy boyliklarini, olamni idrok etish tajribalarini o'z ichiga oladi. O.Nishonovanning fikricha, etnomadaniyat ikki qismdan, ichki va tashqi iborat. Ichki qism etnomadaniyatning yadrosi bo'lib, deyarli transformatsiyaga uchramaydi. Tashqi qism zamonga moslashib, o'zgarib turadi, "milliy madaniyatda ikki – kunaro o'zgarib, transformatsiyaga uchrab, goho o'zini o'zi rad etib turadigan ustki qatlam va etnomadaniyatga kirgan, barqaror, muqim artefaktlardan iborat o'zak qatlam, yadro mavjud"[21]. Tashqi qismga fan, ta'lim, kiyinish madaniyati, uy-joy qurilishi, xo'jalik yuritish usuli kabilardan iborat.

U.Utanova o'zbek xalqi madaniyatining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha davrlashtiradi:

- antik davr xalq madaniyati;
- zardushtiylik davri xalq madaniyati;
- Turk xoqonligi davri xalq madaniyati;
- islom davri xalq madaniyati;
- chor Rossiyasi hukmronligi davri xalq madaniyati;
- sho'rolar davri xalq madaniyati;
- mustaqillik yillari xalq madaniyati [22].

U.Utanovanning fikricha, o'zbek xalqi madaniyatining ijtimoiy-tarixiy genezisi eramizdan avvalgi ikki minginchi yilliklarga borib taqaladi. O'tgan to'rt ming yil davomida xalq ijod qilishdan, madaniy boyliklar yaratishdan to'xtamagan [23]. O'zbek xalqining an'analarga sodiqligi tufayli hatto bosqinlar davrida ham etnik madaniyat saqlab qolingan. Shuningdek, etnik madaniyatning "ustki qatlami" tashqi ta'sirlar natijasida transformatsiyaga uchragan.

U.Utanovanning ta'kidlashicha, "Xalq madaniyati inson, xalq ekzistensial mavjudligining sharti, ijtimoiy makonidir. Ushbu makonsiz ular, ya'ni inson va xalq o'z hayotidan ma'no topa olmaydi, borliqning mohiyatini anglashga hojat sezmaydi. Insonni serhis, sertuyg'u, barkamollikka talpinib yashashga aynan xalq madaniyati chorlagan. Xalq madaniyati insonni shakllantiruvchi ijtimoiy muhitdir; u ushbu muhitni o'zlashtirib, o'rganib, o'zi ham madaniy boylik yaratib, avlodlararo munosabatlarda vorisilikni, tarixiy rivojlanishda tadrijiylikni ta'minlagan"[24]. Xalq madaniyati namunalarining muallifi ko'pincha noma'lum, noaniq bo'ladi. Jumladan, xalq og'zaki ijodining muallifi xalq

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, etnomadaniyatning u yoki bu tomonini o'rgangan olimlarning

qarashlarida katta tafovut yo'q. Etnomadaniyat tushunchasiga har bir mutaxassis o'z sohasi, tadqiqot doirasi, yo'nalishidan kelib chiqib, yondashgan.

Etnik madaniyat - bu asosan kundalik hayotga, kundalik madaniyatga tegishli bo'lgan madaniy xususiyatlar to'plami. Uning yadrosi va tashqi qismi mavjud. Etnik madaniyatga mehnat qurollari, odob-axloq, urf-odatlar, marosim va qadriyatlar, bino va inshootlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat, transport vositalari, uy-joy, bilim, e'tiqod, xalq ijodiyoti turlari va shu kabilardan iborat.

Mutaxassislar etnik madaniyatning ikki qatlamini ajratib ko'rsatadilar:

- o'tmishdan meros bo'lib qolgan madaniy elementlar asosida shakllangan tarixiy dastlabki (quyi) qismi;
- tarixiy jihatdan kech (yuqori), yangi shakllanishlardan, zamonaviy madaniy hodisalardan iborat qismi.

Pastki qatlam ko'p asrlik an'analarda mustahkamlangan eng barqaror elementlarni o'z ichiga oladi. Madaniyatning yangilanishi ekzogen (tashqi) va endogen (tashqi ta'sirsiz madaniyat ichida vujudga keladigan) bo'lishi mumkin. Endogen jarayonlar tarixan uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan va qadriyatlarini avlodlardan avlodga yetkazish mexanizmi bo'lib xizmat qiluvchi avlodlararo an'analarga tegishli hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni izohlovchi turli xil nazariyalar orasida uchta asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin. Ularning dastlabkisi tadrijiy yondashuv bo'lib, bu butun insoniyatning taraqqiyot yo'lining yagona va mushtarakligidan kelib chiqadi. Yana bir yondashuv esa aylanma yoki tamadduniy yondashuv bo'lib, insoniyat yaratgan umumbashariy madaniyatda alohida tamaddunlar, o'ziga xos madaniyatlar mavjudligiga asoslanadi. Uchinchisi, ijtimoiy-sinergetik, bir necha o'n yillar oldin paydo bo'lgan tamoyil bo'lib, u jamiyatga nisbatan murakkab chiziqli bo'lmagan o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizimlar nazariyasidan foydalanadi. Sinergetik yondashuv an'anani o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni sifatida ko'rib chiqadi, uning rivojlanishi tashqaridan emas, balki ichkaridan belgilanadi. Bu yondashuv etnomadaniy an'analarni geografik, tarixiy va iqtisodiy sohalarining birligi va o'zaro ta'sirida ko'rib chiqishga imkon beradi. Etnomadaniyatning moddiy, ma'naviy va badiiy sohalarini rivojlantirishning notekisligi ushbu madaniyatning o'ziga xosligini shakllantiradi. Bu nazariyalarning barchasi ijtimoiy-madaniy jarayonlarning fazoviy-zamoniy talqiniga taalluqlidir. Ijtimoiy-madaniy dinamikaga aniqlangan uchta yondashuv juda shartli bo'lib, ular xalqlar yoki madaniyatlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni anglatmaydi, aksincha, ular bir-birini to'ldirishga mo'ljallangan. Ularning farqlari madaniyatni o'rganish asosidagi metodologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, tadqiqotchilar tayanadigan ijtimoiy jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq [25].

Shuningdek, mutaxassislar etnomadaniyatni tadqiq etishda bir nechta usullarni ham taklif etadilar. Masalan, strukturaviy-funksional usul, aksiologik usul, qiyosiy tahlil usuli shular jumlasidandir. Strukturaviy-funksional usul bilan etnomadaniyatning asosiy funksiyalari, marosim, urf-odat, ijtimoiy aloqa, transformatsiya, moslashish va boshqa munosabatlar o'rganiladi. «Etnik jarayonlarni tadqiq qilishda funksionalizmni farqli xususiyati shundan iboratki, mazkur yo'nalish tarafdorlari madaniyatni o'zaro aloqador, umumlashgan xususiyatlardan tashkil topgan, deb hisoblaydilar. O'z navbatida shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, funksionalizm tarafdorlari uchun madaniyatning tarixiy o'zgarishi muammosi muhim ahamiyat kasb etmagan» [26]. Aksiologik usul bilan etnomadaniyatning har bir qirrasini, uni tashkil etuvchi elementlarni qadriyat sifatida ajratib o'rganish mumkin. Masalan, surxon etnomadaniyatining har bir tarkibiy qismi, surxoncha raqs yoki hunarmandchilik buyumlari, surxoncha liboslar, baxshichilik san'ati kabilardan alohida

qadriyatlar sifatida ko'riladi. Zamonaviy sivilizatsiya sharoitida etnomadaniyatlar oldida paydo bo'lgan muammolarni zamonaviy insonning boshlang'ich qadriyatlarini konseptual falsafiy tahlilisiz, uning ehtiyojlarini tanqidiy o'rganmasdan, o'z-o'zini anglash yo'llarini, o'zi yaratgan madaniy qadriyatlarga munosabatini anglash shakllarisiz hal qilib bo'lmaydi. Bu muammolarning asosiy mohiyati inson bo'lib, tobora ko'payib borayotgan, shu jumladan global xarakterdagi muammolarni hal qilish uchun o'z imkoniyatlarini zamonaviy dunyoda qayta ko'rib chiqishga kuch topishi kerak. Qiyosiy tahlil usuli surxon etnomadaniyatida faqat shu etnomadaniyatga xos bo'lgan va universal, jahon madaniyati boyligiga aylangan etnomadaniy unsurlarning o'ziga xosligini kashf qilish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviy sohadagi etnomadaniy qadriyatlar nafaqat milliy qadriyatlarni, o'z navbatida ulkan intellektual boyluk va umuminsoniy qadriyatlarni ham rivojlantirishning muhim manbaidir, Etnik madaniyatlarining rang-barang palitrasini hududiy o'rganish eng muhim vazifalardan biridir. An'anaviy etniklikdan sivilizatsiya darajasiga keskin o'tishni boshlagan zamonaviy

etnomadaniyatlarining rivojlanishi va faoliyati muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Etnomadaniyatni shaxslararo, millatlararo, madaniy-sivilizatsion o'zaro aloqalarni o'rganish uchun maqbul model sifatida ko'rib chiqish global darajadagi nazariy va uslubiy muammo hisoblanadi. Etnomadaniyat birinchi navbatda etnik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan madaniy elementlar va tuzilmalar to'plami sifatida namoyon bo'ladi. Etnomadaniyatni o'zaro ta'sir qiluvchi kanal sifatida ko'rib chiqish, o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonida amalga oshiriladigan etnomadaniyat funksiyalarini aniqlashga imkon beradi.

Xulosa shuki, hozirgi kunni madaniy anglash va kelajakni bashorat qilish o'tgan sivilizatsiya natijalariga murojaat qilmasdan mumkin emas. Aynan o'tmish bilan o'zaro bog'liqlikda jamiyat eng muhim mezonni topadi, busiz u mavjud bo'lolmaydi. Tarixga murojaat qilmaslik har bir jamiyat uchun o'zini har doim nol sikldan boshlash xavfini tug'diradi, hayotning o'tgan davrlarini qayta-qayta takrorlayveradi. Pirovardida, bu jarayon umumiy insoniyat sivilizatsiyasiga hissa qo'shadi, milliy jihatdan maxsus va universallikni sintez qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Культурология. Учебное пособие // Под редакцией доц. Н.Н. Фомина - СПб: СПбГУ ИТ-МО, 2008. -С.32.
2. Краткий этнологический словарь. -М.: фонд "Социальный мониторинг", 1995.
3. Гумилёв Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. -М.: Мысль, 1991.
4. O'sha manba.
5. Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса. -М.: Наука, 1983. -С.4.
6. Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса. -М., 1983.
7. Этнология. Учебник для высших учебных заведений. Под ред. А.П Садохина. - М., 2000. -С.78.
8. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari // O'zbekiston tarixi. -Toshkent, 2002. -№4. -B.54-60.
9. Гумилев Л.Н. Этносфера: История людей и история природы. -М., 1993. -С.41.
10. Achilidiyev A.S. Milliy istiqlol g'oyasi - millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili: Fals. fan. dok. ...dissert. - Toshkent, 2004. -B. 56.
11. Сорвин К.В., Сусоколов А.А. Человек в обществе. Система социологических понятий в кратком изложении: учебник для старшеклассников и студентов младших курсов. 3-е изд-е. -М.: Русская панорама, 2011. -С.168.
12. Культурология: учебник / Т. Ю. Быстрова [и др.] ; под общ. ред. канд. ист. наук, доц. О. И. Ган. - Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. -С. 14.
13. Қорабоев У. Этнокультура (Традиционная народная культура). - Ташкент: Шарк, 2005. - С. 22-23.
14. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari: Fals. fan. dokt. ... dis. -Toshkent: O'zMU, 2016. -B.28.
15. Utanova U.A. Mustaqil O'zbekistonda xalq madaniyatining ravnaqi (falsafiy-madaniy yondashuv): Fals. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent, 2008. - B. 15.
16. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. -Toshkent: Sharq, 2002. -B. 13.
17. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. -Toshkent: Sharq, 2002. -239 b.
18. Usmon Hosil. Odatnoma. -Toshkent: O'zbekiston, 2018. -B.174-175.
19. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari: Fals. fan. dokt. ... dis. -Toshkent, 2016. - B.28.
20. Nishonova O. Etnomadaniyat. Toshkent: O'zMU, 2022. -B. 6.
21. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari: Fals. fan. dokt. ... dis. -Toshkent, 2016. - B.132.
22. Utanova U. Mustaqil O'zbekistonda xalq madaniyatining ravnaqi: Fals. fan. nom. ... dis. avtoref. -Toshkent, 2008. -B.15.
23. O'sha joyda.
24. O'sha manba. -B.16.
25. Культурология: учебник / Т. Ю. Быстрова [и др.] ; под общ. ред. канд. ист. наук, доц. О. И. Ган. - Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. -С. 36.
26. Tursunov N.N. Janubiy O'zbekiston aholisining moddiy madaniyatidagi transformatsion jarayonlar: Tar. fan. dok. (DSs) ... dissert. -Toshkent, 2021. -B. 23.



*Nazakat MIRKOMILOVA,*  
*Student of Tashkent State University of Economics*  
*E-mail: mirkomilova.nazokat@mail.ru*

*Senior teacher of TSUE: Eshmatova Yulduz (Pgd)*

## PRIORITIES FOR ENSURING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION

Annotation

The article outlines the priorities for the systematic reform of higher education, raising the process of training highly qualified personnel with modern knowledge and high spiritual and moral qualities, independent thinking to a qualitatively new level, modernization of higher education, development of social sphere and economic networks based on advanced educational technologies. In this regard, it postulates the selection of students on the basis of their abilities and predispositions towards scientific research in order to promote holistic learning and intellectual development among students.

**Key words:** Competitiveness, behavioral aptitude, scholastic execution, technical foundation, higher education, innovation.

**Introduction.** Higher education has been growing in popularity and demand, but it's been difficult to keep up with the demand. Some ideas include creating incentives for quality and more efficiently prioritizing state resources for higher education. The availability of education is considered vital for the overall progress and development of a nation. Therefore, it is essential to ensure that education is accessible to all individuals regardless of their social, economic or personal circumstances. The concept of competitiveness has been extensively studied in academic literature, and refers to the ability of an individual or a firm to compete effectively in a given market. This includes factors such as pricing strategies, product quality, marketing campaigns, customer service, and innovation. Strong competitiveness can lead to increased market share, profitability, and overall success.

Hypothesis of Instructive Efficiency by Walberg [1. 96p.] decided three bunches of nine components based on emotional, cognitive and behavioral aptitudes for optimization of learning that influence the quality of scholastic execution: Inclination (capacity, improvement and inspiration); instruction (sum and quality); environment (domestic, classroom, peers).

At the same time, according to the results of the study of the state of the higher education system by the Working Group established by the decree of the president of the Republic of Uzbekistan No. F-4724 of October 8, 2016, a number of higher education institutions still have low scientific and pedagogical potential, the provision of educational processes with information and methodological and educational literature does not meet [1].

Attitude change impacts vocational training content; practical knowledge of educational environment crucial for task-solving. The research on vocational education focuses on several approaches to professional training. A future specialist needs not only knowledge of psychology and techniques but also developed consciousness and culture. The personal module is important for training. The educational process should form the necessary knowledge and skills for the student. [2]

**Method.** In the context of the new Uzbekistan, it is deemed significant to reinforce the material and technical foundations of tertiary education establishments, augment their scientific and methodological proficiency, and advance research endeavors within the higher education system. Considerable emphasis was placed on enhancing the integration of tertiary education establishments with academic scientific domains, augmenting the efficacy of scientific endeavors of the educators, and encouraging substantial

participation of proficient students in scholarly pursuits. Considerable efforts have been devoted to enhancing the education system across various tiers, encompassing the enhancement of tertiary and secondary specialized education, the advancement of scientific studies, and the adoption of cutting-edge pedagogical structures and technologies.

Challenges in higher education include: 1) Entrance exams not optimized; 2) Standards not based on foreign experience, too many non-specialty subjects, and difficulty acquiring full knowledge; 3) Insufficient material and technical base, lack of attention to new institutions and repairs; 4) Delays in using interactive and innovative technology. Traditional education teaches students to only acquire ready-made knowledge, causing an increase in red tape and neglect of credit-module education. [3]

Nowadays, things are changing quickly in the country. This means we need to make changes to higher education too. We should make the facilities and tools better, and the teaching should be even better quality. We should also try to get more people to go to university.

The statistics show that in Uzbekistan, only 163 people out of every 1,000 who are over 25 years old have gone to college. Only a small amount, 12%, of all people in the country have a higher education. When we look at the numbers of Central Asian countries, we can see that their numbers are higher than this one. In 2017, Kazakhstan had over 17 million people. There were 122 universities with over 496,000 students. Kyrgyzstan has over 7 million people and there are 56 universities there. These universities have more than 230,000 students. In Uzbekistan, there weren't many universities for the 32 million people living there. Only 81 universities, 15 regional branches, and 7 foreign branches were available in 2017. At the end of 2016, there were 260,905 students in total. Based on the information from that time, Z. Saipov talks about something interesting by showing graphs that tell us how many people in Central Asia and Afghanistan have gone to college. The report says that Kazakhstan has the most coverage for higher education at 54%. Kyrgyzstan has 41% coverage. Uzbekistan and Afghanistan have 10% coverage, and Turkmenistan has 8% coverage [4].

The year 2018 witnessed an expansion in collaborative endeavors with esteemed international institutions of higher learning. In the year 2019, concrete steps were undertaken to initiate the establishment of departments and affiliated institutions with universities located in Russia, South Korea, the United States, Germany, and Italy. The prospects for undergraduate and postgraduate students to pursue further

academic pursuits overseas have been broadened. Greater levels of education and qualifications among professionals in society are conducive to accelerated and enhanced developmental outcomes. In the year 2018, an aggregate of thirteen novel higher education establishments is scheduled to commence their operations within the national territory, encompassing the International University of "Silk Road" Tourism in Samarkand, the Almalyk branch of the "National Technological Research" University of the Russian Federal State Autonomous University, and the Puchon University of South Korea in Tashkent[2].

The "Concept of Developing the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030" was recently approved through the issuance of a presidential decree by the President of the Republic of Uzbekistan on October 8, 2019. The primary objectives of the systemic restructuring of higher education as articulated in this Concept pertain to elevating the training of proficient personnel with contemporary knowledge and elevated moral and ethical standards to a markedly superior level. Additionally, the modernization of higher education, identification of strategic objectives for fostering advancement in the social sphere and economy, and utilization of pioneering educational technologies are underscored as fundamental components of this reform initiative [5].

In order to address the initial research inquiry, we have employed the findings from the quantitative components of the preliminary survey. The findings exhibited considerable ambiguity, suggesting that additional variables contributed to the impact of the swift digital transition on digital learning. Subsequently, attention is directed towards the nuanced outcomes achieved through the interviews, aimed at addressing the second research inquiry's intricacies. This inquiry extends towards unveiling supplementary elements, furnishing exhaustive narrations on the effects of swift alterations on pupils and personnel, and the involvement of educational establishments and higher education frameworks in shaping these events. The results of the ultimate survey reflected the previously discovered data throughout all geographical areas and also offered further insight into the potential of digital education.

Due to the unique commencement positions, contextual limitations, and requisites of diverse institutions, a universal solution for digital learning implementation does not exist. Diverse manifestations of challenges related to digital learning were observed during our study. Nonetheless, we discovered that certain overarching themes recurred across diverse contexts. The data at hand exhibit a lack of clustering based on the categorization of Higher Education Institutions (HEIs) or geographical regions.

11-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-201-son qarori qabul qilindi, Ularning amaliy ahamiyati O‘zbekiston sportchilarining erishayotgan yuqori natijalari hamda xalqaro talablarga javob beradigan sport inshootlari barpo etilishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda[3,4].


**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavjud ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda 2022-yil holati bo‘yicha jami 367 dan ortiq bolalar va o‘smirlar uchun sport maktablari va kollejlarda faoliyat yuritmoqda[5,6].



1–264 ta Bolalar va o'smirlar sport maktablari; 2–4 ta Olimpiya zahiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari; 3–54 ta Ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari; 4–11 Oliy sport mahorati

maktablari; 5–18 ta Sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab internatlar; 6–15 ta Olimpiya zahiralari kollejlari.

1-rasm. Respublikadagi sport maktablari.



2-rasm. Sport maktablari viloyatlar kesimida.

Yoshlarga berilayotgan bunday imkoniyatlar juda ham unimli foydalanayotgani esa hammani birdek xursand qilmoqda. Buni natijalardan ham ko'rishimiz mumkin. Yurtimiz vakilari so'ngi 2018-yilgi Osiyo o'yinlarida jami 70 ta, jumladan 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza medalini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 5-o'rinni egalagan edi. Joriy yilning o'tgan davrida esa xalqaro musobaqalarda jami 442 ta, jumladan 145 ta oltin, 134 ta kumush va 163 ta bronza medali qo'lga kiritildi[6,7].

2022-yilda Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilishi kerak bo'lgan yozgi Osiyo va Paraosiy o'yinlari 2023-yilning sentyabr oyida o'tkazilishi rajalashirilmoqda. Ushbu musobaqaga tayyorgarlik jarayoni amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, aholi yashaydigan joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, hamda sport uskunalar va jihozlari bilan ta'minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida, 2002-yilda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi jo'qori kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mintaqaviy filiallar xomiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar[8].

Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida, "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" 2003-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mamlakatda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasini belgilandi. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda[6,9].

Istedodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo'yicha uzluksiz tizim yaratildi. Umumta'lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg'ulotlarda qobiliyati ko'zga tashlangan o'g'il-qizlar bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport kollejlari olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2016-yili Braziliyada o'tgan Olimpiya o'yinlarida 13 ta, Paralimpiya o'yinlarida 31 ta medalga sazovor bo'lib, yurtimiz sporti tarixidagi eng yuqori natijalarga erishdilar.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori sohadagi yana bir muhim hujjat bo'ldi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Dasturda 2017-2021- yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstrukciya qilish, kapital tamirlash, jihozlash va qayta jihozlash nazarda tutilgan[2,3,10].

Respublika aholisini ommaviy sportga jalb etish uchun 2021 yil mobaynida 110 mingdan ortiq ommaviy sport tadbirlari tashkil etilib, aholining 26,7 foizi jalb qilingan bo'lsa, 2022 yil yakuniga qadar ushbu ko'rsatkichni 33 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, mahalla aholisini doimiy ravishda ommaviy sportga jalb etish maqsadida yugurish, stritbol, mini-futbol, badminton, voleybol, basketbol, stol tennis hamda boshqa sport turlari bo'yicha ommaviy sport musobaqalari o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. 2022 yilning birinchi choragida respublika bo'yicha 19 ming 756 ta ommaviy sport tadbirlari tashkil etilib, ushbu musobaqalarga 2,8 millionga yaqin ishtirokchi qamrab olingan[5,6].

Jumladan, vazirlik, idora va tashkilotlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida joriy yilning fevral oyida sport targ'ibotchilari o'rtasida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida sportning, kamondan otish, qarab

tep, badminton, mini-futbol, shaxmat, snoubord hamda tog' chang'isi sport turlari bo'yicha festival tashkil etildi.

Qayd etilganidek, so'nggi uch yilda 118 ta sport majmuasi, mahallalarda 7 mingta sport maydonchasi foydalanishga topshirildi. Bugungi kunda 3 ming 500 ta mini-futbol, 6 mingta basketbol, voleybol, 663 ta badminton maydoni, mingdan ortiq fitnes zallari mavjud. Har bir tuman va shahar markazlarida "Salomatlik yo'laklari" va velosiped yo'llari tashkil etildi. Taraqqiyot strategiyasida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini keyingi besh yilda 33 foizga yetkazish maqsadi belgilangan.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18 fevraldagi farmon va qaroriga binoan, Sportni rivojlantirish vazirligi tashkil etildi. Uning eng muhim vazifalaridan biri bolalar va yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirishdan iborat[6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 1-aprel kuni yoshlar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda Sportni rivojlantirish vazirligiga mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan birga yil davomida 6 million nafar o'g'il-qizni ommaviy sport tadbirlariga qamrab olish vazifasi qo'yildi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun mahalla, tuman, viloyat va respublika bosqichlaridan iborat ommaviy sport tadbirlari o'tkazildi. Ularni tashkil etish uchun "Yoshlar daftari" jamg'armasidan har bir viloyatga 100 million so'mgacha, g'olib va sovrindorlarni taqdirlash uchun 1 milliard so'mgacha mablag' ajratildi. Ushbu sport tadbirlarida eng yaxshi natija ko'rsatgan yoshlar tuman va shahar, viloyat hamda milliy terma jamoalar tarkibiga saralab olinadi.

Hozirgi kunda barcha sport mashg'ulotlari o'tkazish inshootlari umumiydir va barcha muhim madaniy tadbirlar birgalikda o'tkaziladi. Shu boisdan ham Sport inshootlarning joriy rejalashtirish ishlari inshootlarning funksional faoliyatini o'z zimmasiga oladi.

tashkiliy ishlar;  
o'quv sport ishlari;  
sport tadbirlar o'tkazish;  
moliya masalalarni yechish;  
jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish;  
ta'mirlash-qurilish ishlari olib borish;  
tibbiy xizmat ko'rsatish va texnika xavfsizligini tashkil etish;  
moddiy texnika bilan ta'minlashlar kiradi.

O'quv-tarbiya muassasalari tarkibida turli yoshdagi bolalar uchun o'yin maydonchalari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va reabilitatsiyasi uchun jismoniy tarbiya-sport va o'quv maydonchalari nazarda tutilishi kerak. Tomosha zallari va sport-ko'ngilochar inshootlarida nogironlar uchun o'rinlar bevosita evakuatsiya chiqishiga olib boruvchi yo'laklarga yaqin joylashishi kerak; nogironlar o'rmini joylashtirishda evakuatsiya paytida boshqa tomoshabinlar evakuatsiya yo'llari bilan to'qnashmaslik imkonini nazarda tutish tavsiya etiladi. Tomosha, sport-ko'ngilochar zallaridagi nogironlar o'rnidan favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda evakuatsiya chiqishigacha masofa 25 m dan oshmasligi kerak, bunda yo'lakning kengligi 1,2 m dan kam bo'lmasligi kerak. Kursi-aravacha yo'lining kengligi 1,6 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Sport zallari va boshqa sport inshootlarida yechinish xonalarda quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

- kiyim-kechak, qo'ltiqta'yoq yoki protezlar uchun 1,3 m dan baland bo'lmagan javonli individual shkaflar;
- yechinish uchun kengligi 0,7 m dan kam bo'lmagan, balandligi 0,5 m, uzunligi 3 m bo'lgan o'rindiqlar;
- yechinib-kiyinish uchun kabinalar (o'lchamlari 1,8x1,8 m dan kam bo'lmagan);
- kursi-aravachalarni vaqtinchalik saqlash uchun joylar (1,5x1,5 m).

Kabinalar va ochiq yechinish joylari (o'rindiqlar)ga kengligi 1,6m dan kam bo'lmagan o'tish joylaridan qulay yetib borish ta'minlanishi kerak[7].

Ommaviy sport tadbirlarida yoshlarning ishtiroki bo'yicha mahallalar reytingini ishlab chiqish, "qoniqarsiz" deb topilgan joylarga taniqli murabbiy va sportchilarni birlashtirib, sportni rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi. Bu chekka-chekka tumanlarda ham ommaviy sportni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, chekka hududlarda oqsab qolgan ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishda taniqli murabbiy va sportchilar ishtirokini ta'minlasak, yoshlarning sportga qiziqishi ortadi.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ham yoshlarni ommaviy sportga keng jalb qilish, ommaviy sport tadbirlarini muntazam tashkil etish bo'yicha aniq ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu borada hududdagi mahallalar, umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda turli tadbirlar o'tkazilmoqda[3,4,5].

Xususan, so'nggi bir yil ichida "Sportni sev, sport bilan yasha!", "Sog'lom hayot uchun 5 ming qadam", "Kim vatanga sodiq bo'lsa, Mendurman o'sha!", "Sport sog'liq garovi", "Sport bilan og'usiz hayot sari", "Yoshlar kelajagimiz" shiorlari ostida 100 dan ortiq ommaviy sport va salomatlik targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Shuningdek, "Vatan taqdiri - mening taqdirimda" mavzusida mashhur sportchi va murabbiylar, Olimpiada, jahon va Osiyo g'oliblari va sovrindorlari bilan uchrashuvlar o'tkazib kelinmoqda, zero bunday uchrashuvlar yoshlar orasida sportni targ'ib qilish, aholini sog'lom turmush tarsi bilan hayot kechirishga undaydi. Universitet atrofidagi mahallarda istiqomat qiluvchi o'quvchi yoshlarni sportga jalb qilish maqsadida 22 ta sport turidan to'garaklar ochilgan. Talabalar va mahalla yoshlari o'rtasida sportning mini futbol, voleybol, basketbol, stol tennis, qo'l to'pi, suzish turlaridan "Rektor kubogi" musobaqalari tashkil etilmoqda.

**Xulosa va takliflar.** O'zbekistonda sport ta'limi va madaniyatini rivojlantirish uchun jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, o'quv dasturlarini zamonaviy talablardan kelib chiqib yangilash, sportchilarning tayyorgarlik jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish lozim. Albatta, moddiy-texnik baza muhim. Lekin natijani iqtidorli sportchi ta'minlaydi. Bunday yoshlarni topish uchun esa kuchli seleksiya tizimi zarur.

Sportni rivojlantirish borasida nazarda tutilgan vazifalarning o'z vaqtida hayotga tadbiriq etilishi, fuqarolarga nafaqat o'z salomatliklarini mustahkamlashga, shu bilan birga, jamiyatda sog'lom turmush tarzi shakllanishiga yordam beradi.

Respublikamizda yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda sportchilarimiz turli musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib, O'zbekistonni dunyoga tanitmoqda. Ommaviy sport, ayniqsa, bolalar sportini ilmiy asosda rivojlantirish, uning tashkiliy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Jumladan, yurtimizda yosh sportchilarni jarohatlanish ehtimolini kamaytirish zamonaviy texnik uslublardan foydalanish sport amaliyotida keng qo'llanilib kelmoqda.

Ommaviy sport o'yinlar, mashg'ulotlar va yig'inlar, musobaqalar o'tkaziladigan maydonlar, sport inshootlarining favqulodda vaziyatlarga tayyorligi, sportchi va tomoshabinlarni evakuatsiya jarayonlariga tayyorlash, binolarga xavfdan ogohlantiruvchi vositalar va jihozlarning joylashtirilishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4956-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3115562>
3. Narziev S., Latibov S. Methods Of Ensuring Occupational Safety And Health In Sports //The American Journal of Engineering and Technology. – 2021. – T. 3. – №. 04. – С. 89-94.
4. Sulaymonov S., Kamilov Kh.M., Ilkhomov I.I. Results of Evaluation of Protective Equipment to Reduce the Intensity of the Electromagnetic Field in the Workplace of Operators of Video Terminals and Personal Computers // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 8, Issue 1, January 2021. P. 16490-16494.
5. Абдуллаев А. З., Юсупходжаева Э. Н. BASIC PREVENTION OF OCCUPATIONAL DISEASES TRENDS //ТесНика. – 2021. – №. 2. – С. 31-35.
6. Мамашаев Б. С. Анализ и совершенствование подготовки юных боксеров //ТЕСНика. – 2021. – №. 2 (6). – С. 36-40.
7. Shovkiddin N. et al. Provision Of Labor Protection And Analysis Of Injuries Of Active Participants //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – Т. 27. – №. 2.
8. Шукурова С. С. и др. БОКСЧИЛАР ШКАСТЛАНИШНИ БИОМЕХАНИК ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШ АСОСИДА ТАХЛИЛИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 1795-1801.
9. Narziev S., Sulaimanov S. To the investigation of the tension of the inter-cracked ligaments knee joint //International Journal of Research Available at <https://> – 2019. – Т. 6. – №. 01. – С. 731-735.
10. Shovkiddin N. et al. Provision Of Labor Protection And Analysis Of Injuries Of Active Participants //Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021. – Т. 2021.

*M. A. NE'MATILLOYEVA,*  
*O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi*

## IJTIMOYIY ISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARBLIGI HAMDA UNING MILLIY VA JAHON TAJRIBASIDAGI ZAMONAVIY USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy ish sohasining bugungi jamiyatda tutgan o'rnini, ijtimoiy sohaning va bu sohada kadrlarni tayyorlashning qay darajada muhimligi, rivojlanayotgan ilm – fanda ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlashning zamonaviy trendlari va usullari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy ishchilar Milliy Assosatsiyasi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari, raqamli va texnologik ishlanmalar, ko'p madaniyatlilik va xilma – xillik bo'yicha trening, tajribali ta'lim, madaniy kompensatsiya, eksperimental o'rganish.

Ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlash va ularni o'z kasbining mutaxassisi sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Ijtimoiy ishchilar Milliy assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy ish – bu shaxslarga, oilalarga, guruhlar va jamoalarga ularning farovonligini oshirishga, qashshoqlikni yengillashtirishga va odamlarga o'zlarining to'liq salohiyatiga erishishga yordam berishga bag'ishlangan kasb. Munosib yetishtirilgan ijtimoiy ishchi bu maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning bir qancha sabablari mavjud. Birinchidan, jamiyat tengsizlik, ajratish va kamsitish kabi murakkab ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda, ularni hal qilish uchun maxsus bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Malakali mutaxassislar bu kabi muammolarni hal qila olishi va samarali yechimlarni taqdim etishi kerak. Ikkinchidan, ijtimoiy ish tez rivojlanayotgan sohadir va ta'lim olayotgan bo'lg'usi ijtimoiy kadrlar sifatli xizmatlarni taklif qilish uchun so'nggi tadqiqotlar, nazariya va eng yaxshi amaliyotlar bilan tanishtirilib turishlari kerak. Va nihoyat, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislar turli xil ehtiyojlar, madaniyatlar va kelib chiqishi turli xil bo'lgan aholiga duch kelishadi va adolatli va munosib xizmatlarni taqdim etish uchun madaniy jihatdan vakolatli bo'lishlari kerak.

Yevropada Ijtimoiy ish ta'limi jurnalida chop etilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sifatli ta'lim tinglovchilarning bilimlari, ko'nikmalari va munosabatlarini yaxshilaydi, bu ularning xizmat ko'rsatishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ijtimoiy ish maktablari assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy ishchilar o'rtasida yuqori darajadagi ta'lim mijozlar bilan munosabatlarda yaxshi natijalarga erishilishiga sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ijtimoiy ish sohasida zamonaviy amaliyotlarni takomillashtirishga intilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy ish xizmatlarini takomillashtirishga katta kuch sarflanmoqda va bu aniq natijalarni bera boshladi.

Islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri guruhlarining xilma – xilligi va ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda aholi farovonligini ta'minlaydigan barqaror ijtimoiy ish tizimini yaratishdir. Tizimni sifatli tashkil etish va takomillashtirishda eng asosiy omillardan biri bu Ijtimoiy ishda ta'lim islohotlaridir.

O'zbekistonda ijtimoiy sohada malakali kadrlarni tayyorlashda qator islohotlar olib borilmoqda. O'zbekistondagi universitetlar, kollejl va kasb – hunar muassasalari ijtimoiy sohaga qiziqqan yoshlar uchun ijtimoiy ish bo'yicha treninglar tashkil etmoqda. Milliy o'quv dasturi ijtimoiy ishchilarni samarali ijtimoiy ish amaliyoti uchun zarur bo'lgan muhim bilim va vositalar bilan ta'minlab kelmoqda. O'zbekiston Milliy Universitetida, Farg'ona Davlat Universitetida va Samarqand davlat universitetida Ijtimoiy ish

kafedrasini tashkil etilgan bo'lib, joriy yildan Buxoro Davlat Universitetida ham Ijtimoiy ish kafedrasini o'z faoliyatini boshladi. Yuqorida tilga olingan ta'lim muassasalarida ijtimoiy ish kadrlari yuqori salohiyatda tarbiyalanmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlashning bir qancha yangi trendlari mavjud. Jumladan:

1. Eksperimental o'rganishga urg'u: Ijtimoiy ish ta'limi bo'yicha Kengash ma'lumotlariga ko'ra, tajribaviy ta'lim ijtimoiy ishda kadrlar tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. Journal of Social work Education jurnalida chop etilgan tadqiqotda, tajribali o'quv faoliyatida ishtirok etgan ijtimoiy ish talabalari nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish qobiliyatining yuqori darajasi va salohiyatiga ega ekanliklari haqida xabar berishdi.

2. Texnologiyani qamrab olish: Ijtimoiy ishda texnologiyalardan foydalanish tobora keng tarqalmoqda. Journal of Technology in Human Services jurnalida chop etilgan tadqiqotda, texnologiyani takomillashtirgan ijtimoiy ish talabalari o'z amaliyotida texnologiyadan foydalanish bo'yicha qabul qilingan vakolatlar haqida aytib o'tishgan.

3. Turli xillik va madaniy kompetentsiya bo'yicha trening: Madaniy kompetentsiya ijtimoiy ish amaliyotining hal qiluvchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Madaniy kompetentsiya bo'yicha ta'lim olgan ijtimoiy ish talabalari o'zlarining madaniy betarafliklari haqida ko'proq ma'lumotga ega ekanliklarini aniqlandi.

4. Fanlararo Yondashuvlar: Fanlar bo'yicha hamkorlik murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun juda muhim jarayon hisoblanadi.

5. Travmadan xabardor yondashuvlar: Travmadan xabardor bo'lgan yordam tushunchasi ijtimoiy ish sohasida katta e'tibor qozonmoqda. Journal of Social Service Research jurnalida chop etilgan tadqiqotda tadqiqotchilar travmadan xabardor bo'lgan yondashuvni ijtimoiy ish ta'limiga kiritish talabalarning travmani aniqlash tushunchasi va qobiliyatini yaxshilaganligini aniqladilar.

O'zbekistonda ham ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy tendensiyalariga ehtiyoj ortib bormoqda. Ijtimoiy ish ta'lim dasturida mamlakat duch keladigan dolzarb ijtimoiy muammolar talabalarini qondirish uchun rivojlanish muhim omil hisoblanadi.

Yurtimizda ijtimoiy ishda kadrlarni tayyorlashda jahon standartlariga mos ravishda amaly ko'nikmalarga e'tibor qaratish, raqamli texnologik ishlanmalar, ko'p madaniyatlilik va xilma – xillik bo'yicha treninglar va fanlararo yondashuv tendensiyalaridan keng va samarali foydalanib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlashning zamonaviy trendlari jamiyat talabalarini qondirishda hal qiluvchi xususiyatlardan biri

hisoblanadi. Amaliy ko'nikmalar, xilma – xillik va multikulturalizm va fanlar o'rtasida bog'liqlik kabi tendensiyalarni o'rganishni takomillashtirish O'zbekistonda ijtimoiy sohada sifatli ta'limni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda, ta'limning yangi usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Zero, to'g'ri tayyorgarlik, sifatli ta'lim bilan yurtimizdagi ijtimoiy xodimlar jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shadilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Ijtimoiy ishchilar Milliy assotsiatsiyasi: Ijtimoiy ish nima?
1. (Olingan <https://www.socialworkers.org/News/Facts/Social-Work-Facts>)
2. Bogo, M., Roulings, M., Katz, E., & Logie, C. (2014). Ijtimoiy ish ta'limini baholash: adabiyotlarni ko'rib chiqish. Ijtimoiy ish ta'limi jurnali, 50(3), 480-491.
3. Ijtimoiy ish maktablari assotsiatsiyasi. (2013). Ijtimoiy ish bo'yicha ta'lim va mijozlar natijalari: adabiyotlarning qisqacha sharhi.
4. <https://www.unhabitat.org/sites/default/files/download-manager-files>
5. Social Work Practice and Education in Uzbekistan.pdf
6. <https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1080/10437797.2010.550361>
7. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/01488376.2020.1838771>



**Shoxzodbek NE'MATOV,**  
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: nshohzodbek@gmail.com

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, t.f.f.d, U. Elmuratova taqrizi asosida

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR (HARAKATLAR STRATEGIYASI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Harakatlar strategiyasi asosida Oliy ta'lim, ilm-fan va innovatsion rivojlanish sohasida amalga oshirilgan islohotlar va undagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Unda 2017-2021 yillarda sohaga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlarining ijrosi, ta'lim muassasalarining moliyaviy holati, moddiy-tehnika bazasi, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati bilan bog'liq o'zgarishlarning statistik tahlili yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Harakatlar strategiyasi, Oliy ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, kadrlar tayyorlash, infratuzilma, innovatsiyalar, ilm-fan, ilmiy faoliyat, ilmiy-tadqiqot muassasalari.

**Kirish.** Globallashtirish davrida yurtimizda yoshlarga sifatli oliy ta'lim berish, taraqqiyot bilan hamqadam bo'lib kelayotgan mutaxassislarini tayyorlash borasida bugungi kunda islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar, avvalo qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holati va moddiy-tehnika bazasini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda. 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida 12 ta Prezident farmoni, 65 ta Prezident qarori, 169 ta Vazirlar Mahkamasi qarori, 66 ta idoraviy hujjatlar, 1 ta qonun, jami 313 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zolari hamda yetakchi olimlar bilan bo'lib o'tgan yig'ilishda "... hurmatli ziyolilarimiz-ilm-fan va texnika namoyondalari, birinchi navbatda, qadri va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohaslarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yahshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Ana shu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni biz o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor" [1].

Ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish va kelajakda uni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilmiy-tadqiqot muassasalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni barcha sohalarga tadqiq qilishni rivojlantirish maqsadida "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So'nggi yillardagi tadqiqotlarda, xususan, oliy ta'lim, ilm-fan va innovatsion rivojlanish sohasida R.Siddiqov, O'.Xoshimov, O'.Abdullayev, F.Atajanovning maqola va dissertatsiya ishlarida ko'rishimiz mumkin [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi tarixiylik va qiyosiylik bo'lib, mazkur masalani yoritish bo'yicha nazariy yondashuv, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlashtirish va boshqa usullardan foydalanildi. Bundan tashqari tadqiqot ishiga qo'yilgan maqsadga erishishda qabul qilingan qonunlar, qarorlar, farmonlarga asoslandi hamda soha olimlarining ta'lim to'g'risidagi fikr va mulohazalari bayon qilingan ilmiy-amaliy anjumanlar materiallaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** 2017-yilda Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida, tizimni kompleks rivojlantirishga qaratilgan 5 yillik dastur qabul qilindi va unga ko'ra bir qator oliygohlarda qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi hamda zamonaviy kompyuter, o'quv laboratoriyalar bilan jihozlandi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetining binosi yangilanib, foydalanishga topshirildi. Joriy yilda 18 ta oliygohda qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi va 70 tasi 120 mlrd so'mlik zamonaviy kompyuter, o'quv laboratoriyalar bilan jihozlandi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul 15 foizga oshirilib, Chirchiq pedagogika instituti, Toshkent agrar universitetining Termiz filiali, Toshkent texnika universitetining 2 ta mintaqaviy filiali, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona filiali tashkil etildi. Bundan tashqari Rossiyaning Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmaliq filiali, Amerikaning Webster universiteti kabi nufuzli oliygohlarning filiallarini respublikada ochish kelishuviga erishildi [3].

2017-yilda respublika ilm-fan nufuzini yuksaltirish va rivojlantirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, ilmiy-tadqiqot muassasalarining innovatsion faoliyatini va infratuzilmasini kompleks rivojlantirish 5 yillik dasturi ishlab chiqilib, ularni ta'mirlash, zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash uchun 450 milliard so'm ajratilishi rejalashtirildi. O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish vazirligi va Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Fanlar akademiyasi maqomi mustahkamlanib, uning Navoiy shahrida bo'limi ochildi va 9 ta ilmiy muassasalar qayta tiklandi. Xalqaro amaliyotga muvofiq oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tayanch doktorantura va doktorantura tizimi joriy etildi. Yuqori malakali va bilimdon o'qituvchi-pedagoglar bazasini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati hamda Astronomiya va aeronavtika bog'i tashkil etildi [4].

2017-2018 o'quv yilida yurtimizda 5 ta yangi oliy ta'lim muassasasi hamda 12 ta nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtining filiallari tashkil etildi. 2018/2019 o'quv yilidan boshlab bakalavriatga qabul kvotasi 2017/2018 o'quv yilidagiga nisbatan 20 foizga ko'payib, 80079 ta joyni tashkil qildi. Yetakchi xorijiy ta'lim markazlarida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi. 81 ta oliy ta'lim muassasasining

professor-o'qituvchilari va 136 ta ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy hodimlari tarkibining barcha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari sezilarli darajada oshirildi [5].

2019-yilning 1-yarmida xorijiy davlatlar yetakchi oliy ta'lim muassasalarining 9 ta filiali (AQSH Vebster universiteti, RF Moskva energetika instituti, Hindistonning Amity universiteti) tashkil etildi va ular 2019/2020 o'quv yilidan faoliyatini boshladi. Respublika hududlarida mahalliy oliy ta'lim muassasalarining 6 ta filiallari tashkil etildi va 28 ta ta'lim yo'nalishlarida 1025 nafar talaba qabul qilishi belgilanib, 900 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Oliy ta'lim muassasalari uchun 121533 ta qabul kvotasi belgilanib, 2018-yilga nisbatan 20 foizga oshirildi. Kadrlar buyurtmachilarining talab va takliflari asosida zamonaviy sohalar uchun bakalavriatda 40 ta yangi ta'lim yo'nalishlari, magistraturada 41 ta yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash belgilandi. Yoshlarning oliy ta'lim olish uchun imkoniyatini yanada kengaytirish maqsadida xarbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomalariga ega bo'lgan yoshlar uchun bakalavriatning barcha ta'lim shakllari bo'yicha alohida 5 foizli qabul ko'rsatkichlari tasdiqlandi. Oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy soniga nisbatan qo'shimcha ravishda "Mehribonlik" uyi va "Bolalar shaharchasi" ning bitiruvchilari bo'lgan chin yetimlar uchun 1 foizli davlat granti (1036 nafar), nogironligi bo'lgan shahslar uchun alohida ajratiladigan qabul parametrlari bo'yicha jumladan, sirtqi va kechki ta'lim shakllarida ta'lim olish huquqi berildi. Oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan olis, chekka va tog'li hududlarda joylashgan umumta'lim maktablari uchun davlat granti asosidagi qabul kvotalari doirasida maqsadli qabul ko'rsatkichlari belgilandi. Respublika oliy ta'lim muassasalarining magistraturasida tabiiy va muhandis-texnika soha mutaxassisliklari qabul ko'rsatkichlari to'liq davlat granti bo'yicha belgilandi.

Bakalavr darajasini olgan shaxslarga magistraturada mos va turdosh yo'nalishlardan tashqari boshqa mutaxassisliklar bo'yicha ham o'qishni davom ettirish imkoniyati joriy etildi. Bundan tashqari bitiruvchilarga akademik darajadan tashqari tegishli ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha kvalifikatsiya berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 55 ta qo'shma ta'lim dasturi doirasida yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashga kelishildi. Samarqand davlat universitetida "Xalqaro ta'lim dasturlari" markazi tashkil etildi hamda xorijiy xamkor oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlashga kelishildi [6].

Respublika oliy ta'lim muassasalarining rahbar hodimlari va professor-o'qituvchilar ish haqi miqdori: o'rtacha 2019-yil 1-yanvardan 20 foizga oshirildi, 2019-yil 1-iyuldan 25 foizga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 222 foizga (2,2 barobarga) ko'paydi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimidagi 18 ta oliy ta'lim muassasalarining 28 ta obektida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari uchun 353,3 mlrd.so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Buning natijasida 2220 o'rinli 2 ta o'quv korpusi, 1000 o'rinli 3 ta talabalar turar joyi yangidan quriladi, qariyb 15 ming o'rinli 13 ta o'quv binolari, 2300 o'rinli 8 ta talabalar turar joylari zamonaviy tarzda ta'mirlanib, yangidan jilozlanadi. 2019-yil 1-iyul holatiga mazkur obektlar 209,3 mlrd.so'm (64,6 foiz) miqdorida moliyalashtirilib, 246,4 mlrd.so'm qurilish-ta'mirlash (71,3 foiz) ishlari amalga oshirildi hamda 9 ta obyekt foydalanishga topshirildi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida respublikada 2016-2019 yillarda oliy ta'lim muassasalari soni 132 taga yetkazildi (2016 yilda 77 ta), ulardan 99 tasi mahalliy hamda 33 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning

filiallari hisoblanadi. Qabul kvotasi 66 mingdan 181 mingga oshirilib, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 baravarga oshirildi.

Ushbu davrda ilm-fan va innovatsion rivojlanish sohasida ham bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyani amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha innovatsion rivojlantirish maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi. Davlatimiz rahbarining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish ushbu strategiyaning bosh maqsadi etib belgilandi [7].

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "El-yurt umidi" jamg'armasi mablag'lari hisobidan xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilaridan 126 nafari stajirovka o'tash, 65 nafari doktoranturada, 17 nafari magistraturada o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi. Jahon banki krediti hisobidan esa 2019-2021 yillarda Akademik innovatsiyalar fondi tashkil etilib, mazkur fondning 4 mln dollar mablag'i hisobidan jami 32 ta loyiha, 27 ta oliy ta'lim muassasasida 6 ta fan sohalar bo'yicha innovatsion ilmiy-o'quv komplekslarni yaratish bo'yicha loyihalar o'z faoliyatini boshladi.

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakat qatoriga kirishiga qaratilgan 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi [8].

2020-yilda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini kuchaytirish bo'yicha maqsadli kompleks dastur qabul qilindi. Ushbu yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi bir qator kamchiliklarni bartaraf eta boshladi. Natijada, Global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index) hisoboti natijasiga ko'ra, respublika reytingi 131 mamlakat orasida 122-o'rin (2015), 93-o'rin (2020), 86-o'rin (2021) ni egalladi [9].

Davlatimiz rahbarining "2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi qaroriga asosan: 103575 nafar kunduzgi ta'lim shakliga, 31350 nafar sirtqi ta'lim shakliga, 5025 nafar kechki ta'lim shakliga, 10425 nafar magistratura ta'lim bosqichiga belgilandi. Shu bilan birga, qarorda:

ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini yiriklashtirish;

xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish;

profil ixtisoslashuv sohalarini kengaytirish;

OTMlarga kirish imtihonlarini optimallashtirilib 2 ta fandan o'tkazish;

Test sinovi topshirilayotgan fanlar majmuasi hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo'lgan 5 tagacha bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etish masalalari nazarda tutildi [10].

2020-2021 o'quv yilidan boshlab esa o'qish muddati 3 yil bo'lgan pedagogik ta'lim sohasining ayrim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari joriy etildi. 2021-yilda Respublikadagi 37 ta yetakchi davlat oliy ta'lim muassasalariga o'quv dasturlarni ishlab chiqish, o'qishga qabul qilish va moliyaviy masalalarni

mustaqil hal qilish huquqi berildi. OTMga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti va "Qizlar uchun maxsus stipendiya"lar joriy etildi [11].

Prezident davlat stipendiyasi kvotalari soni tayanch doktorantura va magistratura uchun ikki barobarga oshirildi. "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kirgan oilalar farzandlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun imtiyozli ravishda ta'lim kreditlarini berish tartibi belgilandi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda "Harakatlar strategiyasi" davrida ta'lim sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va u hozirgi kunda amalga oshirib kelinmoqda. Band bo'lgan aholiga oliy ma'lumot olish uchun qulayliklar yaratish maqsadida 71 ta oliy ta'lim muassasalarida sirtqi va 18 tasida kechki ta'lim shakllari yo'lga qo'yildi. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar sonining 2,2 barobarga oshishiga erishildi (agar 2016 yilda 268,3 ming talaba tahsil olgan bo'lsa, 2020 yilda 590,1 ming talaba tahsil oldi).

Mamlakat hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion rivojlanish sohasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ushbu sohani tubdan isloh qilish bo'yicha yurtimizda quyidagi tadbirlar amalga oshirildi: ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutuvchi 2017–2021 yillarda ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi. Yurtimizda innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilib, innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Mamlakatimizni rivojlantirishning asosiy omili jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti, ijtimoiy sohani isloh qilish jarayonlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa, fan va ta'lim esa mamlakatimiz iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotining ajralmas manbai bo'lib, xalq uchun munosib hayot tarzini, jamiyatni tashkil etishning demokratik tartibini, yuksak madaniyat ko'rsatkichlarini kafolatlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. 2017 йил — шиддатли ислохотлар йили. – Т.: “Адолат”, 2017. – Б. 71.
2. Хошимов Ў.К. Мустақиллик йилларида Фарғона водийси вилоятларида таълим соҳасидаги; ўзгаришлар. Тарих фан. (PhD) док. ... дис. автореф. – Тошкент, 2020; Абдуллаев Ў.Ш. Ўзбекистонда педагогик кадрлар тайёрлаш тизимидаги ютуқлар ва муаммолар (1991-2018 йй.). Тарих фан. (PhD) док. ... дис. автореф. – Қарши, 2021. Атажанова Ф.Э. Хоразмда таълим ва илм фаннинг ривожланиши (1991-2017йй). Тарих фан. (PhD) док. ... дис. автореф. – Нукус, 2021.
3. 2017 йил — шиддатли ислохотлар йили. – Т.: “Адолат”, 2017. – Б.70.
4. 2017 йил — шиддатли ислохотлар йили. – Т.: “Адолат”, 2017. – Б.71.
5. Харакатлар стратегияси билан 3 йил: қутилган натижалар, юқори самарадорлик ва юксак марралар. -Т.:2020.- Б.102.
6. Харакатлар стратегияси билан 3 йил: қутилган натижалар, юқори самарадорлик ва юксак марралар. -Т.:2020.- Б.169.
7. Харакатлар стратегияси билан 3 йил: қутилган натижалар, юқори самарадорлик ва юксак марралар. -Т.:2020.- Б.102.
8. <https://lex.uz/ru/docs/3913188>.
9. Харакатлар стратегияси билан 3 йил: қутилган натижалар, юқори самарадорлик ва юксак марралар. -Т.:2020.- Б.125.
10. 2020 йил – “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” Давлат дастури: тараққиётга елтувчи натижалар. -Т.:2020. –Б.81.
11. Харакатлар стратегияси сарҳисоби 2017-2021 йиллар. -Т.:2022.-Б.121.

*Shahinaxon NIGMATOVA,*  
*O'zbekiston Milliy Universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: nigmatovashahina@gmail.com*

## ПРОБЛЕМА МОТИВАЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ТЕОРИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

Обучение словам на английском языке, основанное на методическом подходе, сопряжено с большими трудностями. По сути, определение данной статьи заключается в выборе фактического речевого материала и его анализе, продумывании и написании плана выступления, выборе оптимальных языковых средств и стилистических приемов для реализации задуманного содержания. Это технология, более специфичная для текстовых функций, которые представлены следующим набором ключевых функций.

**Ключевые слова:** Образование, гуманитарные науки, интерес к иностранным языкам, мотивация, соответствие, целостность, завершенность, информативность, целенаправленность, адресуемость, ситуативность, интернациональность и приемлемость.

Учебная деятельность занимает практически все годы становления личности, начиная с детского сада и кончая обучением в средних и высших профессиональных учебных заведениях. Получение образования является неременным требованием любой личности, поэтому проблема мотивации обучения является одной из центральных в педагогике и педагогической психологии. Отсюда и обилие работ в этом направлении (Л. И. Божович, Й. Лингарт, Н.Г. Морозова, М. В. Матюхина, В. Э. Мильман, А.К.Маркова, Л. С. Славина, Э. Стоунс) и др.

Практическая значимость разработок в области мотивации изучения иностранного языка состоит в поиске более эффективных приемов работы, новых методов и подходов в обучении им, а также в выявлении новых источников мотивации и формулировке объективных требований к ним.

Однако, несмотря на широкий круг исследований, не все источники повышения мотивации учащихся в обучении иностранному языку выявлены полностью. Основным ключевым подходом в данном исследовании является поиск путей и новых средств, с помощью которых можно повысить уровень мотивации студентов при обучении иностранному языку.

Все вышеизложенное обусловило актуальность данной темы, и послужило причиной ее выбора. В своей работе я хочу рассмотреть понятие мотивации, ее роль при обучении английскому языку и способы ее повышения на конкретных примерах.

Мотивация – это всегда результат взаимодействия человека и ситуации, влияющий на степень его стремления и активности. Мотивация всегда эмоционально насыщена. То, к чему человек стремится или избегает, всегда вызывает у него эмоциональное отношение, является значимым и тем самым обеспечивает энергетическую мобилизацию организма на действие.

При обучении, в том числе и иностранному языку, можно выделить несколько видов мотивации. Все вместе они составляют так называемую учебную мотивацию. Учебная мотивация определяется рядом специфических факторов:

- особенностями обучающегося (пол, самооценка, уровень интеллектуального развития)
- особенностями преподавателя и его отношения к педагогической деятельности
- организацией педагогического процесса
- спецификой учебного предмета (в данном случае иностранного языка)

На основании вышеперечисленных факторов учебную мотивацию можно разделить на внешнюю и внутреннюю. Внешняя мотивация не связана непосредственно с содержанием предмета, а обусловлена внешними обстоятельствами.

Присутствие мотивационного компонента в структуре учебной деятельности говорит о том, что необходимо рассматривать мотивы учения студентов в процессе обучения. Под мотивом учебной деятельности понимаются все факторы, обуславливающие проявление учебной активности: потребности, цели, установки, чувство долга, интересы и т. п. Г. Розенфельд, выделил следующие (факторы) мотивации учения:

1. Обучение ради обучения, без удовольствия от деятельности или без интереса к преподаваемому предмету.

2. Обучение без личных интересов и выгод.

3. Обучение для социальной идентификации.

4. Обучение ради успеха или из-за боязни неудач.

5. Обучение по принуждению или под давлением.

6. Обучение, основанное на понятиях и моральных обязательствах или на общепринятых нормах.

7. Обучение для достижения цели в обыденной жизни.

8. Обучение, основанное на социальных целях, требованиях и ценностях.

Студенты наиболее высоко оценивают такие мотивы, как «хочу иметь знания, чтобы быть полезным обществу», «хочу быть культурным и развитым», «нравится, узнавать новое», «хочу продолжить образование», «хочу подготовиться к избранной профессии», «хочу радостно преодолевать трудности». Престижные мотивы («привык быть в числе лучших», «хочу быть худшим», «приятно получать одобрение», «привык все делать хорошо») получали меньшие оценки, но самые низкие оценки давались мотиву «стараюсь избегать неприятностей». В то же время первая группа мотивов скорее была известной, чем реально действующей, побуждающей к учению. В качестве таковых в реальности оказались престижные мотивы.

О мотивационной готовности студентов свидетельствуют их отношение к обучению как к серьезной общественно-значимой деятельности эмоциональная расположенность выполнять требования взрослых, познавательный интерес к окружающей действительности, стремление овладеть новыми знаниями и умениями.

Особенностью мотивации большинства является беспрекословное выполнение требований преподавателя. Социальная мотивация учебной деятельности настолько сильна, что они даже не всегда стремятся понять, для чего нужно делать то, что им велит преподаватель: раз велел, значит, нужно даже скучную и бесполезную работу они выполняют тщательно, так как полученные задания кажутся им важными. Это, безусловно, имеет положительную сторону, так как преподавателю было бы трудно всякий раз объяснять студентам значение того или иного вида работы для их образования. Они любят и уважают преподавателя, прежде всего за то, что он преподаватель, что он учит; кроме того, они хотят, чтобы он был требователен и строг, так как это подчеркивает серьезность и значительность их деятельности.

Как правило, учебная деятельность побуждается не одним мотивом, а целой системой разнообразных мотивов.

Мотив - это направленность студентов на отдельные стороны учебной работы, связанная с внутренним отношением ученика к ней.

К видам мотивов можно отнести познавательные и социальные мотивы. Если у студента в ходе учения преобладает направленность на содержание учебного предмета, то можно говорить о наличии познавательных мотивов. Если у студента выражена направленность на другого человека в ходе учения, то говорят о социальных мотивах.

У студентов появляются новые социальные установки, новые социальные мотивы, связанные с чувством долга и ответственности, с необходимостью получения образования (быть грамотным). В период возрастает число студентов, мотивирующих свою учебную деятельность чувством долга, но уменьшается число студентов, которые учатся с интересом. Однако часто эти мотивы остаются только знаемыми, декларируемыми.

Социальные мотивы учения по-разному выражены у студентов с разной успеваемостью. Как отмечает И. Ю. Кулагина, мотивы неуспевающих студентов специфичны. При наличии сильного мотива получения хорошей отметки и одобрения круг их социальных мотивов учения сужен.

У студента, с хорошо успевающих и проявляющих интерес к знаниям, «знаемые» мотивы совпадают реальными. У студента, хорошо успевающих, но без ярко выраженного интереса к знаниям, имеется неполное совпадение тех и других мотивов. У них доминируют мотивы: «получения отметки», «похвала» и «требование».

Поскольку мотивация – явление многогранное, то содержание обучения должно включать в себя целый комплекс средств для ее поддержания. В системе обучения иностранному языку как иноязычной культуре в первую очередь важны средства поддержания мотивации к познавательной, развивающей и воспитательной деятельности, что в конечном итоге вызывает у изучающего иностранный язык коммуникативную мотивацию.

В общей структуре мотивации доминирующим является основной мотив, определяющий учебную деятельность и формирование отношения к ней. Это познавательный мотив, так как в его основе заложено постоянное стремление к познанию; а также имеет место связь с содержательной и организационной стороной самой учебной деятельности. В процессе учебной деятельности начинают действовать и возникающие частные мотивы, руководящие постановкой, принятием и решением отдельных задач для достижения конкретных

целей обучения иноязычному речевому общению. Познавательные мотивы в овладении иностранным языком дифференцируются следующим образом: интерес к иностранному языку как таковому способствует формированию мотивов к анализу языковых явлений, всевозможным по форме и содержанию занятиям с иностранным языком, к развитию лингвистического мышления; возможность использования иностранного языка как средства обмена информацией, получения знаний с его помощью, изучение культуры, истории, развития и действительности страны изучаемого языка, расширение кругозора формирует мотив отношения к иностранному языку как необходимому средству познавательной деятельности.

Мотив избегания неудачи присущ как хорошо успевающим, так и плохо успевающим студентам, но к окончанию последних он достигает значительной силы, так как мотив достижения успеха у них практически отсутствует.

Хорошо успевающих студентов привлекают разные, в том числе самые сложные учебные предметы, отстающие же проявляют интерес чаще всего к наиболее легким, с их точки зрения.

Неуспевающие студенты ориентируются на процесс выполнения отдельных, частных действий и на протяжении всех лет обучения сохраняют склонность к облегченной учебной работе, механическому копированию действий преподавателя. Интерес к содержанию предмета обычно связан с новизной материала, сменой конкретных видов работы, наглядной стороной обучения и игровыми элементами занятия.

У студентов с высокой успеваемостью ярко выражена мотивация достижения успеха - желание хорошо выполнить задание, сочетающееся с мотивом получения высокой отметки или одобрения взрослых. У слабо успевающих студентов мотив достижения выражен значительно хуже, а в ряде случаев вообще отсутствует.

Почти четверть неуспевающих отрицательно относятся к учению из-за того, что у них преобладает мотив избегания неудачи.

Очевидно, что мотиваторами учебной деятельности могут быть социально-психологические факторы: желание хорошо выглядеть в глазах одноклассников, обожание своего преподавателя, желание доставить ему удовольствие своим ответом на занятие и получить от него похвалу.

Отметка в качестве ведущего мотива обучения выступает у более половины студентов. У трети преобладает престижный мотив, а познавательный называется очень редко. Такая ситуация не очень благоприятна для процесса, так как ответственность и трудолюбие студентов слабо связаны с мотивом отметки по сравнению с познавательным интересом.

Подводя итог, можно сказать, что роль мотивации при обучении иностранному языку очень высока. Учитель должен разрабатывать свои методы, психологически продуманные приемы, знакомиться с опытом передовых учителей для активизации и поднятия мотивации учебно-познавательной деятельности. Важно также побудить учащихся к накоплению языкового материала. Для этого можно применять различные методы на уроке.

Таким образом, мы видим, что мотивы, связанные с учебной деятельностью очень сильно связаны с познавательной потребностью. Познавательная потребность связана неодинаково у разных студентов:

у некоторых ярко выражена, у других – менее выражена и связана с практической активностью.

## ЛИТЕРАТУРЫ

1. Акулина Н.Н. Влияние общего интеллекта и мотивации на успешность усвоения знаний //Анализ чтения – СПб: Питер, 2005.
2. Асеев В.Г. Мотивация поведения и формирования личности. – М.: Мысль, 2006.
3. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – СПб: Питер, 2008.
4. Алексеева М.И. Мотивы обучения учащихся (Текст) / М.И. Алексеева. – М.: Советская школа, 2011.
5. Азарова С.Н. и др. Книга для учителя к учебнику англ. язык для начальнй школе Enjoy English-1. Обнинск, Титул, 2005.
6. Арьюки К. Способы активизации учащихся младшего возраста на занятиях по английскому языку// Ранее обучение английскому языку: теория и практика. – СПб: 2004.

**Ozoda NISHONOVA,**  
O'zbekiston Milliy universiteti  
"Falsafa va Ma'naviyat asoslari" kafedrasida professori, f.f.d.  
E-mail: o.nishanova@nuu.uz

## ETNOMADANIYATNING IJTIMOYIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada etnomadaniyatning ijtimoiy xususiyatlari yoritiladi. Etnomadaniyatning bosh ijtimoiy xususiyatlaridan biri va mohiyati uning yangi madaniy boyliklar yaratishga, kishini ijodga, izlanishga, yon-atrofni yanada go'zal, zavqli, insoniy qilishga undashida ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, globallashuv jarayoni, ommaviy madaniyat haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** etnomadaniyat, madaniyat, til, ijtimoiy xususiyat, yoshlar, globallashuv, "ommaviy madaniyat", millat.

Bugun ko'p qutbli dunyo shakllanmoqda. Mamlakatlar tarixi, qadriyatlaridan kelib chiqqan holda o'z yo'llarini o'zlariga mustaqil belgilamoqdalar. Yangi taraqqiyot modellari, yangi texnologiyalar vujudga kelmoqda. Davlatlar, elat, millat, xalqlar, diniy konfessiyalar hamda madaniyatlar o'rtasida turli ziddiyatlar kuzatilmoqda. Shu bois, millatlar o'z madaniyatini turli mexanizmlar yordamida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar.

Madaniyatning shakllanishi tabiiy-jug'rofiy makon, ijtimoiy muhit, ishlab chiqarish munosabatlari, hayot va turmush tarzi, an'analar, hatto biologik omillar ta'siri bilan bog'liqdir. Ushbu rang-barang, goho bir-biriga zid hodisalar o'ziga xos kishilar konglomeratini shakllantirganki, to yangi davrgacha bo'lgan ijtimoiy-tarixiy bosqichlarda hech bir kishi o'zini ushbu ittifoqdan tashqarida ham yashashi mumkinligini idrok etolmagan. Kommunitar hayot tarzi va fikrlash usuli madaniyatning o'zagiga, yadrosiga aylangan.

Milliy madaniyat bilan etnomadaniyat aynan fenomenlar emas, milliy madaniyat etnomadaniyatdan kengdir. "Etnomadaniyat (xalq madaniyati) milliy madaniyatning qadimiy qatlamidir. U, asosan, maishiy hayotni qamrab olgan bo'lib, "ajdodlar urf-odatlaridan" iboratdir. Uning belgilari oziq-ovqat, kiyinish, xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati kabi xalq hayotiga bevosita taalluqli artefaktlarda, narsalar, an'analar, marosimlar, tomoshalar va xo'jalik tiplarida namoyon bo'ladi" [1]. Xullas, etnomadaniyat millatni shakllantirgan, etnoslar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi sifatida milliy madaniyatning yadrosini tashkil qiladi. Uning bosh funksional xususiyati etnoslar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilish, yoshlarda milliy g'ururni, vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg'usini shakllantirishdir.

Faylasuf U.Mengliqulovning yozishicha, "postsovet makonning murakkab to'qnashuvlarida mintaqamizdagi etnomadaniy boyliklar, ularning ma'naviy taraqqiyotimizdagi o'rni va ularni asrab qolish eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ularning ahamiyati, ayniqsa, barcha insoniyat uchun umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi tan olingani sari ortib bora boshladi. Ular har bir jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining asosini tashkil etadi va jamoatchilik ongi va milliy o'z-o'zini anglashga ta'sir qiladi. Ularni tahlil qilish uchun etnomadaniyatning integratsion konsepsiyasini aniqroq qo'llash talab etiladi" [2]. Ildizi zaif, globallashuv va milliy taraqqiyot talablariga javob bera olmaydigan an'analar ijtimoiy-madaniy hayotdan tushib qolishi, shubhasiz. Mazkur holat esa etnomadaniy boyliklardan qay birini asrab qolish va rivojlantirish masalasini o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bobil minorasi haqidagi rivoyatda hikoya qilinishicha, xudo kishilar bir-birini tushunmasin degan maqsadda ularning tillarini qo'shib, aralashtirib yuboradi. Aslida bu rivoyat

etnomadaniyatlarining kelib chiqishiga taalluqlidir. Tilning xilma-xilligi etnomadaniyatlarining asosiy belgilaridan biridir. Til nafaqat kommunikatsiya vositasi, unda etnolingvistik, etnopsixologik, hatto ekzistensial borliqni idrok etish, anglash va ifodalash kuchi mavjud. Ushbu kuchning gnoseologik tajribaga ta'sirini ilk bor etnologik nuqtai nazardan yoritishga intilgan nemis faylasufi V.F.Gumboldt bo'lgan. Aynan u til inson va xalqning, millatning "ma'naviy kuchi", o'ziga xos "dunyoni anglashi" deb ta'rif beradi [3]. Demak, tilda shaxsning, etnosning nafaqat olamni anglashi, gnoseologik tajribasi, shuningdek "meni" o'z ifodasini topadi. Bu o'rinda xalqimizning "Til bilgan - el biladi" maqoli esga tushadi. Xalqlar, millatlar bir-birlarining tilini qancha yaxshi bilsa, ularni birlashtiruvchi universal - madaniy omillar shuncha ko'payadi.

Etnomadaniyatni tashkil etadigan boshqa komponentlar: odat, tajriba, marosim va bayramlarning paydo bo'lishi haqida madaniyatshunos olim U.H.Qoraboyev shunday yozadi: "Odatlar insonning tabiiy ehtiyoji asosida vujudga kelgan... Ongli mehnat muayyan tadbirlardan foydalanishni taqozo etgan. Foydali va qulay tadbirlar takrorlanib, tajribalar vujudga kelgan. Chuqur ma'noli va shaklan madaniylashgan tajriba - tadbirlar odatga aylangan. Muhim odatlar asosida marosimlar paydo bo'lgan. Jamoa hayotida xursandchilik bilan o'tadigan voqealar zamirida bayramlar shakllangan" [4]. Odat etnomadaniyatdagi ilk estetik voqelikdan biridir. Odat (ritual) kishilarning etnos, sotsium talablariga muvofiq bir xildagi xatti-harakatlaridir. To'g'ri, ilk arxaik odatlar beayov, hatto g'ayriinsoniy bo'lgan. (Masalan, gulxan atrofiga aylanish, cho'g', pichoq bilan tanada belgi qoldirish, tiriklay ko'mish (ko'milish) yoki o'ldirish (o'ldirilish), qoya, tepalik ustidan o'zini yoki mayitni tashlab yuborish va h.k.) Hozir ham ayrim ibtidoiy odatlarning ko'rinishlari, qoldiqlari u yoki bu etnomadaniyatda uchrab turadi.

Etnomadaniy va etnologik tadqiqotlarda ijtimoiy-madaniy voqelikni elitar (ayrim guruh kishilarga yoki maxsus tayyorgarligi bor shaxslarga oid) va ommaviy (barchaga, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning barcha ishtirokchilari va qatnashchilariga oid) pog'onalarga bo'lishadi. Elitar madaniyatni yetakchi, birlamchi ekani haqidagi qarashlar antik davrdan beri mavjud. Qadimgi yunon faylasufining davlatni faqat faylasuflar, ongi, tayyorgarligi, tafakkuri yuqori shaxslar boshqarishga qodir, degan fikri keyinchalik ijtimoiy-madaniy hayotga ham tadbiriq etildi. Ushbu fikrlarga ko'ra, alohida intellektual va ijodiy xislatlarga ega kishilargina ijtimoiy-madaniy boyliklar yaratishga qodir, qolgan aholi, xalq, omma ushbu elita - andozalarga ergashadi. Bunday yondashuv ilmiy adabiyotlarda ko'p marta tanqid qilingan. Chunki etnomadaniyat o'zining genezisi, vazifalari va namoyon bo'lish xususiyatlariga ko'ra xalqqa, millatga oid ommaviy voqelikdir, unda aniq subyektni, shaxsni ko'rsatish qiyin. Shu

bilan birga etnomadaniyatning ijtimoiy-dinamik xususiyati mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo bu xususiyat ichki rivojlanish, ichki komponentlarning o'zaro ta'sir etib o'zgarishi, boyishi natijasi bo'lganidagina evolyutsion taraqqiyotga xizmat qiladi. Demak, etnomadaniyatning ichki qonunlariga muvofiq dinamik o'zgarishi tinch rivojlanishni, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning tadrijiy-evolyutsion kechishini, xalqni, millatni yaratib yashashga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Etnomadaniyatga qaratilgan tashqi tazyiq, tajovuz esa xalq, millat hayotidagi barqarorlikni, evolyutsion rivojlanishni buzadi, kishilar ongida g'ayrimilliy tasavvurlarni, g'oyalarni uyg'otadi.

Etnomadaniyatda tarixiy-madaniy meros mujassamdir. Tarixiy-madaniy meros nafaqat muzeylik (asrash, saqlash, yetkazish), shuningdek targ'ib etish, yoyish vazifasini ham bajaradi. Muзей vazifasi shakllangan an'analarni, yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni qanday bo'lsa, shu tarzda asrashni, saqlashni nazarda tutadi. U etnomadaniy boylikni o'z holicha saqlash, uni davr, o'zgarishlar va qarashlar ta'siridan himoya qilishga intiladi. Masalan, Respublika Davlat san'at muzeyida saqlanayotgan afrosiyob arxeologik topilmalarini, freskalarni o'zgartirish yoki modernizatsiyalash aslo mumkin emas. Ular xalqimiz o'tmishiga oid nodir topilmalar sifatida o'z holicha asralishi, saqlanishi darkor. Muзей vazifasida etnomadaniyatning turg'unlikka, barqarorlikka, an'anaviylikka moyilligi ko'zga tashlanadi. Bu salbiy hodisa emas, balki muzeylik etnomadaniyatning nafaqat genezisini, shuningdek ijtimoiy-tarixiy bosqichlarda uning o'zgarishlarini, transformatsiyaga uchrab rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

Etnomadaniyat xalqning, millatning ekzistensial borlig'i bo'lsa-da, u maxsus targ'ib etishni, uyushtirishni, moddiy va ma'naviy boylik sifatida ommalashtirishni taqozo etadi. Mazkur tadbirlar nafaqat informativ-kommunikatsion, xuddi shuningdek sotsial-psixologik, ya'ni kishilarni xalq, millat, etnos sifatida ruhiy-ma'naviy birlashtirish ahamiyatiga egadir. Aynan shuning uchun ham etnomadaniyatni ommalashtirish milliy tarbiyaviy va g'oyaviy ahamiyatga egadir.

Etnomadaniyatning bosh ijtimoiy xususiyatlaridan biri va mohiyati uning yangi madaniy boyliklar yaratishga, kishini ijodga, izlanishga, yon-atrofni yanada go'zal, zavqli, insoniy qilishga undashidir. Tub maqsadiga ko'ra etnomadaniyat xalq, millat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yanada ko'paytirish, har bir kishini ijtimoiy-madaniy hayotning faol subyektiga, ijodkoriga aylantirishdir. Yangi artefaktlar yaratmagan etnomadaniyat turg'unlikka beriladi, u ijobiy o'zgarishlarga g'ov bo'ladi, I. Gerder iborasi bilan aytganda, "o'ziga o'zi mahliyo bo'lib, ijtimoiy-tarixiy jarayonlardan orqada qoladi" [5]. Shuning uchun etnomadaniyatning ijodga, yaratishga undashi uni yangi ijtimoiy borliq, yangi munosabatlar va boyliklar bilan uyg'un rivojlanishga moyilligidan dalolat beradi.

Inson tug'ilganidan etnomadaniy muhitga tushadi, etnomadaniy boyliklar ta'sirida o'sadi, ulg'ayadi, shakllanadi. Biroq, bu barcha ham etnomadaniy boyliklar yaratuvchi bo'lib yetishadi, yon-atrofni go'zal borliqqa aylantirish o'yi bilan yashaydi, degani emas. Aynan shu o'rinda estetik tarbiya, inson qalbida go'zallik, olijanoblik, ezgulik, odamshavandlik tuyg'ularini shakllantirish muhim rol o'ynaydi.

Etnomadaniyatning ijodiy faoliyat funksiyasi etnomadaniyatni xalq, millat ijodiy mehnat, izlanishlar va tajriba almashishlar jarayonida yaratadi, degan fundamental ahamiyatga ega yondashuvga tayanadi. Ijodiy faoliyat, umuman faoliyat - insonning mavjudlik usulidir. To'g'ri, barcha faoliyatlar ham madaniyatni yaratavermaydi, balki ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, ongli, sun'iy tarzda yaratilgan narsa, hodisa (artefakt)lar madaniyatdir. O'zbek xalqi etnomadaniyatida bu funksiya mavjud ijtimoiy-madaniy boyliklarni o'zlashtirishdan tortib, to yangi bir ijod

namunasini yaratishgacha bo'lgan izlanishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqi etnomadaniyatiga xos ilk naqsh asarlari eramizdan avvalgi I-ming yillarga oid arxeologik topilmalardayoq uchraydi. Biroq bu o'ta sodda chizmalarga har bir avlod o'z ulushini qo'shib, uni tarixiy-diniy tasavvurlar bilan boyitib, hozirgi murakkab san'at darajasiga ko'targan. Shu tariqa ijodiy faoliyat ta'sirida xalq amaliy san'ati oddiy ko'rinishdan yirik, murakkab janrga o'sib chiqqan.

Ba'zan ijodiy faoliyatda izlanishlar to'xtaganini kuzatamiz. Masalan, arablar istilosi va mo'g'ul-tatarlar bosqini avj olgan davrlarda turg'unlik, ba'zan esa orqaga qaytish hollari kuzatiladi. O'lkada tinchlik qaror topishi bilan xalqimiz madaniy boyliklarni yaratishda davom etadi.

Og'zaki ijod, qo'shiq san'ati kabi janrlarda esa hatto chet elliklar bosqini paytida ham xalqimiz ijodiy izlanishlardan to'xtamagan. Demak, o'zbek xalqi etnomadaniyatiga xos bosh xususiyat uning ijodiy faoliyat va izlanishlardan hech qachon to'xtamaganida, xalqimizni madaniy boyliklar yaratishga uzluksiz intilib kelganidadir.

Etnomadaniyatda xalq, millat ruhi, o'yi, kelajak haqidagi ezgu tilaklari, orzulari kabi pozitiv intilishlari mujassamdir. Shu nuqtai nazardan etnomadaniyat yoshlar qalbida, ruhida nafis tuyg'ularni tarbiyalashi, yon-atrofni go'zallashtirish, insoniyashtirish niyatini shakllantirishi mumkin.

Bugun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayoni madaniy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Globallashuv jarayoni obyektiv jarayon bo'lib, bir qator ijobiy jihatlarga ega. U davlatlar o'rtasidagi integratsiyani kuchayishi, xalqaro maydonga erkin chiqish, dunyo ilm-fani va madaniyat-san'at yutuqlaridan bahramand bo'lish, "borgan sari kuchayib borayotgan ochiqlik va jadallik natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasining yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit deb qaraladi" [6]. Lekin, globallashuv jarayoni muayyan salbiy xususiyatlardan ham holi emas. Madaniy integratsiyaning kengayishi sababli umumplanetar hodisaga aylangan "ommaviy madaniyat" bugun mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biri sanaladi. Uning ta'siridan O'zbekiston ham chekkada qolmadi. Ommaviy madaniyat kishini real voqelikdan chalg'itadi, uni hayollar, istaklar dunyosiga yetaklaydi, zo'rvonlikni, vahimani va yengil-yelpi narsalarni targ'ib qiladi.

"Ommaviy madaniyat"ning asosiy vositalari - radio, televideniye, matbuotsiz ijtimoiy-madaniy hayotni, umuman taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Respublikamizda "ommaviy madaniyat" tazyiqlaridan saqlanishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar, ma'naviy sohada o'zgarishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan va asosiy ko'rsatkichlaridan biri - etnomadaniyatni asrash va rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlar shular jumlasidandir. O'zbek etnomadaniyati yangi O'zbekiston milliy demokratik taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Etnik madaniyatni o'rganish bizga nafaqat tarixdan darak beradi, balki zamonaviy muammolarni yechishga ham yordam beradi. "Tarixning, tarixilikning qimmatini uning uzoq o'tmishga borib taqalishida emas, balki zamonaviy muammolarni hal etishga yordam berishidir. Agar biz zamonaviy muammolarning kelib chiqish tarixini o'rgansak va negizlarini topsak, ularni yechish yo'llarini ham topamiz" [7]. Demak, muammoga tarixiy nazar ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni qayta tiklash uchun emas, balki zamonaviy muammolarning mohiyatini anglash va ularni samarali yechish uchun lozimdir.

Etnomadaniyatda innovatsiyaga intilish, ya'ni taraqqiy etgan davlatlar erishgan madaniy-ma'rifiy, ilmiy, huquqiy, siyosiy yutuqlardan bahramand bo'lishga qiziqish katta. Etnomadaniyat mutlaq shakllangan, o'zgarmas voqelik emas, u jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar ta'sirida,



kishilarning ma'naviy, madaniy, ruhiy ehtiyojlari, qiziqish va talablari ta'sirida transformatsiyaga uchraydi.

O'zbek xalqi etnomadaniyatini barqaror an'analar va qadriyatlar tarzida avaylab, asrab kelayotgan ijtimoiy muhit bu oiladir. Aynan oilaviy-maishiy marosimlarda etnomadaniyatning ichki xususiyatlari, ko'rinishlari, funksional belgilari to'la namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi oilaviy-maishiy marosimlarida muqim, turg'un etnik belgilar yetakchi o'rin tutadi. Hatto, ijtimoiy o'zgarishlar ham ulardagi "yadro"ni o'zgartirilmagan. "Yadro"ga kiruvchi diniy, oilaviy-maishiy marosimlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramlar, mentalitet, turmush tarzi, xo'jalik-madaniy tiplar duch kelgan novatsiya va innovatsiyalarni qabul qilavermaydi, ularga muqimlik xos. Biroq, ustki qism – ta'lim, ilm-fan, ma'rifat, ijtimoiy faoliyat, kishilararo aloqalar, ommaviy axborot vositalari, moda kabilar bilan bog'liq madaniy hayot mudom izlanishda, modernizatsiya ta'sirida bo'ladi. Hech bir etnomadaniyat mazkur ta'sirdan chetda qololmaydi. O'zbek etnomadaniyatida bugun bir tomondan, o'zak qismning muqim saqlanayotgani, ikkinchi tomondan, ustki qismning zamonaviy hayot tarzini, ilm-fan yutuqlarini, sivilizatsion munosabatlarni o'zlashtirishga, novatsiya yaratishga, innovatsion izlanishlarda faollik ko'rsatishga intilayotgani

ko'zga tashlanadi. Bizning fikrimizcha, o'zak va ustki qismlarning antogonistik qutblarga aylanishiga yo'l qo'ymasdan, ular o'rtasida hozir shakllanayotgan uyg'unlikni, integratsiyani, yaxlitlikka intilishni saqlab qolish va mustahkamlash zarur.

O'zbek etnomadaniyati o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy voqelik sifatida xalqimiz madaniyatini, madaniy hayotini rang-baranglashtirib, ichki jarayonlarini jonlantirib keladi. Variantlilik madaniyatning rivojlanish shartidir. Bundan tashqari, xotin-qizlarning oilaviy an'analar, urf-odatlar, tarixiy-madaniy merosga sadoqati tufayli o'zbek xalqi etnomadaniyati o'zligini asrab kelmoqda. Shuning uchun xotin-qizlarni xalqimiz tarixiy-madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilishga yanada kengroq jalb qilish lozim.

Jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida yoshlarning o'rni muhim. Ularni ajdodlarimiz tajribasiga sadoqatli, irodali inson qilib tarbiyalash milliy taraqqiyot oldidagi vazifalardan biri hisoblanadi. Bugun "globallashuv jarayonlarida yoshlar ma'naviyatiga tahdidlarning oldini olish – ularni bunday jaholatli holatlardan asrashning ham birdan-bir o'chog'i ta'lim-tarbiya tizimidir" [8]. Yoshlarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda ta'lim-tarbiya tizimida milliy qadriyatlarimizdan samarali foydalanish, ularda o'zligini anglash tuyg'usini shakllantirish lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Кармин А.С. Основы культурологии. // Морфология культуры. –СПб.: Лань, 1997. –С. 144-145.
2. Mengliqulov U.M. Surxon vohasi etnomadaniyati (genezisi, xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari): Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... dis. –Toshkent, 2022. –B.24.
3. Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. –М.: Худ. лит-ра, 1984. –С.14-15.
4. Usmon Hosil. Odatnoma. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. –B.268.
5. Гердер И.В. Идеи философии к истории человечества. –М.: Наука, 1977. –С. 46.
6. Qobilov Sh. Globallashuv va xavfsizlik // Falsafa va huquq. –Toshkent, 2005. -№ 4. –B. 46.
7. Ястерс К. Смысл и назначение истории. –М.: Республика, 1998. –С. 21.
8. Норбоев Т. Глобаллашув жараёнлари ва маънавий таҳдидлар // Фалсафа ва ҳуқуқ. Махсус сон. –Тошкент, 2009. – Б.13.

**Xabibjon OLIMJONOV,**

*O'zMU Tarix fakulteti "O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasida tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: olimjonov\_1860@mail.ru*

**Xilola G'ULOMOVA,**

*O'zMU Ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalar bo'limi yetakchi mutaxassisi*

*E-mail: gulomova\_2546@mail.ru*

*O'zMU Tarix fakulteti "Manbashunoslik va arxivshunoslik" kafedrasida tarix fanlari doktori (DSc) M.Hamidova taqrizi asosida*

## TURKISTON XALQ UNIVERSITETINING TASHKIL ETISH TARIXIDAN (XX ASR BOSHLARIDA JADID MA'RIFATPARVARLARINING HISSASI)

Annotsatsiya

Mazkur maqolada Turkistonda ochilgan birinchi musulmon universiteti ya'ni xozigi O'zbekiston Milliy universiteti tarixi yozilgan. Maqolada XX asr boshlaridajadid ma'rifatparvarlarining universitet tashkil qilishga qo'shgan hissalarini tahlil qilingan. Shuningdek, Turkiston xalq universitet tashkil etishda jadidlarning amaliy ishlari, musulmonlarning bu boradagi ehtiyojlari e'tiborga olinmaganligi to'g'risida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, davriy matbuot, gazeta, kitob, kutubxona, katalog, bibliograf, arxiv, arxiv fondi.

**Kirish.** Mamlakatimizda oliy ta'limni rivojlantirish sohasida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [3], 2023-yilda farmonlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi tashkil qilinib, ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur konsepsiyasida O'zbekiston Milliy universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish vazifasi qo'yilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Milliy universitet tarixiga oid adabiyotlar talaygina. Shulardan S.Xolboyevning risola va maqolalari ajralib turadi. Unda universitet tarixi, jadid ma'rifatparvarlarining universitet tashkil qilishdagi faoliyati o'rganilgan. Darxaqiqat, universitet tarixi 105-yil avvalgi borib taqaladi. Uning tashkil etilishi XIX asr oxiridan boshlangan. Turkistonda Uyg'onish davrining uchinchi davri XIX asr oxiri – XX asr boshlarida boshlangan. Uyg'onish davrining dastlabki ikki davrining tarixiy davomi bo'lsa-da, lekin ulardan tubdan farq qiladigan Milliy tiklanish davriga aylandi. Bu tarixiy hodisa bevosita shu davrda amalga oshirilgan milliy islohot, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, mafkuraviy harakat – jadidlar harakati natijasida yuzaga keldi. Millat ziyolilari o'zlikni anglash, takomillashtirish zarurligini tushundi. Millatning ongi, mentaliteti, tafakkuri, dunyoqarashi o'zgardi. Unda milliy istiqlol va taraqqiyotga intilish, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va mahalliy zulmga qarshi kurash, erkinlik, tenglik va adolat uchun mardlik va kurash qobiliyati namoyon bo'ldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jadid ziyolilari millat va jamiyat taraqqiyotida tub burilish yasadilar, yangi jadid madaniyatini yaratdilar. Klassik adabiyot ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etib, yangilandi. Xalq teatri va matbuoti, turli madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy birlashmalar, tashkilotlar, partiyalar paydo bo'ldi, ular ta'sirchan faoliyat olib bordi. Natijada jadidlar millatni qayta tarbiyalashga, uni asriy ommaviy uyqudan uyg'otishga erishdilar. Xalqda milliy uyg'onish alomatlarini borligini birinchi bo'lib jadidlar ham angladilar. Bunga Mirmulla va Mirmuhsin Shermuhammedovlarning maqolalari, Laziz Azizzodaning "Turkiston milliy tiklanishi tarixi" asarini misol qilib keltirish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Jadidlar milliy dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini targ'ib qilish barobarida oliy o'quv yurtlarini

tashkil etish bo'yicha ham jiddiy tayyorgarlik va amaliy tashkiliy ishlar olib bordilar. Jadid maktablarida matematika, geografiya, tarix, ona tili, adabiyot, rus tili kabi dunyoviy bilim va fanlarni o'qitishdan boshlandi. Jadid maktablari ikki bosqichli o'rta ta'lim tizimidan iborat bo'lgan: to'rt yillik boshlang'ich maktab va yetti yillik o'rta maktab. Ta'lim pullik bo'lib, o'sha yillarda zamonaviy ta'lim marketingining poydevori qo'yildi. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari esa tekin ta'lim oldilar. Bundan tashqari jadidlar Toshkentda "Qumak" (1909) va "Doril ojizin" (1923), Buxoroda "Tarbiyai atfol" (1910) nomli maxsus xayriya jamiyatlarini tuzdilar va yordam bilan ulardan Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston, Turkiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarga ta'lim olish uchun milliy kadrlarni yuborib, ularning dunyoviy umumiy ta'lim olishiga ko'maklashdilar.

Jadidlar barcha imkoniyatlardan foydalanib, Rossiya imperiyasi amaldorlari oldiga milliy oliy o'quv yurti tashkil etish masalasini qo'ydilar. Masalan, 1917-yil boshida harakat Turkistonning bosib olinishining 50 yilligini nishonlay boshlagan zahoti Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev "Sadoi Turkiston" gazetasida maqola bilan chiqib, Toshkentda musulmonlar uchun bir tashkilot ochish masalasini ko'targan edi. Bundan tashqari, 1916-yilgi xalq qo'zg'olonini ayovsiz bostirishga va qo'zg'olon qatnashchilariga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lishga qarshi kurashayotgan jadidchilar guruhining iltimosiga ko'ra, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevev Rossiya Davlat Dumasi maxsus komissiyasi oldiga ham A.F.Kerenskiy boshchiligidagi Turkistonga kelgan musulmonlar uchun universitet ochish talabi qo'ydi. 1917-yil fevral oyida Rossiya imperiyasida ro'y bergan inqilobgacha jadidchilik harakati vakillari dunyoviy oliy maktab (universitet) tashkil etish g'oyasini ilgari surgan edilar. Bu o'sha davrda dunyoviy oliy ta'lim butun xalqning ehtiyojiga aylanganidan dalolat beradi.

Jadid ziyolilari millat va jamiyat taraqqiyotida tub burilish yasadilar, yangi jadid madaniyatini yaratdilar. Klassik adabiyot ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etib, yangilandi. Xalq teatri va matbuoti, turli madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy birlashmalar, tashkilotlar, partiyalar paydo bo'ldi, ular ta'sirchan faoliyat olib bordi. Bularning barchasi natijasida jadidlar millatni qayta tarbiyalashga, uni asriy ommaviy uyqudan uyg'otishga erishdilar. Xalqda milliy uyg'onish alomatlarini borligini birinchi bo'lib jadidlar ham angladilar [6]. Bunga Mirmulla va Mirmuhsin Shermuhammedovlarning

maqolalari, Laziz Azizzodaning "Turkiston milliy tiklanishi tarixi" asarini misol qilib keltirish mumkin.

Jadidlar milliy dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini targ'ib qilish barobarida oliy o'quv yurtlarini tashkil etish bo'yicha ham jiddiy tayyorgarlik va amaliy tashkiliy ishlar olib bordilar. Jadid maktablari matematika, geografiya, tarix, ona tili, adabiyot, rus tili kabi dunyoviy bilim va fanlarni o'qitishdan boshlandi. Jadid maktablari ikki bosqichli o'rta ta'lim tizimidan iborat bo'lgan: to'rt yillik boshlang'ich maktab va yetti yillik o'rta maktab. Ta'lim pullik bo'lib, o'sha yillarda zamonaviy ta'lim marketingining poydevori qo'yildi. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari esa tekin ta'lim oldilar. Bundan tashqari jadidlar Toshkentda "Qumak" (1909) va "Doril o'jizin" (1923), Buxoroda "Tarbiyai atfol" (1910) nomli maxsus xayriya jamiyatlarini tuzdilar va yordam bilan ulardan Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston, Turkiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarga ta'lim olish uchun milliy kadrlarni yuborib, ularning dunyoviy umumiy ta'lim olishiga ko'maklashdilar.

Jadidlar barcha imkoniyatlardan foydalanib, Rossiya imperiyasi amaldorlari oldiga milliy oliy o'quv yurti tashkil etish masalasini qo'ydilar. Masalan, 1917-yil boshida harakat Turkistonning bosib olinishining 50 yilligini nishonlay boshlagan zahoti Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev "Sadoi Turkiston" gazetasida maqola bilan chiqib, Toshkentda musulmonlar uchun bir tashkilot ochish masalasini ko'targan edi. Bundan tashqari, 1916 yilgi xalq qo'zg'olonini ayovsiz bostirishga va qo'zg'olon qatnashchilariga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lishga qarshi kurashayotgan jadidchilar guruhining iltimosiga ko'ra, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev Rossiya Davlat Dumasi maxsus komissiyasi oldiga ham qo'ydi. A.F.Kerenskiy boshchiligidagi Turkistonga kelgan musulmonlar uchun universitet ochish talabi 1917-yil fevral oyida Rossiya imperiyasida ro'y bergan inqilobgacha jadidchilik harakati vakillari dunyoviy oliy maktab (universitet) tashkil etish g'oyasini ilgari surgan edilar. Bu o'sha davrda dunyoviy oliy ta'lim butun xalqning ehtiyojiga aylanganidan dalolat beradi [6].

Rossiyada fevral sodir bo'lgandan keyin Turkistonda yaratilgan demokratik erkinlik sharoitida millatchi jadidlar rus demokratik ziyolilari bilan birgalikda universitet tashkil etishga intildilar. Ammo o'sha paytda Oktyabr to'ntarishi sodir bo'lib, yangi Sovet hukumati – Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Bu hukumatning 1918-yil 16-martda Toshkentda Turkiston xalq universitetini tashkil etish to'g'risida ma'rifat xalq komissarligiga bergan farmoni – buyrug'ida faqat rus va rusiyabonlar uchun oliy ma'lumotga bo'lgan ehtiyojni qondirish zarurligi ko'rsatilgan edi. Aholi soni hisobga olinmadi. Universitet tashkil etishda jadidlarning amaliy ishlari, musulmonlarning bu boradagi ehtiyojlari e'tiborga olinmadi. Farmonning ushbu buyrug'i asosida rus ziyolilari darhol ishga kirishdilar. Bundan xabar topgan Munavvarqori Abdurashidxonov 9-aprel kuni o'z uyida

zamonaviy oliy ta'lim tarafdori bo'lgan jadidlarning faol guruhini yig'ib, ularga vaziyatni tushuntirib, universitet tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Uning rahbarligida yig'ilganlar 9 kishidan iborat "Musulmon xalq universiteti tashkiliy komissiyasi"ni tuzdilar. Bu demokratik ruhda tuzilgan komissiya edi. Shuning uchun komissiya asosan ikki yo'nalishda ish olib bordi, xususan: hukumat tomonidan tan olinishiga erishish, shuningdek, universitetni ochishni bevosita tashkil etish.

Musulmonlar uchun universitetning ochilishi rus millatiga mansub kishilar uchun ochiq bo'lgan Turkiston xalq universiteti rahbariyatini ham qo'llab-quvvatladi, ularga yordam berdi. Uning bosh professori O.V.Popov 6-may kuni Musulmon xalq universiteti tashkiliy komissiyasining sakkizinchi yig'ilishida ishtirok etar ekan, "kelajakda uni ikkinchi universitet emas, balki yagona universitet deb atash kerak", dedi. Shundan so'ng Musulmon xalq universiteti filiali sifatida Turkiston xalq universitetiga birlashtirilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi komissiya faoliyati natijasida 1918-yil 12-may shanba kuni – Musulmon xalq universitetining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Oldinroq Vikula Morozovning do'koni joylashgan Eski shahardagi binoda tantanali marosimning hakamlar hay'ati – hukumat a'zolari, xalq komissarlari, musulmon va rus xalq universitetlari raislari (rektorlari) va boshqa shaxslar joylashgan edi.

Yig'ilishni Munavvarqori Abdurashidxonov ochib, qisqacha ma'ruza qildi. U o'z nutqida musulmonlar yarim asr mustamlaka bo'yinturug'i ostida qullikda yashab, ozodlik katta qurbonlar evaziga qo'lga kiritilganini ta'kidladi. Shu bilan birga, u "xalqning ilmga juda muhtojligi, qon to'kish orqali qo'lga kiritilgan ozodlikdan so'ng turkistonliklar ham ilm olish imkoniyatiga ega bo'ldilar", degan edi. Shundan so'ng u harbiy ruhda yig'ilganlardan ozodlik uchun qurbon bo'lganlar xotirasiga bir daqiqa sukut saqlashni so'radi. Bu vaqtda harbiy musiqiy marsh yangradi. So'ngra ozodlik yo'lida qurbon bo'lgan musulmonlar xotirasiga bag'ishlab Samikori Afandi Qur'oni karim, oyat va fatvolar o'qib, ularning xizmatlarini yodga oldi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib 1918-yilning 12-mayi butun xalq ehtiyojiga aylangan oliy dunyoviy ta'lim markazi yaratilgan, bugungi Milliy universitetning poydevori qo'yilgan muborak kun sifatida tarixga kirdi [6]. Bir asrdan oshiq vaqt davomida, aniqrog'i 105-yildan buyon ushbu sana universitetga asos solingan tantanali marosim sifatida nishonlab kelinmoqda.

Shunday qilib, XX asr boshlaridayoq Turkistonning ziyoli kishilari, jadid ma'rifatparvarlari Toshkentda yirik ilm-ziyo maskaniga asos solishga kirishishdi. Bir qator tashabbus va harakatlardan so'ng Turkiston Xalq universitetiga tamal tosh qo'yildi va bir asir davomida ilm, ma'rifat tarqatib kelmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.01.2020. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
4. O'zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. –Toshkent, 2022.
5. Vasiyeva D.I. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda universitet ta'limining shakllanishi va rivojlanishi: tajriba va muammolari (1991-2001-yy.). Tarix fanlari nomzodi diss. – Qarshi, 2008.
6. Xolboyev S. Milliy universitetning tarixiy ildizlari va tashkil topishi / Mas'ul muharrir B.Kosimov. – Toshkent: Sharq, 2003. – 128 b.

**Ravshan OXUNOV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti Ekologik monitoring kafedrasida dotsenti v.b.*

*Email: r.ohunov@nuu.uz*

**Muhriddin QODIROV,**

*O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya fakulteti talabasi*

*Email: qodirovmuhriddin74@gmail.com*

*Toshkent Davlat texnika universiteti Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasida dotsenti, t.f.f.d.(PhD) D.Raximova taqrizi asosida*

## OLYI TA'LIM MUASSASALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI YAXSHILASH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali ta'lim sifatini oshirish masalalari tahliliy bayon qilingan. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish uchun xavfsiz, qulay, adolatli mehnat sharoitlarini yaratish, professor-o'qituvchilar qo'nimsizligini oldini olish va ularni doimiy ish bilan ta'minlash, rag'batlantirish tizimini joriy etish katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ta'lim beruvchi xodimlarning mehnat sharoitlari qay darajada yaxshi bo'lsa, ularning ta'lim berish sifati ham shunchalik yuqori bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim muassasalari, oliy ta'lim, ta'lim sifati, mehnat sharoitlari, xavfsizlik, professor-o'qituvchilar.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'lim xizmatlari sifatini oshirish va jamiyatni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", deb e'lon qilindi. Mamlakat salohiyati bilim va tafakkurda ekanligiga urg'u berilib, "Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'li" ekanligi ta'kidlandi[1]. Ta'lim sifati uchun bog'cha tarbiyachisi va maktab o'qituvchisidan tortib mamlakat ta'lim tizimining barcha bosqichlari mutassadilarining mas'uliyatini oshirish vazifasi qo'yildi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakatni rivojlantirish uchun avvalo, chuqur bilim va ko'nikmalarga ega, o'z kasbini to'liq egallagan, professional kadrlar bilan ta'minlab berish lozim. Ushbu kadrlarni o'qitish va kasbga tayyorlash kabi ishlar asosan oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga - bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda 210 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, bulardan: universitetlar 36

ta, institutlar 48 ta akademiyalar 4 ta va konservatoriya 1 ta, xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari 30 ta, nodavlat oliy ta'lim muassasalari 65 ta, filiallar esa 26 tani tashkil etadi. Davlat oliy ta'lim muassasalarining 63 tasi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar" vazirligiga, 12 tasi "Sog'liqni saqlash" vazirligiga, 10 tasi "Madaniyat va turizm" vazirligiga, 7 tasi "Raqamli texnologiyalar" vazirligiga, 6 tasi "Qishloq xo'jaligi" vazirligiga, 4 tasi "Yoshlar siyosati va sport" vazirligiga, 1 tasi "Adliya" vazirligiga, 1 tasi "Tashqi ishlar" vazirligiga, 1 tasi "Maktabgacha va maktab ta'limi" vazirligiga, 1 tasi "Transport" vazirligiga, 1 tasi "Tog'-kon sanoati va geologiya" vazirligiga tegishlidir. "Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veteranariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi"ga 3 ta, "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi"ga 1 ta, "Din ishlari bo'yicha qo'mita"ga 1 ta, "Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi"ga 1 ta oliygoh qarashli[2].

Hozirgi kunda ushbu oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan pedagog xodimlar soni 33 000 dan ortiqni tashkil etmoqda. So'nggi yillarda xalqaro standartlarga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish va ta'biq etish bo'yicha juda ko'p islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilindi.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida talabalarga beriladigan ta'lim jarayonidan boshlanadi. Ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon[3].

Sifatli ta'lim jarayoni esa professor-o'qituvchilarga bog'liq. Pedagog xodimlar o'qitish jarayonlarida zamonaviy, innovatsion o'qitish usul va vositalarini qo'llashlari lozim. Professor-o'qituvchilarning faoliyati ya'ni, o'quvchitalabalarga ta'lim berish jarayoni ularning emotsional holatlari: fikr va hissiyotlari bilan chambarchas bog'liq. Professor-o'qituvchilarda emotsional holatning ijobiy bo'lishi ichki muhit va ularning mehnat sharoitlariga ham bog'liq bo'ladi. Mehnat sharoitlari - mehnatni amalga oshirish chog'idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi[4]. Bu majmuaga mehnat va dam olish tartibi, ish joyi va butun

binoni, korxonada maydonini yoritish, ishlab chiqarish binosi va asbob-uskunalarini texnika estetikasi talablariga muvofiq bo'yash, qulay joylashtirish, harorat rejimi, bino va ish joyidagi havoning tozaligi, ishlab chiqarish shovqini va tebranishlardan muhofaza qilish, ishlab chiqarishda ishchilarga talab darajasida maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatish, zararli ishlab chiqarish omillari mavjud bo'lganda mexanizatsiyalashni tashkil etish, og'ir jismoniy ishlarga barham berish singari masalalar kiradi. Shunday qilib, mehnat sharoitlari deganda, ish bajarish, xizmat ko'rsatish jarayonida xodimning sog'lig'i va ish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish muhiti omillarining jami tushiniladi.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha mehnatni tashkil qilish tadbirlari rejalashtirilayotganda quyidagi sharoitlar va talablar yetarlicha hisobga olinishi zarur:

- mehnatning umumiy sharoitlari;
- mehnatning texnika sharoitlari;
- mehnat xavfsizligi sharoitlari;
- sanitariya- gigiena sharoitlari;
- estetik sharoitlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Adabiyotlarda sifat atamasiga turlicha ta'riflar beriladi. Sifat ikki ma'noga ega: ehtiyojlarni qondirish uchun mahsulot yoki xizmat va kamchiliklardan holi mahsulot yoki xizmat. Surakarta Davlat islom instituti (Indoneziya) professori Teguh Budiharso va Turkiyalik mustaqil tadqiqodchi Bulent Tarman takidlashicha oliy ta'limdagi sifat tushunchasida ta'lim samaradorligi, mukammallik, o'quv jarayonining xalqaro standartlarga javob berishi kabilar tushuniladi. "Sifatni ta'minlash oliy ta'lim muassasasi tomonidan o'z ta'lim va boshqa faoliyatlarini boshqarish va sifatini oshirish uchun qo'llaniladigan tartiblar, jarayonlar va tizimlarni anglatadi". Sifat kafolati talabalarga belgilangan standartlarga erishish imkonini beradi. Ta'lim sifatini ta'minlash uchun professor-o'qituvchilarga qulay ish muhitini yaratib berish zarur[5].

Tutkiyalik olimlar Deniz Koyuncu (Istanbul Milliy mudofaa universiteti) va Gokhan Demirhan (Usak universiteti) 17 ta universitetda ishlaydigan 320 dan ortiq professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra ularning yashash va ishlash sharoitlari bevosita ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatishini korelyatsion tahlil natijalariga asosan ko'rsatib berganlar[6].

Ingliz manbalarida olimlar Ogechi Ohadomere, Ikedinachi K. Ogamba esa professor-o'qituvchilar mehnat faoliyatiga salbiy ta'sir omillari sifatida ruhiy zo'riqish va jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda kelishmovchiliklarni ular tomonidan talabalarga beriladigan ta'lim sifatiga ta'sirini o'rganganlar[7].

A.Avliyakov va Z.Saydolimovalarning takidlashicha oliy ta'lim muassasasi quyidagi konsepsiyani qabul qilishi va undan foydalanishi zarur bo'ladi: sifat - bu iste'molchilar (talaba, o'qituvchi, korxonada, jamiyat) talablarini qondirish darajasi, oliy ta'lim muassasasining samarali ishlash va uyg'un kundalik faoliyatni yuritishga tayyorligi darajasidir. Ushbu fikr ta'lim sifatini tushunchasini quyidagilarni o'z ichiga oluvchi piramida ko'rinishida o'rganish va tadqiq qilish imkonini beradi: ta'lim tizimi sifatini; ta'limni boshqarish sifatini; ta'lim jarayonlari sifatini; ta'lim natijalari sifatini[8].

Rus tilidagi manbalarda esa ta'lim sifatini oshirish muammolari o'rganilganda professor-o'qituvchilar jismoniy va ruhiy sog'lig'ini saqlash zarurligi, o'quv yuklamasi soatlarini, pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan ishlar xajmini kamaytirish va rag'batlantirish tizimini joriy qilish tavsiya etilmoqda [9-10].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida ta'lim sifatini va professor-o'qituvchilarga yaratilgan mehnat sharoitlari o'rtasidagi bog'liqlik masalasi tekshirildi. Tadqiqot ishida statistik, mantiqiy va taqqoslama tahlil, analiz va sintez, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil natijalariga ko'ra ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillardan ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar va talabalarga yaratilgan sharoit, dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari, oylik ish haqi ekanligi eng ko'p qayd etilganligi aniqlandi. Yaratilgan mehnat sharoitining qoniqsiz holatda bo'lishi pedagog kadrlar o'nimsizligiga sabab bo'ladi. O'qituvchilarning tez-tez almashishi ta'lim sifatiga ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. O'tkazilgan statistik tahlillar natijasiga ko'ra professor-o'qituvchilar qo'nimsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar: ish haqining kamligi, yashash joyidan uzoqligi, mehnat sharoitining talab darajasida tashkil etilmaganligi, mikroiklim sharoitining (havo harorati, bosimi, tozaligi, harakatchanligi), o'quv auditoriyalarida yorug'lik miqdori, foydalaniladigan interaktiv doska, proyektordan chiqadigan nurlanish darajasi, laboratoriya xonalaridagi turli jihoz va uskunalaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan xavfli va zararli omillarning "Sanitar norma va qoidalar"da belgilanganidan yuqori yoki past darajada bo'lishi, shaxsiy gigiyena qoidalarining buzilishi, shovqin va titrash darajasi, bino holatining qoniqsizligi, jamoadagi do'stona munosabatlarining yo'qligi, lavozim majburiyatlariga kirmaydigan ishlarni bajarish, rahbarlar va bo'ysinuvchilar o'rtasidagi munosabatlarda adolatsizlik va boshqa omillar ekanligi aniqlandi.

Tahlil natijalariga ko'ra professor-o'qituvchilarning mehnat sharoitlari va ularga to'laniladigan oylik maoshlari yuqori bo'lsa oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatida yuqori natijalarga erishiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilariga oylik maoshlaridan tashqari, qo'shimcha rag'batlantirishlar ularning ilmiy va pedagogik faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun qo'shimcha motivatsiya beradi. Ta'lim berish va ta'lim olish muhiti asosan, o'qish va o'qitish jarayonini tashkil etishda qulay, yorug', eng asosiysi, ta'lim olish uchun sokin va tinch muhit bo'lishi zarur. Agarda pedagog xodimlar o'zlarini qay darajada erkin va xavfsiz sezsa, ushbu vaqtda ularning ta'lim berish samaradorligi ham shuncha marta ortib, yaxshilanib boradi. Ta'lim berish samaradorligi yuqori oliy ta'lim muassasalaridan esa yetuk mutaxassis kadrlar yetishib chiqadi.

**Tahlil va natijalar.** Ta'lim tashkilotida o'quv jarayoni ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash ta'lim faoliyati jarayonida professor-o'qituvchilar va talabalar hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan. Ta'lim jarayoni xavfsizligini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlar nafaqat individual xavfsizlik, balki ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining jamoaviy xavfsizligidir. Ushbu yo'nalishlar doirasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun jismoniy va ruhiy shikastlanishga olib keladigan vaziyatlarga tushib qolishning oldini olish, xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish kerak. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- professor-o'qituvchilar va talabalar uchun sog'lom va xavfsiz sharoitlar yaratishni tartibga soluvchi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar talablarini bajarilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonida, shuningdek, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda (bayramlar, sayohatlar, musobaqa va sport tadbirlarida qatnashish, muzeylarga tashrif buyurish, ko'rgazmalar, konferensiyalar va boshqalar) professor-o'qituvchilar va talabalar bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini olish.

Ta'lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish va o'quv jarayoni xavfsizligini ta'minlash nafaqat ta'lim muassasalarining zamonaviy texnik asbob-uskunalar bilan jihozlanishiga, balki bu jihozlardan foydalanayotgan xodimlarning kasbiy mahoratiga, xavfsizlik uchun mas'ul

shaxslarning bilim va malakasiga, professor-o'qituvchilar, o'quvchi-talabalar orasidagi psixologik muhitga bog'liq [1].

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar talabalarga ta'lim berish jarayonlarini tashkil etishda yana bir qancha muammolarga duch kelishlari mumkin. Jumladan, o'quv-laboratoriya xonalari, o'quv jihozlari, qo'shimcha materiallarning yetishmasligi va hokazo. Ushbu muammolarning mavjudligi ergonomika talablarining buzilishiga ham olib keladi, hamda o'quv jarayonining sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Agarda yuqorida berilgan muammolarning oldi olinmasa oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari ish beruvchilar talabini qondira olmasligi natijasida bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari pasaya boshlaydi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanganlik va samaradorlik ko'rsatkichlari kamayib ketishi, o'sha oliyoghdagi samaradorligi past yo'nalish yoki fakultetning yopilishiga olib kelishi mumkin. Natijada esa ushbu fakultetda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar va xodimlar ishsiz qolishlari mumkin. Buning natijasida esa mamlakatda ishsizlik darajasi ortadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda 2022-yil natijalariga ko'ra ishsizlik darajasi 9,6 % ni tashkil etmoqda. Ta'lim muassasalaridagi xavfli va zararli omillar ta'sirining oldini olinmasligi, adolatli mehnat sharoitining yaratilmasligi tajribali professor-o'qituvchilarning ushbu o'quv dargohini tark etishlariga sabab bo'ladi. Mehnat sharoitlari yaxshi, ilmiy va pedagogik faoliyatdagi yutuqlar, qo'shimcha faoliyat uchun rag'batlantiruvchi va kompensatsiya to'lovlari yo'lga qo'yilgan oliy ta'lim muassasalaridan professor-o'qituvchilarning ketishlari deyarli kuzatilmaydi. Professor-o'qituvchining uzoq muddat davomida bir joyda ishlashi uning tajriba orttirishiga va albatta, ta'lim sifatining oshishiga o'z xissasini qo'shmasdan qolmaydi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalaridagi tajribali pedagog xodimlarni ishda ushlab qolish zarur. Bu orqali yetuk, o'z sohasi bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarga ega yosh kadrlarni tayyorlash amalga oshiriladi.

